

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI

N.A. KULDASHEV, U.K. NURULLAYEV

# FUQAROLIK VA OILA HUQUQI

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
akademik litseylari uchun  
DARSLIK*

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiya  
Kengashi tomonidan tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2023

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining  
2022-yil 31-dekabrdagi 178-son buyrug’iga asosan nashr etishga ruxsat  
berilgan.*

Taqrizchilar:

Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik huquqi kafedrasи mudiri,  
yuridik fanlar doktori, professor N.F. Imomov;

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik  
fanlar doktori, professor O.A. Kamalov.

K-90 Kuldashev N.A., Nurullayev U.K.

**Fuqarolik va oila huquqi: Darslik.** – T.: O‘zbekiston Respublikasi  
IIV Akademiyasi, 2023. – 141 b.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalama maxsus ta’lim vazirligining 2021- yil  
14-oktabrdagi 62qq/68qq-son qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik va oila  
huquqi” fani o‘quv dasturi asosida tayyorlangan.

Darslik litsey o‘quvchilarining xususiyatidan kelib chiqib yozilgan.  
Unda fuqarolik va oila huquqiga oid dastlabki ta’limotlar tushunarli, oddiy va  
sodda tartibda bayon qilingan.

IIV akademik litsey o‘quvchilari va professor-o‘qituvchilari hamda  
fuqarolik va oila huquqiga qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.



Siz bilib olasiz



Yodda tuting



Yozib oling



Savol va topshiriqlar

# MUNDARIJA

So‘z boshi.....3

## I bob. FUQAROLIK HUQUQINING UMUMIY QOIDALARI

1-\$. Fuqarolik huquqining tushunchasi, tamoyillari, tizimi va manbalari.....	5
2-\$. Fuqarolik-huquqiy munosabatlар tushunchasi va uning ishtirokchilari.....	15
3-\$. Fuqarolik huquqining obyektlari va turlari.....	28
4-\$. Fuqarolik huquqida bitim tushunchasi, turlari va shakllari.....	35
5-\$. Fuqarolik huquqida muddatlar va uning ahamiyati .....	43

## II bob. MULK HUQUQI

1-\$. Mulk huquqi tushunchasi, turlari va mazmuni.....	47
2-\$. Mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo‘lishi.....	53
3-\$. Mulk huquqini himoya qilishning fuqaroviy-huquqiy usullari.....	56

## III bob. MAJBURIYAT HUQUQI

1-\$. Majburiyat huquqi tushunchasi, tizimi, taraflari, fuqarolik muomalasidagi ahamiyati.....	60
2-\$. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash tushunchasi va usullari.....	62
3-\$. Sharhnomalar haqida umumiyligi qoidalar va ularning ayrim turlari.....	71
4-\$. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar.....	88

## IV bob. INTELLEKTUAL MULK

1-\$. Intellektual mulk obyektlari va ularni huquqiy muhofaza qilish asoslari.....	94
2-\$. Mualliflik huquqi tushunchasi va obyektlari.....	98
3-\$. Muallifning shaxsiy nomulkiy va mulkiy tusdagi huquqlari. Mualliflik sharhnomasi.....	101

## V bob. VORISLIK HUQUQI

1-\$. Vorislik tushunchasi va ahamiyati.....	104
2-\$. Vasiyat va qonun bo‘yicha vorislik.....	108
3-\$. Vasiyatnomalar tushunchasi, belgilari, uni tuzish, bekor qilish va o‘zgartirish tartibi.....	111

## VI bob. OILA HUQUQI

1-\$. Oila huquqi tushunchasi, prinsiplari, tizimi va manbalari.....	118
2-\$. Nikoh tushunchasi, uni tuzish va bekor qilish. Oila a’zolarining huquq va majburiyatlar.....	125
3-\$. Oila a’zolarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlari, aliment majburiyatlar.....	129

## SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalar bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ularga asoslangan holda barcha sohalarda yuz berayotgan o‘zgarishlar har bir mustaqil huquq sohasiga tegishli bo‘lgan huquq normalarini takomillashtirib borishda muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan, fuqarolik va oila huquqini ham.

Fuqarolik va oila huquqi O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimida mustaqil o‘z o‘rniga ega bo‘lgan fundamental fanlardan hisoblanadi. Fuqarolik va oila huquqi o‘zining subyektlari o‘rtasidagi mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan normalar yig‘indisidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-aprelda “Ichki ishlar organlarining faoliyat samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish hamda yanada takomillashtirish, huquqbazarliklarning oldini olish va bu boradagi kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan choralar belgilangan. Ushbu vazifalardan ko‘zlangan maqsadlardan kelib chiqib, Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida tahsil olayotgan o‘quvchilarni o‘qitish uchun oxirgi yillarda qabul qilingan qonunlar asosida, Fuqarolik va Oila kodekslariga kiritilgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda mazkur “Fuqarolik va oila huquqi” darsligi yozib tayyorlandi.

Ushbu darslikni tayyorlashda mamlakatimizda davlat ta’lim standartlariga qo‘yilgan talablar e’tiborga olingan. Shuningdek, asosiy qonunimiz O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, amaldagi Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, joriy qonunlar, me’yoriy hujjatlar, xalqaro huquqiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va sud amaliyoti materiallaridan unumli foydalanilgan.

Ushbu darslikda Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning xususiyatlaridan kelib chiqib, “Fuqarolik va oila huquqi” faniga oid tayanch tushunchalar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, mazkur fan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida o‘qitiladigan “Fuqarolik va oila huquqi” faniga kirish hisoblanadi va unda dastlabki bilimlar o‘z ifodasini topgan.

Mazkur darslik Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida tahsil olayotgan o‘quvchilarga hamda shu sohaga qiziquvchi barcha fuqarolar uchun “Fuqarolik va oila huquqi” fanini o‘rganishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi.

I BOB

## FUQAROLIK HUQUQINING UMUMIY QOIDALARI



## 1-§. Fuqarolik huquqining tushunchasi, tamoyillari, tizimi va manbaları

Fuqarolik huquqi mamlakatimiz milliy huquq tizimining eng yetakchi huquq tarmoqlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.



### **Yodda tuting!**

**Fuqarolik huquqi – bu mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy xarakterda bo‘limgan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig‘indisidir.**

“Fuqarolik huquqi – yuridik jihatdan teng bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig‘indisidir”.

Milliy huquq tizimimiz turli huquq sohalaridan tashkil topgan. Barcha huquq sohalari yagona huquq tizimini tashkil etadi.



**Huquq sohalari ikki asosiy huquq tizimiga ajratiladi:**

**ommaviy huquq sohasi**

**xususiy huquq sohasi**

Ommaviy huquq tarkibiga kirgan huquq sohalari tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy bo'ysunishiga asoslangan munosabatlardir.

Xususiy huquq tizimiga kirgan huquq sohalari tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar esa bir tarafning ikkinchi tarafga huquqiy jihatdan bo'ysunishiga asoslanmagan, mustaqillik va teng huquqqa ega bo'lган ishtirokchilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlardan iborat .

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasi fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasini belgilab bergan.

### Fuqarolik huquqi predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarni quyidagilar tashkil etadi:

**mulkiy  
munosabatlar**

**shaxsiy nomulkiy  
munosabatlar**

**tashkiliy-huquqiy munosabatlar  
(bu nisbatan yangi munosabatlar hisoblanadi)**

**Mulkiy munosabatlarda** ishtirokchilarning o'zaro munosabatlarining mazmunini mol-mulk tashkil qiladi. Ya'ni subyektlarning mol-mulkni egallashlari, undan foydalanish va tasarruf etishlari, ularni fuqarolik muomalasiga kiritishlari bilan bog'liq bo'lган ijtimoiy munosabatlaridir. Ammo mulkiy munosabatlarning barchasi ham fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinmaydi. Ularning ba'zilari huquqning boshqa tarmoqlari, ya'ni ma'muriy, soliq, bojxona, moliya huquqi bilan tartibga solinadi.

#### **Shaxsiy-nomulkiy munosabatlar, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi:**

mulkiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq bo'lган shaxsiy munosabatlar;

mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lмаган sof shaxsiy munosabatlar (shaxsiy nomulkiy munosabatlar).

Mulkiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq bo'lган shaxsiy munosabatlarda mulkiy munosabat shaxsiy munosabatlarni keltirib chiqaradi yoxud aksincha, shaxsiy munosabat mulkiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, ijodkor ijodiy asarini yozishi natijasida uning o'z asariga nisbatan mualliflik huquqi. Ushbu huquq asosida asar tijorat muomalasiga kiritilsa, asardan foydalanganlik uchun haq olish huquqi vujudga keladi.

Mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lмаган shaxsiy munosabatlar, ya'ni sha'ni, qadr-qimmati, o'z tasviriga bo'lган huquq, xususiy hayot sirlari, oilaviy sirlari,

shaxsni individual-lashtirish xususiyatlari bilan bog'liq munosabatlardir. Masalan, har qanday fuqaro jamiyatda kishilar o'rtasida o'zining ismi-sharifi bilan taniladi (FK 19-m.). Bunday shaxsiy huquqlar qonunda belgilangan yoki belgilanmaganidan qat'i nazar mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, personal ma'lumotlar, diffamatsiya va h.k.


Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning uchinchi turini tashkiliy-huquqiy munosabatlар tashkil etadi. Yuridik adabiyotlarda bu munosabatlarni korporativ munosabatlар deb ham atashadi. Tijorat yuridik shaxslarini tashkil etish, ularning faoliyatini amalga oshirish, boshqarish, qayta tashkil etish, tugatish bo'yicha uning muassislari, mulkdorlari, ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlар tashkiliy-huquqiy munosabatlар hisoblanadi. Masalan, tijorat yuridik shaxsni tashkil etish bo'yicha umumiyligi yig'ilishni chaqirish, uning ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish, tijorat yuridik shaxsi faoliyati to'g'risida tijorat yuridik shaxs boshqaruv organlarining ishtirokchilarga axborot berishi kabi munosabatlarni tashkiliy-huquqiy munosabatlар sifatida e'tirof etish mumkin.

Fuqarolik huquqining tamoyili deganda uning rahbariy qoidalari tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-moddasida fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari belgilab qo'yilgan. Ushbu asosiy tamoyillar fuqarolik qonun hujjatlari ishlab chiqilishida, huquqni qo'llash amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.



### Fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari



1) Fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligi tamoyili. Ushbu tamoyil nafaqat FKning 1-moddasida, balki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ham o‘z ifodasini topgan. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari o‘zlari ishtirok etayotgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bir-birlariga nisbatan teng huquqqa egadirlar.

2) Mulk daxlsizligi tamoyili. Ushbu tamoyil mazmuni Konstitutsiyamizning 53-moddasi, FKning 166-moddasida belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, mulk daxlsizdir va u qonun bilan qo‘riqlanadi. Mulkdorning mol-mulkini olib qo‘yishga, uning huquqlarini cheklashga faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

3) Shartnomalar erkinligi tamoyili. Ushbu tamoyilning mazmuni FKning 354-moddasida belgilab qo‘yilgan. Fuqarolik huquqi subyektlari o‘z manfaatlarini turli shartnomalar orqali ro‘yobga chiqaradi. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4) Xususiy ishlarga biron-bir kishining o‘zboshimchalik bilan aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi tamoyili. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda har bir subyekt o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xususiy masalalarni shaxsan o‘zi o‘z erki irodasi bilan hal etishga haqli. Bir subyekt boshqa bir subyektning ishlariga o‘zboshimchalik bilan aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5) Fuqarolik huquqlarining to‘sinqiksiz amalga oshirilishi tamoyili. Uning mohiyati shundaki, hech kim boshqa subyektlarning fuqarolik huquqlarini amalga oshirishga to‘sinqlik qilishga haqli emas. Bordi-yu shunday bo‘lgan taqdirda huquq sohibi bunday to‘sinqiklarning bartaraf etilishini so‘rab sudga murojaat qilishi mumkin.

6) Buzilgan fuqarolik huquqlarining tiklanishi tamoyili. Ko‘p hollarda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining muayyan mulkiy yoki shaxsiy huquqlarining buzilishi bu huquqlarning mutlaqo bekor bo‘lishiga, tugatilishiga olib kelmaydi. Bunday huquqlar huquq sohibining sa'y-harakatlari tegishli vakolatli davlat, jamoat organlari ko‘magi yoxud sud qarori asosida qaytadan avvalgi holatiga tiklanishi mumkin. Masalan, g‘ayriqonuniy ravishda mulkdordan olingan mol-mulkning asl holida qaytarib berilishi.

7) Fuqarolik huquqlarining sud orqali himoya qilinishini ta’minalash tamoyili. Bu tamoyilning markazida odil sudlov orqali huquqlarni va qonuniy manfaatlarni himoya qilish tartibi yotadi. Konstitutsyaning 44-moddasida har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi, deb belgilangan.

8) Tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag‘larning O‘zbekiston Respublikasi hududida erkin harakatlanish tamoyili. Mamlakatimiz hududi yaxlit iqtisodiy-huquqiy maydon hisoblanadi. Ushbu hududda fuqarolik huquqi subyektlari turli tovarlar, ishlar, xizmatlar, moliyaviy mablag‘larning erkin muomalasidan bahramand bo‘lish huquqiga egadirlar. Xavfsizlikni ta’minalash, insonlarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishni ta’minalash, tabiiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish uchun

zarur bo‘lgan hollarda tovarlar va xizmatlar harakatda bo‘lishini cheklash qonun hujjatlarida joriy etilishi mumkin.

Bundan tashqari, mamlakatimizda barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza qilinishi, mulkiy munosabatlarning mafkuraviy munosabatlardan ajratilganligi, qonunda nimaiki taqiqlanmagan bo‘lsa, ruxsat berilishi, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyili asosida harakat qilishi kabi tamoyillar ham mavjudligi to‘g‘risida adabiyotlarda fikr-mulohazalar uchraydi.

### Fuqarolik huquqi tizimi

Fuqarolik huquqi o‘quv fani, huquq tarmog‘i sifatida o‘zining muayyan tizimiga ega.

Fuqarolik kodeksi ikkita tizimdan: birinchi qism va ikkinchi qismdan iborat.

Fuqarolik huquqining birinchi qismi umumiy qoidalar, ya’ni fuqarolik huquqining tamoyillari, fuqarolik huquqiy munosabat doirasi, ularni vujudga kelish, amalga oshirish, himoya qilish usullari, fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari (subyektlari) huquqiy maqomi, fuqarolik huquqi obyektlari huquqiy rejimi, muddatlar, da’vo muddatları to‘g‘risidagi asosiy qoidalar va kategoriyalarni, shuningdek, fuqarolik huquqiy munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladigan boshqa umumiy qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismi ba’zi hollarda maxsus qism deb ham ataladi.

Fuqarolik kodeksi tizimidan kelib chiqqan holda fuqarolik huquqini quyidagi oltita kichik tarmoqlar – sohalarga ajratish mumkin:



## Fuqarolik huquqi manbalari tushunchasi va turlari

Huquqning manbasi deganda, umumiy ma'noda huquqning ifoda etilish shakli tushuniladi. Huquqiy hodisa sifatida huquqning manbasini uch xil ma'noda tushunish mumkin:

**moddiy ma'noda** – bu jamiyatdagi mulkchilik shakllari, moddiy shart-sharoitlar, jamiyat a'zolarining ehtiyojlari va manfaatlari;

**mafkuraviy ma'noda** – bu turli huquqiy mafkura va ta'limotlar, huquqiy ong;

**maxsus yuridik ma'noda** – bu huquqning shakllari.

Har bir huquq sohasi o'zining manbalariga ega. Konstitutsiya barcha huquq sohalari uchun asosiy manba hisoblanadi.



### Fuqarolik huquqi manbalari deganda,

fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy xarakterdagi normativ-huquqiy hujjatlar yoxud nohuquqiy xarakterdagi ijtimoiy normalar tizimi tushuniladi.

Huquqiy manbalarning keng doirasini qonunlar, qonunosti hujjatlar tashkil etadi. Har qanday huquqiy hujjatlar fuqarolik huquqining manbasi hisoblanavermaydi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi manba sifatida e'tirof etilish uchun u muayyan talablarga javob berishi lozim.

Birinchidan, huquq manbasi huquqni qo'llovchi akt emas, balki normativ-huquqiy hujjat xususiyatiga ega bo'lishi shart.

Ikkinchidan, ushbu normativ-huquqiy hujjat muayyan vakolatli davlat organi tomonidan yoxud vakolatli tuzilma tomonidan qabul qilingan yoki chiqarilgan bo'lishi shart.

Ushbu normativ-huquqiy hujjat muayyan shaklda yuridik texnika qoidalariga asoslanib ishlab chiqilgan bo'lishi shart. Ushbu normativ-huquqiy hujjatning asosiy qismi adliya idoralarida tegishli ravishda ro'yxatga olingan bo'lishi va e'lon qilingan yoxud ijrochilarga yetkazilishi shart.

Fuqarolik kodeksining 3-moddasida fuqarolik qonun hujjatlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.



Fuqarolik huquqi manbalari tizimida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi alohida ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning ahamiyati, birinchi galda, uning bevosita fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi ta'sir kuchida namoyon bo'lsa, boshqa jihatdan olganda asosiy qonunimiz boshqa fuqarolik qonunlari va qonun hujjatlari ishlab chiqilishi hamda mohiyatini belgilashda o'ziga xos qo'llanma, o'ziga xos doira, metodologik negiz vazifasini o'taydi.



O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. Fuqarolik kodeksining 1-qismi 1995-yil 21-dekabrda, 2-qismi esa 1996-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan va har ikkala qismi ham 1997-yil 1-martdan boshlab amalga kiritilgan. FK 6 bo'lim, 71 bob, 1199 moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining joriy qonunlari ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi manba hisoblanadi. Hamma qonunlar emas, balki fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlargina fuqarolik huquqining manbasi sifatida e'tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solsa, fuqarolik huquqining manbasi hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi manbalari tizimida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar, ya’ni farmonlar, qarorlar va farmoyishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti turli hokimiyat tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtirish vakolatiga ega. Shu munosabat bilan ba’zi holatlarda Prezident farmonlari va qarorlari kelgusi qonunlar uchun, qonunosti hujjatlar uchun o‘ziga xos konseptual negiz vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasi ijro hokimiyatining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari fuqarolik huquqining manbasi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar amalga kiritilishining asosiy sharti ushbu hujjatlar qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etilishi hisoblanadi. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan normativ-huquqiy hujjatlari tegishli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin emas va huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi.

Mahalliy urf-odat va an’analar ham ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyatga egadir. Masalan, chorva mollari sotilganda arqonini qaytarib berish, bitim tuzilish faktini belgilash bo‘yicha “bor-baraka qilinishi” kabilar shular jumlasidandir. Shuni unutmaslik lozimki, fuqarolik qonun hujjatlarida tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, bu munosabatlarni tartibga solishda mahalliy odat va an’analar qo‘llaniladi. Shuningdek, tegishli munosabat ishtirokchilari uchun majburiy bo‘lgan qonun hujjatlari normalariga yoki shartnomaga zid bo‘lgan ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an’analar qo‘llanilmaydi.

## **2-§. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar tushunchasi va uning ishtirokchilari**

Ijtimoiy munosabatlar tizimida fuqarolik-huquqiy munosabatlar alohida turkumni tashkil etadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar deb, ushbu munosabat ishtirokchilari o‘rtasida bo‘ladigan va asosan, fuqarolik-huquqiy normalar, shuningdek, boshqa ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlarga aytildi. Fuqarolik-

huquqiy munosabatlar uning ishtirokchilari o‘rtasida vujudga keladi. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilariga fuqarolik-huquqiy munosabat sub’ektlari ham deyiladi.



**Fuqarolik-huquqiy munosabat deb, fuqarolik huquqining turli sub’ektlari o‘rtasida vujudga keladigan va fuqarolik huquqiy me’yorlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatga aytildi.**

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar huquq ta’siri ostidagi normal munosabatlar hisoblanadi. Ammo muayyan hollarda huquqiy munosabat mazmunida yotuvchi majburiyatlar ixtiyoriy ravishda amalga oshirilmaganda yoki bir subyekt tomonidan boshqa subyektga zarar yetkazish hollarida davlat tomonidan belgilangan majburiy huquqiy choralar qo‘llanilishi mumkin.

Har qanday boshqa ijtimoiy munosabatlar singari fuqarolik huquqiy munosabatlar ham 3 ta tarkibiy qismdan iborat. Bular:

**Huquqiy munosabat sub’ekti**



**Huquqiy munosabat ob’ekti**

**Huquqiy munosabat mazmuni**

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti deganda, shu munosabatlarda ishtirok etuvchi tomonlar tushuniladi. Fuqarolik huquqiy munosabat subyektlari (ishtirokchilari) bo‘lib jismoniy shaxslar (fuqarolar), yuridik shaxslar va davlat hisoblanadi.

### **Fuqarolik-huquqiy munosabatlar sub’ekti**

jismoniy shaxslar (fuqarolar)



yuridik shaxslar



davlat




Mamlakatimizda fuqarolarga va boshqa subyektlarga tegishli subyektiv huquqlar davlat tomonidan kafolatlangan huquqlardir. Davlat bu huquqlarni amalga oshirishni ta'minlash uchun nafaqat yuridik, balki ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni ham yaratib beradi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazmunini subyektlarning huquq va majburiyatlari tashkil etadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekti fuqarolik munosabatda ishtirok etuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlari qaratilgan ijtimoiy munosabat negizida yotuvchi moddiy va nomoddiy ne'matlar hisoblanadi. Demak, ashyolar, mol-mulklar, pullar, qimmatli qog'ozlar – moddiy ne'matlar, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat, turli shaxsiy huquqlar – nomoddiy ne'matlar jumlasiga kiradi.

**Fuqarolik-huquqiy munosabatlar mazmunan bir necha turga bo'linadi:**



**1) Mulkiy xarakterdagi va mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar.** Mulkiy xarakterdagi munosabatlar deganda, muayyan moddiy-iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, masalan, mol-mulk bo'yicha belgilanadigan, oldi-sotdi, ijaraga qo'yish va boshqacha shaklda bir subyektdan boshqasiga o'tkazish, umuman, mulkiy muomala bilan bog'liq huquqiy munosabatlar anglashiladi.

Mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar shaxs (fuqarolar va yuridik shaxslar)ning o'zi bilan bevosita uzviy bog'liq bo'lgan, o'z sohibidan, egasidan begonalashtirilishi va birovga o'tkazilishi mumkin bo'lmagan shaxsiy huquqlar, chunonchi, shaxsning o'z asariga nisbatan mualliflik nomiga bo'lgan huquq, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan huquqlardan iborat;

## **2) Mutlaq (absolut) va nisbiy huquqiy munosabatlar.**

Mutlaq huquqiy munosabatlarda subyektiv huquq egalari o‘z huquqlarining buzilmasligini, ularga rioya qilinishini har kimdan va hammadan talab qila oladilar. Mutlaq huquqlar nomuayyan doiradagi shaxslar tomonidan buzilishi mumkin bo‘lgani sababli har kimdan qo‘riqlanadi. Bunday huquqlarga mulk huquqi, mualliflik huquqlari, shaxsiy huquqlar va shu kabilar kiradi.

Nisbiy huquqiy munosabatlarda esa faqat bir subyekt (yoki subyektlar)gina huquq yoki majburiyat oladi. Nisbiy huquqlar zimmasida majburiyat yuklangan ma’lum shaxs (yoki shaxslar)ga nisbatangina kuchda bo‘ladi. Sharhnomalarga asoslangan barcha fuqarolik huquqlari nisbiy huquqlar hisoblanadi. Nisbiy huquqlarga asoslangan talablarga rioya qilish, majburiyatlarning bajarilishi, qarzga olingan pulning to‘lanishi bo‘yicha o‘z zimmasiga sharhnomada asosida majburiyat olgan subyektlardangina talab qilish mumkin bo‘ladi;

**3) Mulkiy huquqiy munosabatlar.** Mulkiy huquqiy munosa-batlar moddiy xarakterga ega hamda ashylarni, mol-mulklarni egallah, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishga, shuningdek, ular bilan bog‘liq mulkiy huquqlarni amalga oshirishga qaratiladi. Mulkiy huquqiy munosabatlarda ushbu huquq sohibi bo‘lgan subyektlar boshqalarni qo‘llab-quvvatlashi va ruxsat berishlariga yoki boshqacha ijobjiy harakatlariga muhtoj bo‘lmay o‘z huquqlarini o‘zlari bevosita amalga oshirish va ro‘yobga chiqarish imkoniyatlariga egadirlar. Demak, bunday huquqiy munosabatlar mutlaq (absolut) huquqiy munosabatlardir;

**4) Korporativ munosabatlar.** Korporativ huquqiy munosabatlar o‘z xarakteriga ko‘ra: tashkiliy, mulkiy va majburiyat huquqiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Korporativ munosabatlar deganda, tijorat yuridik shaxslari, ishtirokchilari, muassislari, mulkdorlarining tijorat yuridik shaxsni tashkil etish, ta’sis hujjatlarini ishlab chiqish, mol-mulkini shakllantirish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, faoliyatini yo‘lga qo‘yish, amalga oshirish, tugatish, qayta tashkil etishda o‘zaro hamkorligini amalga oshirish bo‘yicha tarkib topadigan munosabatlar majmui tushuniladi.

Korporativ huquqiy munosabatlar, odatda, ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan tijorat yuridik shaxsi tashkil etilganda vujudga keladi. Tijorat yuridik shaxsi ishtirokchilarini turli yig‘ilishlar o‘tkazish, bir-birlari bilan individual va guruh uchrashuvlarini tashkil etish bo‘yicha sa’y-harakatlari ham tashkiliy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

**Fuqarolik huquqining subyekti** bo‘lmish fuqarolar (jismoniy shaxslar) haqida to‘xtalib o‘tamiz.

**Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari hamda chet davlat fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi.**

## Fuqarolar (jismoniy shaxslar)

***Huquq layoqati***

***Muomala layoqati***

***Bedarak yo'qolgan  
deb topish***

***Vafot etgan deb  
e'lon qilish***

***Vasiylik***

***Homiylilik***

Fuqarolik huquq layoqati barcha fuqarolarning huquq va burchlarga ega bo'lishini teng ravishda e'tirof etadi. U fuqaroning tug'ilishi bilan vujudga kelib, vafoti bilan tugaydi.

Fuqarolarning huquq layoqati mazmuni Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan. Ayni paytda fuqarolarning huquq layoqati mazmunining asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaning 18-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Binobarin, fuqarolik huquqiy munosabatda ham fuqarolar huquq layoqatida teng deb e'tirof qilinadilar, ya'ni barcha fuqarolarga bir xildagi fuqarolik huquq va majburiyatlar belgilanadi.

## Fuqaroning huquq layoqati



mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari;  
mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat  
qilib qoldirishlari;

yollasma mehnatidan foydalanishlari;

tadbirkorlik va qonunda taqiqlab qo'yilmanagan  
boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari;

yuridik shaxslar tashkil etishlari;

bitimlar tuzishlari va  
majburiyatlarda ishtirok etishlari;

mashg'ulot turini va  
yashash joyini tanlashlari;


fan, adabiyot va san'at asardarining, ixtironing,  
qonun bilan qo'riganligidan boshqa intellektual  
faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega  
bo'lishlari mumkin.

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas. Fuqarolarning muomala layoqatini cheklashning qonunda belgilab qo'yilgan shartlari va tartibiga rioya qilmaslik davlat organining tegishli cheklashni belgilaydigan hujjatining haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi. Fuqaroning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to'la yoki qisman voz kechishi va huquq layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emasdir, bunday bitimlarga qonun tomonidan yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno (FK 23-m.).

Fuqaroning muomala layoqati FKning 22-moddasiga muvofiq, fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatiga aytildi.

Muomala layoqati shaxs voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi. Ba'zi hollarda shaxs o'n sakkiz yoshga to'lmashdan ham muomala layoqatiga ega bo'lishi mumkin. Jumladan, voyaga yetgunga qadar fuqaro qonuniy nikohdan o'tgan taqdirda, nikoh tuzilgan paytdan u to'la muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, o‘n olti yoshga to‘lgan shaxs mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan bo‘lsa yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, u to‘la muomala layoqatiga ega deb topiladi. Muomala layoqatining huquq layoqatidan farqi shuki, barcha fuqarolar ham muomala layoqatiga ega bo‘lavermaydi. Muomala layoqatiga ega bo‘lishning sharti shundan iboratki, muomala layoqatiga ega bo‘lgan fuqarolar aqli rasolik bilan o‘z harakatlarining oqibatlarini tushunib harakat qiladi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda fuqaroning muomala layoqati cheklanishi yoki muomalaga layoqatsiz deb topilishi holatlari mavjud.



**Muomalaga layoqatsiz deganda**, FKning 33-moddasiga muvofiq, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

Bunday fuqaroning nomidan bitimlarni vasiy amalga oshiradi. Muomalaga layoqatsiz deyilishiga sabab bo‘lgan asoslar bekor bo‘lsa, sud tomonidan u muomalaga layoqatli deb topiladi.

**Fuqaroning muomala layoqatini cheklash deganda**, fuqaro spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik moddalarini iste’mol qilish natijasida o‘z oilasini moddiy og‘ir ahvolga solib qo‘ygan taqdirda sud tomonidan muomala layoqati cheklab qo‘yiladi. Bunday fuqaroga homiylik tayinlanadi.

Muomala layoqatini cheklashga asos bo‘lgan sabablar bekor bo‘lganida sud bunday fuqaroning muomala layoqatini cheklashni bekor qiladi.

Bunda manfaatdor shaxslar sudga muomala layoqatini cheklash to‘g‘risida ariza bilan murojaat etishlari mumkin. Manfaatdor shaxslar muomala layoqati cheklanishi so‘ralayotgan shaxsning eri (xotini), ota-onasi, farzandlari, farzandlikka olganlar va boshqa yaqin qarindoshlari bo‘lishi mumkin. Qonunda belgilangan hollarda qarindoshi bo‘lmagan shaxslar ham bo‘lishi mumkin.



## FUQARONI

**Bedarak yo'qolgan  
dep topish**

**Vafot etgan  
dep e'lom qilish**

Fuqaro ayrim sabablarga ko'ra, doimiy yashash joyidan uzoq muddatga ketib qolganda, uning haqiqiy yashash joyini aniqlash imkoniyati bo'lmasa, bunday hollarda u bedarak yo'qolgan deb topilishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 33-moddasi birinchi qismida bedarak yo'qolgan deb topish to'g'risida umumiy qoidalar beriladi.



Agar fuqaroning qaerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish uning fuqarolik huquqlarini bekor qilmaydi. Aksincha, bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaroning huquqlarini himoya qilish uchun zarur choralar amalga oshirilishi talab qilinadi.

Bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy sur'atda boshqarib turish zarur bo'lsa, bu mol-mulk sudning qaroriga muvofiq, vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadigan va ushbu organ bilan tuziladigan ishonchli boshqaruvi to'g'risidagi shartnomasi (FK 49-bob) asosida ish olib boradigan shaxsga topshiriladi. Bu mol-mulkdan bedarak yo'qolgan shaxsning qonunga muvofiq boqishi kerak bo'lgan fuqarolarga ta'minot beriladi, uning soliqlar va boshqa majburiyatlar bo'yicha qarzlar to'lanadi (FK 34-m.).

Fuqaroni vafot etgan deb e'lom qilish to'g'risidagi asosiy qoida FKning 36-moddasida berilgan.



Agar fuqaroning qaerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma'lumot bo'lmasa, basharti u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qaerdaligi haqida olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e'lom qilishi mumkin.


Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo‘qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo‘lgan kundan e’tiboran kamida ikki yil o‘tganidan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e’lon qilinishi mumkin.

Fuqaro vafot etgan deb e’lon qilinganda uning huquqiy munosabatlari tugaydi, mulkiga nisbatan meros ochiladi, shaxsiy majburiyatları tamom bo‘ladi va hokazo.

## Vasiylik


## Homiylilik

Muomalaga layoqatsiz fuqaroga uning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun unga vasiylik va homiylik belgilanadi. Vasiy va homiylik voyaga yetmagan shaxsni tarbiyalash uchun ham tayinlanadi.



Vasiylik shundan iboratki, bunda muomalaga layoqatsiz shaxs – o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan fuqarolar, ruhiy kasal va aqli zaiflar nomidan vasiy sifatida harakat qiladi hamda o‘zining harakatlari bilan vasiylikka olingan shaxs uchun huquq va majburiyatlar tug‘diradi.

Homiylidagi homiylar qisman muomala layoqatiga ega bo‘lgan shaxslarga (o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan fuqarolarga) o‘z huquqlarini amalga oshirish, majburiyatlarini bajarishda yordam ko‘rsatadilar, shuningdek, ularni uchinchi shaxslarning ba’zan bo‘lishi mumkin bo‘lgan yomon niyatli harakatlaridan saqlaydilar. Homiylik ba’zi hollarda jismoniy kamchiliklari bo‘lgan, masalan, ko‘zi ojiz (ko‘rlik), mayiblik sababli o‘z huquqlarini o‘zlari amalga oshira olmaydigan va himoya qila olmaydigan to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan ham belgilanadi. Bunday shaxslarga nisbatan homiylikning vazifasi huquqlar olish yoki ularni amalga oshirish bilan bog‘liq turli harakatlarni ular uchun bajarishdan iborat.



### **Yuridik shaxs tushunchasi va belgilari**

Fuqarolik huquqining subyektlari sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashish va shu munosabat bilan muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish

layoqati yuridik shaxslarga ham beriladi.

Yuridik shaxs deb mustaqil balans va smetaga ega bo‘lgan tashkilotlarga aytildi. Masalan, yuridik shaxslarga fermer xo‘jaligi, siyosiy partiyalar, banklar, notariat idoralari, ta’lim muassasalari, FHDYO organlari, pensiya jamg‘armalari, aksiyadorlik jamiyatlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, birja kabi tashkilotlarni



**O‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.**



Yuqorida berilgan ta’rifdan aniqlanishicha, har qanday tashkilot emas, balki muayyan talablarga javob beradigan tashkilotlarga yuridik shaxs bo‘la oladi.



### **Yuridik shaxslar mazkur belgilariiga ega bo‘lishi kerak:**

**Tashkiliy birlik**

**Mustaqil mulkiy javobgarlik**

**Mulkiy mustaqillik**

**Fuqarolik muomalasida o‘z nomidan harakat qilish**

**Tashkiliy birlik** – bu yuridik shaxsning huquq subyekti sifatida tashkil bo‘lganligini, muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishini bildiradi.

**Mulkiy mustaqillik** – fuqarolik huquqining subyekti bo‘lish uchun yuridik shaxs hisoblangan har qanday tashkilotning o‘ziga xos mulki bo‘lishi, har qaysi davlat tashkilotining o‘ziga biriktirilgan mulki bo‘lishini taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak (FK 39-m., 2-b.).

**Mustaqil mulkiy javobgarlik** – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli bo‘lgan (davlat tashkiloti esa o‘ziga biriktirib qo‘ylgan) mulki bilan javob beradi.

**Fuqarolik muomalasida o‘z nomidan harakat qilishi** – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o‘z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashib, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy xarakterda bo‘lmagan huquqlarga ega bo‘la olishi va majburiyatlar vujudga keltira olishi demakdir.


Yuridik shaxs sudda mustaqil ravishda da’vogar va javobgar bo‘la oladi. Yuridik shaxslar mulkdor tomonidan yoki vakolatli organning farmoyishi bilan, shu bilan birga, qonun hujjatlari asosida tashkil etiladi. Yuridik shaxs ustav yoki ta’sis shartnomasi asosida ish olib boradi.



1) foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilot, ya’ni tijoratchi tashkilot;

2) foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot, ya’ni tijoratchi bo‘lmagan tashkilotdan iborat.





### Davlat – fuqarolik huquqining subyekti sifatida

Davlat jamiyat hayotining barcha sohalarida eng muhim ahamiyatga ega “subyekt” hisoblanadi. Davlatning ushbu maqomi iqtisodiy munosabatlarda yaqqol ajralib turadi. Zero, iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida davlat ishtiroki bevosita xalq manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Davlat ana shu manfaatlarning himoyachisi sifatida ularning to‘g‘ri va maqbul amalga oshirilishini ta’minlab beradi.

FKning 2-moddasiga ko‘ra, davlat ham fuqarolar va yuridik shaxslar kabi fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchisidir.

Davlat – oliy hokimiyat, suverenitet sohibi bo‘lganligi tufayli fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

**Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarga quyidagilar kiradi:**

1. Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida fuqarolik huquqi subyektlari amal qiladigan qonunlarni o‘zi belgilaydi.

Fuqarolik huquqining boshqa subyektlari barcha subyektlar amal qiluvchi qonun qabul qilish vakolatiga ega emas. Qonun qabul qilish faqatgina davlat va uning organlari tomonidan amalga oshiriladi va ijro etilishi ta’minlanadi;

2. Davlat organlari fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi bo‘ladigan hujjatlar chiqarishi mumkin (FK 8-m. 2-b.).

“Davlat” tushunchasi mavhum hisoblanganligi uchun ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan uning organlari ishtirok etishi zarur. Chunki keyinchalik yuzaga keladigan majburiyatlarga nisbatan javobgarlikni belgilashda bu holat muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 5-bobi “Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi sifatida” deb nomланади. FKning 79-moddasida quyidagi ta’rif keltiriladi:



**Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilar bilan teng asoslarda ishtirok etadi.**

**Fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ular maxsus vakil qilgan boshqa organlar ishtirok etadilar.**

**Davlat o‘zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo‘yicha o‘z mulki bo‘lgan mablag’lari bilan javob beradi.**

FKning 80-moddasida esa davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxs davlatning majburiyatları bo‘yicha javob bermasligi (qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari), davlat o‘zi tuzgan yuridik shaxsning majburiyatları bo‘yicha ham javobgar bo‘lmasligi nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu moddaning qoidalari davlat tuzgan shartnomaga asosida yuridik shaxsning majburiyatları bo‘yicha o‘z zimmasiga kafillilik olgan (kafolat bergen) yoki mazkur yuridik shaxs davlatning majburiyatları bo‘yicha o‘z zimmasiga kafillilik olgan (kafolat bergen) hollarga taalluqli emasligi mustahkamlab qo‘yilgan.

### 3-§. Fuqarolik huquqining obyektlari va turlari

Fuqarolik huquqining obyekti haqida to‘xtalar ekanmiz, avvalo, uning tushunchasini yoritib o‘tishimiz lozim.



**Fuqarolik huquqi ob'ektlari tushunchasi – bu huquq sub'ektlarining harakatlari nimaga qaratilgan bo'lsa, huquq va majburiyatlar nima ustida belgilansa, shu ob'ektdir.**

Xavfsizlikni ta'minlash, insonlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, tabiatni va madaniy boyliklarni muhofaza qilish yuzasidan ba'zan fuqarolik huquqi obyektlarining muomalada bo'lishi cheklanishi mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqi obyektlari doirasi kengaydi. Masalan, obyekt sifatida xususiy mulk, qimmatli qog'ozlar keng muomalaga kirib keldi, intellektual mulknинг yangidan-yangi obyektlari (integral mikrosxemalar topologiyalari, nou-xaular) vujudga keldi, ishlar va xizmatlar doirasi kengaydi, tijorat siri mustahkamlandi.

Fuqarolik huquqlarining obyektlari FKning 81-moddasida belgilab berilgan.

Fuqarolik huquqi ob'ektlarini ikki turga, ya'ni moddiy (ashyoviy) va nomoddiy (noashyoviy) ne'matlarga bo'lish mumkin.




Ashyo o'zining jismiy va boshqa xususiyatlarga ko'ra tasniflanadi. Masalan, o'z xususiyatlari bo'yicha tevarak-atrofdagilar uchun xavf tug'diradigan ashyolar (portlovchi moddalar, qattiq ta'sir qiluvchi zahar kabilalar). Bunday ashyolarni erkin olish va sotishga yo'l qo'yilmaydi. Muomalada bo'lishga yo'l qo'yilmaydigan fuqarolik huquqlari obyektlarining turlari (muomaladan chiqarilgan obyektlar) qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Ba'zi ashyolar iqtisodiyot uchun ahamiyati, davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan yoxud boshqa asoslar bo'yicha faqat alohida ruxsat bo'yicha olinishi, sotilishi

mumkin (qurok va o‘q-dorilar, portlovchi va radioaktiv moddalar, qattiq ta’sir qiladigan zaharlar, muhr, shtamp kabilar).

Ashyolarning tasnifi FKning 86-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan.



**Ko‘char va ko‘chmas ashyolar.** Ko‘char ashyo bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish natijasida xususiyatini o‘zgarishsiz saqlaydigan va o‘z maqsadiga ko‘ra ishlatish mumkin bo‘lgan ashyodir.



Ko‘chmas ashyolar, odatda, doimiy ravishda bir joyning o‘zida mavjud bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga, xususiy belgilarga ega. Shu sababli ham u jismiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar toifasiga emas, balki xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar toifasiga kiritiladi. Bunday ashyoning o‘ziga xos xususiyati yer bilan uzviy bog‘liqligidir (tabiiy ravishda yer bilan uzviy bog‘liq ashyolar, masalan, buloqlar, konlar, daryolar va boshq.; inson mehnati bilan vujudga kelgan yer bilan uzviy bog‘liq ashyolar, masalan, bino va inshootlar, quduqlar, bog‘lar, korxona va boshq.).



Ko‘chmas ashyolar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish imkonining yo‘qligi, unga nisbatan huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kabi belgilarga ega.

**Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar.** Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyo alohida, faqat o‘ziga xos belgisi va o‘ziga xos yolg‘iz sifati bo‘lgan ashyyodir. Unga o‘zining belgilari bilan boshqa o‘xhash ashyolardan ajralib turadigan narsalar, masalan, ma’lum ko‘chadagi, ma’lum sonli uy-joy, o‘zi bir dona bo‘lgan ashyo (jahon birinchiligida champion bo‘lgan ot, ko‘hinur olmosi kabi)lar kiradi. Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar boshqa ashyolardan muayyan usulda belgi qo‘yish yoki muhr bosish, raqam qo‘yish bilan farqlanadi. FKning 87-moddasi 2-qismiga ko‘ra, xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar boshqasi bilan almashtirib bo‘lmaydigan ashyolardir.



**Turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar** son, og‘irlik va o‘lchov bilan ko‘rsatiladigan narsalar hisoblanadi. Masalan, 100 dona shifer, 100 metr chit, 100 tonna paxta va hokazo. Turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar boshqasi bilan almashtirsa bo‘ladigan ashyolardir. Shuning uchun ham bunday ashyolarga nisbatan “persona non grata”ning (ya’ni, tur nobud bo‘lmaydi) qoidasi qo‘llaniladi. Fuqarolik huquqida ashyolarning xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarga bo‘linishi katta ahamiyatga ega.

**Bo‘linadigan va bo‘linmaydigan ashyolar.** Bo‘lish natijasida har qaysi qismi butunning xossalari o‘zida saqlab qoladigan, shu bilan birga, o‘zining xo‘jalik (maqsadli) ahamiyatini yo‘qotmaydigan ashyo bo‘linadigan ashyo hisoblanadi. Masalan, bir qop shakar, bir qop kartoshka, bir bidon paxta yog‘i kabi.



Bo‘lish natijasida qismlari dastlabki ashyo (butun)ning xossalari yo‘qotadigan, uning xo‘jalik (maqsadli) ahamiyatini o‘zgartiradigan ashyo bo‘linmaydigan ashyo hisoblanadi (FK 88-m.). Ularga shkaf, stol, televizor kabilar kiradi.



**Iste’mol qilinadigan va iste’mol qilinmaydigan ashyolar** (FK 89-m.). Iste’mol qilinadigan ashyolar bir marta foydalanish natijasida butunlay yo‘qqa chiqadigan yoki jiddiy ravishda o‘zgaradigan narsa (masalan, oziq-ovqat, xom ashyo kabi)lardir.



Iste’mol qilinmaydigan ashyolar birmuncha uzoq vaqt davomida o‘zining sifatini saqlaydigan narsalardir. Bunday ashyolar, odatda, qayta-qayta foydalanishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Qayta-qayta foydalanish davomida iste’mol qilinmaydigan ashyolarning yemirilishi ham (binolar, uskunalar, transport vositalari) asta-sekin kechadi.

**Asosiy va mansub ashyolar.** Mansub ashyo asosiy ashyoga xizmat qilishga tayinlangan va umumiyo‘g‘i xo‘jalik maqsadi jihatidan u bilan bog‘liq bo‘lgan ashyodir. Masalan, asosiy ashyo qulf bo‘lsa, unga mansub ashyo kalitdir.

Mansub ashyo, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, asosiy ashyoning taqdiriga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, asosiy ashyo birovning egaligiga yoki vaqtincha foydalanishiga o‘tsa, mansub ashyo ham u bilan birga o‘tadi. Ammo qonun yoki shartnomada boshqacha hollar ham belgilanishi mumkin, ya’ni asosiy ashyo birovga o‘tkazilganda, mansub ashyoning qoldirilishi to‘g‘risida alohida kelishuv ham bo‘lishi mumkin.

Mansub ashyodan uning tarkibiy qismini ajratish kerak. Ashyodan uni zararlantirmay va qiymatini jiddiy ravishda tushirmay ajratilishi mumkin bo‘lmagan har narsa ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, velosipedning nasosi mansub ashyo bo‘lsa, avtomashinaning radiatori ashyoning tarkibiy qismi sanaladi.





**Murakkab ashylar.** Agar turli xil ashylar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo‘yicha foydalanish imkonini beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo, ya’ni murakkab ashyo hisoblanadi. Murakkab ashyo xususida tuzilgan bitim, agar shartnomada boshqacha tartib belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, uning tarkibiy qismlariga taalluqli bo‘ladi.

**Hosil va daromad beradigan ashylar** tufayli hosil va daromadlardan foydalanish, ularni tasarruf etish to‘g‘risidagi ishni hal etish masalasi qo‘yilishi mumkin. Ashyoning hosil va daromadlari to‘g‘risida Fuqarolik kodeksining ba’zi moddalarida belgilab o‘tilgan. Jumladan, FKning 230-moddasida mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishda daromad va xarajatlarning to‘lanishi nazarda tutilgan.

Ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, ashyo egasiga tegishlidir.



**Jonli va jonsiz ashylar.** Bunday ashylar o‘zida tiriklik alomatlari mavjudligi nuqtai nazaridan farqlanadi. Fuqarolik muomalasida jonli zotlar – kelib chiqishi hayvonlarga mansub bo‘lgan organizmlar – sute emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchi hayvonlar, quruqlikda ham, suvda ham yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populatsiyalari ashyo sifatida namoyon bo‘ladi.

Qonun hujjalariada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, mol-mulk to‘g‘risidagi umumiyy qoidalar hayvonlarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Masalan, FKning 169-moddasida nazarda tutilgan mulk huquqi obyektlari tarkibiga hayvonlar ham kiritilgan.



Huquqlarni amalga oshirish chog‘ida hayvonlar bilan shafqatsiz munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ularga nisbatan mulkiy huquqlar bilan bog‘liq barcha qoidalar qo‘llaniladi. Hayvonlar bilan bog‘liq ko‘plab shartnomalar tuziladi. Odatda, eng ko‘p tuziladigan shartnomalar bu oldi-sotdi shartnomasi hisoblanadi. Xonakilashtirilgan hayvonlardan tashqari barcha hayvonot dunyosi ommaviy mulk sanaladi va u davlat muhofazasida bo‘ladi.

Umumiyy qoidaga ko‘ra, fuqarolik huquqining obyektlarini ikki turga: moddiy va nomoddiy ne’matlarga bo‘lish mumkin.



Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning moddiy obyekti bo‘lib ko‘ringan mulk

tushunchasi to‘g‘risida shuni aytish kerakki, ba’zi hollarda ashyo, narsalar mulk deb atalsa ham, mol-mulk atamasining ma’nosi birmuncha kengdir. Mol-mulk muayyan shaxsga (fuqaro yoki yuridik shaxsga) egalik huquqi bilan tegishli ayrim ashylolar yoki ashylarning yig‘indisidir. Demak, mol-mulk bu munosabatdir (bu haqda mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar mavzusida yanada batafsil to‘xtalamiz).

FKning 83-moddasida mol-mulk turlari ko‘rsatilgan. Unga asosan, mol-mulk ko‘chmas va ko‘char mulkka bo‘linadi.

Qonunchilikdagi o‘zgarishlarga ko‘ra, ko‘chmas mulklarning doirasi kengaytirilib, ular jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog‘langan boshqa mol-mulk, ya’ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan obyektlar kiritildi.

Ko‘chmas mol-mulk bilan bog‘liq huquqlarni olish yoki begonalashtirish FKning 84-moddasida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. FKning 83-moddasi 3-qismida qonunda boshqa mol-mulk ham ko‘chmas mol-mulk qatoriga kiritilishi mumkinligi belgilangan. Ta’kidlanganidek, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq asosiy xususiyat shundaki, u yer bilan bog‘liq bo‘lib, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish natijasida o‘z xususiyatini yo‘qotadi.

Moddiy ko‘rinishdagi ne’matlar (ashylolar) bilan bir qatorda nomoddiy ne’matlar ham fuqarolik huquqining obyekti hisoblanadi. Fuqaroga tug‘ilganidan boshlab yoki qonun bo‘yicha tegishli bo‘lgan shaxsning hayoti va sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘sni, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi va boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlari nomoddiy ne’matlar hisoblanadi. Ular shaxsdan begonalashtirilishi yoki boshqa birovga o‘tkazilishi (berilishi) mumkin emas. Ayni vaqtida qonunlarda nazarda tutilgan hollar va tartibda marhumga tegishli bo‘lgan shaxsiy-nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar boshqa shaxslar, shu jumladan, huquq egasining merosxo‘rlari tomonidan amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkin.

Nomoddiy ne’matlar – qonun tomonidan tan olinadigan, muhofaza qilinadigan moddiy ko‘rinishga ega bo‘lмаган hamda egasi (sohibi)ning shaxsidan ajratish mumkin bo‘lмаган ne’matlardir.

#### **Nomoddiy ne’matlarning turlari quyidagicha:**

**intellektual faoliyat natijalari**

**xizmat va tijorat siri**

**shaxsiy nomulkiy huquqlar**

Nomoddiy ne'matlarning bir qismi, ya'ni intellektual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat siri iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, tovar shakliga kiradi va mulkiy muomalada mutlaq huquq obyektlari sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar esa fuqarolik muomalasida o'ziga xos tarzda, tovar shakliga kirmagan va iqtisodiy mazmunga ega bo'limgan holda namoyon bo'ladi.

Nomoddiy ne'matlarning fuqarolik huquqi obyekti sifatidagi xususiyati shundaki, bunda, birinchidan, buzilgan nomoddiy huquq mazmunidan, ikkinchidan, bunday buzilish oqibatlari xarakteridan kelib chiqqan holda fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalaniladi.

Nomoddiy ne'matga nisbatan huquqlarni himoya qilishda ko'p hollarda sud huquqni qayta tiklash yoki huquqbazarliklarni to'xtatishni ta'minlovchi choralar ko'rildi. Nomoddiy ne'matlar orasida shaxsning (yuridik shaxsning ham) sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si alohida o'rinni egallaydi. Ayni vaqtida nomoddiy ne'matlar shaxsiy huquqlar nomi bilan yuritiluvchi o'ziga xos huquqlar majmuuni ham o'z ichiga oladi (masalan, nomga, yashash joyini tanlashga, yozishmalar daxlsizligi, ya'ni sir saqlanishiga bo'lgan huquq kabilar).

#### **4-§. Fuqarolik huquqida bitim tushunchasi, turlari va shakllari**

Bitimlar fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining o'z xohish-istagiga va kelishuviga asosan tuziladigan, mulkiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan harakatlardan iboratdir. FKning 101-moddasida bitim tushunchasiga ta'rif berilgan.



**Bitimlar deb, fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilashga, o'zgartirishga va bekor qilishga qaratilgan harakatlarga aytildi.**

Bitim tuzuvchi shaxslar bitimda o'z erklarini ifodalashdan tashqari muayyan harakatni qilishlari lozim bo'ladi. Bu harakat ma'lum bir ishni bajarishga, bitimda belgilangan mulkni topshirishga yoki ma'lum pulni to'lashga qaratilgan bo'lishi mumkin.



**Bitimlar uchun quyidagi shartlarning bo'lishi muhim hisoblanadi:**

**Bitim tuzuvchi taraf fuqarolik huquqining sub'ekti hisoblanishi**

**Bitim ishtirokchilarida bu bitimni tuzish erki bo'lishi va bu erk ma'lum huquqiy oqibatlar tug'dirishga qaratilgan bo'lishi**

**Shaxs bitim tuzishda o'z erki, irodasini muayyan shaklda izhor qilgan bo'lishi**

**Bitim tuzuvchilarning erklari ifoda etilishiga qarab bitimlar bir tomonlama, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bo'lishi mumkin.**

Bir taraflama bitim tuzishda bir tomonning xohishi zarur va yetarli bo'lsa, qonun hujjatlari va taraflarning kelishuvi bilan bu bitimni tuzish mumkin. Bunda huquq va majburiyat faqat bir tomonning irodasi bo'yichagina vujudga keladi, o'zgaradi yoki bekor bo'ladi. Bir tomonlama bitimlarga vasiyat, merosdan voz kechish, ishonch qog'ozni berish kabi harakatlarni misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Bir tomonlama bitim uni tuzgan shaxs uchun majburiyatlar keltirib chiqaradi. Ikkinci tarafda huquq va erkinlik mavjud bo'lib, uning zimmasiga majburiyat yuklatilmaydi.

Ikki tomonlama bitimlar har ikki tomonning xohish-irodasiga muvofiq tuziladi. Bunday bitimlar – shartnomalardir. Ikki tomonlama bitimga oldi-sotdi, qarz, kredit, multk ijarasi, sug'urta va boshqa shartnomalar kiradi.

Ko'p tomonlama bitimlarda uch va undan ortiq shaxslarning erklari ifodalanadi. Ko'p tomonlama bitimga lizing, mahsulot yetkazib berish shartnomalari misol bo'la oladi.

Bitim shakli, birinchidan, bitimni amalga oshiruvchi tomonlar manfaatlariga xizmat qiladi. U bitim tuzuvchi shaxslarning haqiqiy erk-irodasini aniqlashga yordam beradi. Ushbu erk uning izhor etilishini ta'minlashga va bitim tuzishga to'sqinlik qiluvchi sun'iy, rasmiy to'siqlar yaratilmasligining oldini oladi. Xususan, bitimning shakli uning qonuniyligi ustidan nazorat qilish va ommaviy manfaatlarni himoya qilish uchun ishlataladi. Shundan kelib chiqqan holda qonun taraflarga bitim shaklini tanlash imkoniyatini beradi.




Og'zaki bitimlar, odatda, u tuzilayotgan paytdayoq bajarilishi bilan boshqa bitimlardan ajralib turadi. Bunda taraflar og'zaki so'zlashuvlar orqali harakatni amalga oshiradi. Bunday bitimga misol qilib, do'kondan tovar xarid qilishni ko'rsatish mumkin, bunda olish va to'lov bir paytda amalga oshiriladi.

Yozma shakldagi bitim deganda, bitim mazmunini aks ettiruvchi yagona hujjatning mavjud bo'lishi nazarda tutiladi. Bunday hujjat bitimni tuzuvchi har bitta shaxs tomonidan imzolanishi lozim. Bitimni imzolash vakolati bitim ishtirokchisi tomonidan beriladi yoki qonun bilan belgilanadi. Yuridik shaxslarning bitimlari ularning rahbarlari yoki vakillari tomonidan imzolanadi. Yozma shakldagi bitimlar oddiy yozma shaklga va notarial tasdiqlanishni talab etiladigan bitimlarga bo'linadi.



## Oddiy yozma shaklda tuziladigan bitimlar quyidagilar:



Notarial tasdiqlanishni talab qiladigan bitimlar notarius tomonidan yoki bunday harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilgan ishonch qog'oz, vasiyat kabi bitimlarni, shuningdek, avtomashina oldi-sotdisi, uy-joy oldi-sotdisi, hadya, ijara, garov kabi shartnomalarni misol sifatida keltirish mumkin.

Taraflardan birining talabi bilan ham bitimlar notarial tasdiqlanishi mumkin. Masalan, qarz shartnomasiga ko'ra, qarz beruvchi shartnomaning notarial tasdiqlanishini talab qilishi mumkin.

Bitimlarning oddiy yozma va notarial tasdiqlangan shaklda tuzilishining muhim asoslari mavjud. **Jumladan:**

**birinchidan**, bitimning yozma shakli bitim tuzilganligi faktini, guvohlarning ko'rsatmalariga qaraganda asosliroq isbotlab beradi;

**ikkinchidan**, yozma shakl og'zaki shakldan ko'ra bitimning haqiqiy mazmunini aniqlashga yaxshiroq yordam beradi va zarur hollarda uni tegishli davlat organlari tomonidan tekshirilishini yengillashtiradi;

**uchinchidan**, bitimning yozma shakli taraflar uchun majburiy bo'lishini belgilaydi va taraflarning faoliyatları ustidan nazorat olib borish imkoniyatini beradi;

**to'rtinchidan**, bitimlarning yozma shaklda rasmiylashtirilishi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini muayyan tartibga, o'z erklarini aniq ifoda etishga va bitim bilan nazarda utilgan shartlarni puxta bajarishga o'rgatadi.

Mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar – qonun talablariga muvofiq bo'lmagan (FK 116-m.), O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda tuzilgan

(JK 175-м.), о‘н то‘рт yoshga to‘lماn shaxs tomonidan tuzilgan (FK 117-м.), qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitimlar (FK 124-м.) o‘z-o‘zidan haqiqiy sanalmaydi.

### **Bitimlar haqiqiy sanalishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi lozim:**

**birinchidan**, bitimlarning mazmuni qonunga va qonun asosida chiqarilgan aktlarga, umuminsoniy qoidalarga muvofiq bo‘lishi lozim;

**ikkinchidan**, bitimlarni tuzuvchi shaxslar muomala layoqatiga ega bo‘lishlari kerak;

**uchinchidan**, bitimlar yuridik oqibat tug‘dirish maqsadida tuzilgan bo‘ladi;

**to‘rtinchidan**, notarial guvohlantirishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan bitimlar qonunda talab qilingan shaklda rasmiylashtirilishi kerak.

Yuqorida ko‘rsatilgan talablarga rioya qilinmay tuzilgan bitimlar tuzilgan paytdan e’tiboran o‘z-o‘zidan haqiqiy sanalmaydi. Bunday bitimlar FKning 113–125-moddalarida ifodalangan.



## **Bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari**

Muomalaga layoqatsizlar  
tomonidan tuzilgan bitimlar

Yanglishish ta’sirida tuzilgan

Muomalaga cheklanganlar  
tomonidan tuzilgan bitimlar

Aldash, zorlik, qo‘rgitish  
ta’sirida tuzilgan bitimlar

14 yoshga to‘lmagan voyaga  
yetmaganlar tomonidan tuzilgan bitimlar

Qalbeki va ko‘zbo‘yamachilik  
uchun tuzilgan bitimlar

14–18 yoshga to‘lmagan voyaga  
yetmaganlar tomonidan tuzilgan bitimlar

Bir tarof vokilining ikkinchi taraf  
bilan yomon niyatda kelishishi

Yuridik shaxs huquqligini  
tashqoriga chiqqadigan bitimlar

Nizell va o‘z o‘zidan  
haqiqiy bo‘lmagan bitimlar

O‘z harakati oqibatini tushuna olmaydigan va ularni  
boshqara olmaydigan fuqarolar tomonidan tuzilgan bitimlar

Yuridik shaxs tomonidan uning ustav maqsadlariga zid holda tuzilgan yoki tegishli faoliyat bilan shug‘ullanishga litsenziyasi bo‘lماn yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim manfaatdor shaxsning da’vosiga ko‘ra sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

## Vakillik tushunchasi va turlari

Vakillik asosida ishonch bildiruvchi (vakolat beruvchi) bilan vakil o‘rtasidagi munosabat o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra fuqarolik-huquqiy munosabat sanaladi. Bu munosabatda bir tomondan – vakolat beruvchi va ikkinchi tomondan – vakil ishtirok etadi.

Fuqarolik kodeksining 10-bobi “Vakillik va ishonchnoma” deb nomlanadi. Ushbu bobda vakillik bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalar tartibga solingan.



**Ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. O‘z xarakteriga ko‘ra, faqat shaxsan tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimni, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa bitimlarni vakil orqali tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.**

**Vakil o‘ziga vakolat bergen shaxs nomidan shaxsan o‘ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtda vakili bo‘lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas, tijorat vakilligi bo‘lgan hollar bundan mustasno.**

Muomalaga layoqatli fuqarolargina vakil bo‘lishlari, ya’ni vakillik qilishlari mumkin. Ayrim hollarda istisno sifatida o‘n olti yoshga to‘lib, pasport olgan va emansipatsiya asosida to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lgan fuqaro ham vakil bo‘lishi mumkin.

Yuridik shaxs faqat o‘z ustavida nazarda tutilgan hollarda yoki o‘z faoliyatining xarakteriga muvofiq bo‘lgandagina fuqarolarning vakili yoki boshqa yuridik shaxsnинг vakili sifatida harakat qilishi mumkin.

Vakolatning qanday asoslardan vujudga kelishiga qarab, vakillik ikki turga bo‘linadi.



1) Vakillik va uning vakolati me’yoriy hujjat bilan belgilangan taqdirda bunday vakillik qonuniy vakillik deb ataladi. Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va vasiylar, Fuqarolik kodeksining 131-moddasida belgilanganidek, muomalaga layoqatsiz

shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar.

2) Shartnomali, ya’ni ixtiyoriy vakillik vakil va uning nomidan vakolat beruvchining xohishi bilan belgilanadi. Bunday vakillikda vakil va uning vakolati vakolat beruvchi tomonidan ko’rsatiladi. Shartnoma bo‘yicha vakillikda mehnat shartnomasiga ko‘ra, tashkilot nomidan berilgan vakolatnomaga asosan harakat qiluvchi xizmatchi, masalan, tashkilotlarning yurist maslahatchilari, ta’midot vakillari va boshqalar vakil bo‘la oladi. Topshiriq shartnomasiga binoan topshiriq beruvchi tomonidan topshiriq olgan shaxsga berilgan vakolatga asosan harakat qiluvchi shaxslar ham shartnoma bo‘yicha vakil bo‘la oladi.

Fuqarolik kodeksining 133-moddasiga milliy fuqarolik huquqi uchun yangi bo‘lgan vakillik turi kiritilgan bo‘lib, bu tijorat vakilligidir. Tijorat vakili doimo tadbirkorlar nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlarni surunkali va mustaqil tarzda amalga oshiradigan tadbirkordir. Umuman aytganda, vakillik ijtimoiy hayotning turli sohalarida, ya’ni kundalik hayotda, tadbirkorlik faoliyatida, mehnat jarayonlarida va boshqalarda amalga oshirilishi mumkin.

### **Ishonchnoma – bitimning asosiy shakli sifatida**

Bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxs oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi.

Ishonchnoma o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra, ishonch bildiruvchi tomonidan vakilga berilgan barcha huquqlarni (vakolatlarni) o‘zida mujassamlashtirgan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan hujjatdir.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek, yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (nizomida) ko’rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo‘lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin (FK 134-m. 2-q.).

Ishonchnoma bir shaxs, shuningdek, bir necha shaxslar nomidan bir yoki bir necha shaxslar nomiga ham berilishi mumkin. Ishonchnoma vakilning uchinchi shaxslar bilan huquqiy munosabatlarda bo‘lishi uchun beriladi.



## **ISHONCHNOMA TURLARI**

**Bir martalik  
ishonchnoma**

01.

**Maxsus  
ishonchnoma**

02.

**Bosh  
ishonchnoma**

03.

**Bir martalik ishonchnoma** – bitta muayyan harakatni amalga oshirish uchun beriladi, masalan, uy-joyni sotish yoki ish haqini olish uchun berilishi mumkin.


**Maxsus ishonchnoma** – bunda vakilga ishonch bildiruvchi tomonidan bir qancha turdag'i harakatlarni, asosan, ma'lum vaqt davomida amalga oshirishga vakolat beriladi. Bu turdag'i ishonchnoma bir vaqtda yoki ma'lum muddatlarda har xil hududlarda bir turdag'i mahsulotlarni sotib olish uchun berilishi mumkin.

**Bosh ishonchnoma** – vakilga ishonch bildiruvchining butun huquqlari hajmi yuzasidan bitimlarni va boshqa harakatlarni amalga oshirish uchun vakolat beradi. Bunday ishonchnoma, odatda, yuridik shaxsning vakolatxonalariga beriladi, u tijorat vakiliga, ustidan patronaj shaklida vasiylik o'rnatilgan fuqaroning vakiliga, ishonchli boshqaruvda berilishi mumkin.

Ishonchnoma doimo yozma shaklda tuziladi, qonunda ko'rsatilgan hollarda notarial tasdiqlanishi yoki FKning 136-moddasida ko'rsatilgan tashkilotlar va shaxslar tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Ishonchnomada uning qachon berilganligi ko'rsatilishi lozim, aks holda u haqiqiy sanalmaydi. Ishonchnoma ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi.

Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma FKning 139-moddasiga asosan haqiqiy emas deb topiladi.



## 5-§. Fuqarolik huquqida muddatlar va uning ahamiyati

Fuqarolik huquqini o'z vaqtida himoya qilish va uni amalga oshirish vaqt bilan bevosita bog'liq. Fuqarolik qonunchiligi huquqiy munosabatni vujudga keltirish, o'zgartirish yoki tugatishni, qonun yoki shartnomada ko'zda tutilgan harakatlarni amalga oshirishni, buzilgan huquqni majburiy tartibda amalga oshirishni vaqt bilan bog'laydi. Shuning uchun muddat bu buzilgan fuqarolik huquqini majburiy tartibda himoya qilish va uni amalga oshirish hamda boshqa fuqarolik harakatlarni amalga oshirish uchun qonun yoki shartnomada ko'rsatilgan vaqt oraliq'idir.

Muddatlar aniq kalender sana bilan, albatta, yuz berishi lozim bo'lgan voqeani ko'rsatgan holda yoki muayyan davr bilan belgilanadi.

## Muddat deb, shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir

**Muddatlar kim tomonidan belgilanishiga qarab,  
amalda uchga bo'linadi**

**01**

**Qonuniy  
muddatlar**



**02**

**Shartnomali  
muddatlar**



**03**

**Sud tomonidan  
belgilangan  
muddatlar.**



**Qonuniy muddatlar** – huquq normalarida belgilangan muddatlar. Bu muddatlar huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning o'zaro kelishuvlari bilan umumiyligida bo'yicha o'zgartirilishi mumkin emas. Bunday muddatlarga misol qilib, fuqarolarning to'la yoki qisman muomala layoqatiga ega bo'lish muddatlari (FK 22–27-m.), ishonchnoma muddati (FK 139-m.), umumiyligida da'vo muddati (FK 150-m.) va boshqa muddatlarni ko'rsatish mumkin.

**Shartnomali muddatlar** FKning 357-moddasida ko'rsatilgan bitimlar bilan belgilanadigan shartnomali muddatlarning bir turi hisoblanadi. Bu muddatlar shartnomada tuzuvchi shaxslarning o'zaro kelishuvlari bo'yicha belgilanishi, o'zgartirilishi, qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin. Masalan, ular imoratlar qurilishi, ta'mirlanishi, uy-joylarning ijaraga berilishida tuziladigan shartnomalarda ko'rsatiladi.

**Sud, iqtisodiy sud yoki hakamlik sudi tomonidan belgilangan muddatlar** biron-bir huquq va majburiyatni olish, o'zgartirish yoxud bekor qilish to'g'risida tayinlanadi.

**02**



**Da'vo muddati** bu shaxs buzilgan huquqini da'vo taqdim etish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir. Masalan, qarz olgan fuqaro qarzini qaytarmasa, unga nisbatan uch yil mobaynida da'vo qilinishi mumkin. Agar bu muddat davomida da'vo qilinmasa, da'vo predmeti bo'lgan huquq yo'qotilishi mumkin.

**E'tiroz bildirish muddatlari** – shartnomalar bo'yicha olingan majburiyatlar qarzdor tomonidan butunlay yoki lozim darajada bajarilmaganida tashkilotlarning bir-birlariga talablarini bildirish uchun belgilangan muddatlar.

**Kafolat muddatlari.** Bu muddatlar davomida sotib olingan, buyurtma qilingan ashyoda yoxud bajarilgan ishda kamchiliklar topilgan taqdirda, oluvchi yoki buyurtmachi mazkur nuqsonlarning tekinga bartaraf etilishini yoki ashyoning almashtirilishini yoxud qayta topshirib to'langan pulning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega. Kafolat muddatining o'tkazib yuborilishi oluvchi yoki buyurtmachini yuqorida ko'rsatilgan huquqlardan mahrum qiladi.



### Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar:

Shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklami himoya qilish haqidagi talablarga

Mulkdorming yoki boshqa egalik qiluvchining o'z huquqini har qanday buzishlarni, garchi bu buzishlar egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'mmasa ham, bartaraf etish haqidagi talablariga

Omonatchilarning o'z omonatlarini berish to'grisida bankka qo'yadigan talablariga

Jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga

Fuqaroning hayotiga yoki sog'ligiga yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablariga

Mamlekot mustaqilligi elon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixi, madaniy va ilmiy-badiiy qizymaga ega botgan mol-mulkni hamda boshqa qimmatbaho ob'eildiami qaytarib berish talablariga

Qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga



### Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Fuqarolik huquqining predmetini aytib bering.
2. Fuqarolik huquqining subyektlari kimlar?
3. Jismoniy shaxsga Fuqarolik kodeksida qanday ta'rif berilgan?
4. Ko'char mulk va ko'chmas mulk nima, ularning bir-biridan farqi nimada?
5. Bitimning qanday shakllari bor?
6. Da'vo muddati qancha va qaysi talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi?

II bob.

# MULK HUQUQI



## 1-§. MULK HUQUQI TUSHUNCHASI, TURLARI MAZMUNI

Har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi mulkchilikdan boshlanadi. Insonlar mehnat faoliyati asosida yaratilgan va tabiat in'om etgan tabiiy boyliklar mulk sifatida e'tirof etiladi. Jamiyatda insonlarning mulkdor bo'lishi yoki bo'lmasligi ularning ijtimoiy mavqeini yuzaga keltiradi.



**“**

**Mulk huquqi tushunchasi.** Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlарини ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidан iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir. Demak, mulkdor o'ziga qarashli mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi, tasarruf etadi hamda mulk huquqi buzilganda uni himoya qiladi. Bu esa shaxsning mulk huquqi hisoblanadi.

**”**

**Egalik qilish** – mulkdorlik huquqining mulk egasi qo'lida saqlab turilishi.

**Foydalanish, ishlatish** – mulk bo'lgan boylikni iqtisodiy faoliyatda qo'llab, undan foyda, daromad topish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatish. Masalan, mulkni ijaraga berish orqali daromad topish.

**Tasarruf etish** – mulk bo'lgan boylik taqdirini mustaqil hal etish, ya'ni mulkni sotib yuborish, merosga qoldirish, hadya qilish kabi xatti-harakatlarni amalga oshirish.



Mulk huquqi, o'z navbatida, ob'ektiv va sub'ektiv mulk huquqlariga bo'linadi.

**Obyektiv ma'nodagi mulk huquqi** deganda, tabiat ashyolarini ijtimoiy o'zlashtirishning mavjud zaxiralarini, usullarini belgilash, tartibga solish va uni mustahkamlash uchun xalq manfaatlарини ko'zlab belgilangan tadbirlarni ifodalovchi huquq normalari yig'indisi nazarda tutiladi. Mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar obyektiv huquq normalari hisoblanadi.

**Subyektiv ma'nodagi mulk huquqi** deb, ayrim shaxslar, ya'ni huquq subyektlarining (davlat, shirkat va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning) obyektiv huquq normalari asosida kelib chiqadigan mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlariga aytildi.

Mulkdor huquqlarining, vakolatlarining chegarasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy norma Fuqarolik kodeksining 172-moddasida batafsil talqin qilingan va unda mulk huquqini amalga oshirish shartlari belgilangan.



“Mulk huquqi” tushunchasi mazmunida nafaqat mulkdorning huquqlari, balki mol-mulkni saqlab turish burchi ham tushuniladi. Fuqarolik kodeksining 174-moddasiga asosan, o'ziga qarashli mol-mulkni saqlash mulkdor zimmasida bo'ladi.

Fuqarolik huquqida mulkning iqtisodiy va yuridik ma'nodagi tushunchalari mavjud.




**Iqtisodiy ma'nodagi mulk tushunchasi** – moddiy ne'matlarni o'zlashtirish usullari yig'indisidir. Bunday usullar yakka tartibda, jamoa bo'lib yoxud davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.



**Yuridik ma'nodagi mulk tushunchasi** – moddiy ne'matlarni muayyan sub'ektlarga tegishli ekanligini (biriktirilganligini) mustahkamlovchi va tegishli mulkning huquqiy tartibini belgilovchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat.

Fuqarolik kodeksining 168-moddasida mulk huquqining subyektlari o'z aksini topgan. Unda belgilanishicha,



### MULK HUQUQI SUB'EKTI

- – fuqarolar (jismoniy shaxslar);
- – yuridik shaxslar;
- – davlat

Mol-mulk mulk huquqi asosida bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxslarga qarashli bo'lishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 169-moddasida multk huquqining obyektlari ko'rsatilgan.

## Mulk huquqi ob'ekti

O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer, yer osti boyliklari, ichki suvlari, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi;

imoratlar va inshootlar, turarjoy va kvartiralar;


mahsulotlar, mahsulot va xizmat ko'rsatish belgilari, sanoat namunalari;

ixtiolar, foydali modellar, seleksiya yutuqlari;

asbob-uskunalar, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari;

pullar, qimmatli qog'ozlar;

insonning mehnat qilish qobiliyati va boshqa molmulklar.



Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida multkchilikning xususiy mulk va ommaviy mulk shakllari mavjud.



Xususiy mulk huquqining subyektlari fuqarolar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatatlari, jamoat birlashmalarli, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo'lmagan boshqa yuridik shaxslardir (FK 208-m).

Fuqaro mulki xususiy mulkning o'ziga xos shakli bo'lib, u mulkning boshqa turlariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

**01**

Mulkdor har doim aniq shaxs bo'ladi

**02**

Mulkdor mulkka nisbatan eng yaqin va majburiyati ko'p bo'ladi, shu sababli unga ta'sir qilishda muayyan ustunliklarga ega

**03**

Mulk talon-toroj, o'g'rilik va xo'jasizlikning qurboni bo'lish ehtimolidan uzoq bo'lishi uchun Fuqarolik kodeksining 207-moddasiga asosan kafolatlanadi

Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin (FK 209-m).

### Fuqarolarning mulki bo‘la olmaydigan mol-mulk

- quroq-yarog', shu jumladan, o'qotar quroq (silliq stvolli ov miltiqlari, sport qurollari, shuningdek, mukofotga berilib belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan qurollardan tashqari), armiya o'q-dorilari va harbiy texnikasi;
- portlovchi moddalar va materiallar, asboblar va qurilmalar;
- giyohvandlik vositalari, psixotrop, zaharli, qattiq ta'sir etuvchi va zaharovchi moddalar;
- maxsus taqiqlab qo'yilgan boshqa mol-mulk.

Fuqarolarga qarashli mol-mulk oila mulki shaklida bo‘lishi ham mumkin. Umumiyligida ko‘ra, oila yuridik shaxs emas. Biroq oila zamirida dehqon xo‘jaligi tashkil etilsa, u yuridik shaxs huquqidan foydalanadi.

#### **O‘zbekiston Respublikasida ommaviy mulkning quyidagi turlari mavjud:**

– davlatga mutlaq mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk: yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar;

– davlat hokimiyyati va boshqaruvi, respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga molik madaniy va tarixiy boyliklar, respublika budgetining mablag‘lari, oltin zaxirasi, davlatning valuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o‘quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular budget yoki davlatning o‘zga mablag‘lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo‘lsa, boshqa mol-mulk respublika mulki bo‘lishi mumkin.

Respublika mulki bo‘lgan mol-mulkni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, tasarruf qiladilar.

Respublika mulki respublika budjetiga tushadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlardan, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi (FK 214-m).



Fuqarolik kodeksining 216-moddasida aytilanidek, ikki yoki undan ortiq shaxsnинг egaligida bo‘lgan mol-mulk ularga umumiylik mulk huquqi asosida tegishli bo‘ladi.

## UMUMIY MULK HUQUQINING VUJUDGA KELISH ASOSLARI

*Bir necha larning qonun yoki vasiyat bo‘yi-cha meros olishlarida vujudga keladi*

*Bir necha fuqaroning muayyan umumiylik mulkka ega bo‘lish uchun mablag‘ qo’shib birga mehnat qilishlari, masalan, umumiylik oilaviy mulk*

*Birgalikdagi faoliyat to‘g’risidagi shartnomadan, masalan, bir necha fuqaroning birgalashib uy-joy qurishi yoki bir necha jamoa xo‘jaligining birgalashib elektr stansiyasi qurishida vujudga keladi*

Umumiylik mulk huquqi, aksariyat hollarda, birgalikdagi faoliyat shartnomasi asosida, umumiylik xo‘jalik maqsadiga erishish uchun, jamoa xo‘jaliklari korxona yoki boshqa tashkilotlar qurish va ekspluatatsiya qilish, suv xo‘jaligi inshootlari, maktablar, turar joy binolari va shu kabilarni qurish uchun birgalikda harakat

qilishlari va buning uchun pul, mulk qo'shib, umumiy mehnat qilishlarida vujudga keladi. Fuqarolar ham o'zlarining shaxsiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun pul, mulk qo'shib, birga mehnat qilib (masalan, uy-joy qurish maqsadida birgalikda shartnomaga tuzib), umumiy mulk huquqini oladilar.


Fuqarolik kodeksining 216-moddasida ko'rsatilganidek, umumiy birgalikdagi mulk ikki turga:

mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo'yilgan **ulushli mulk**;

ulushlari aniqlab qo'yilmagan **birgalikdagi mulk** umumiy mulkka bo'linishi mumkin

## UMUMIY

mulk turlari:




O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-moddasiga asosan, er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

## 2-§. Mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo‘lishi

Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo‘lish asoslari deganda, mulk huquqining olinishi yoki yo‘qotilishi bilan bog‘liq yuridik faktlar nazarda tutiladi.

Mulk huquqining olinishi asoslari jamiyatning iqtisodiy tizimida o‘z ifodasini topadi.



Mulk huquqining vujudga kelishini bildiradigan dastlabki asoslar bo‘yicha mulkka nisbatan egalik huquqi ilgari hech kimga tegishli bo‘lmasdan mulkka nisbatan yoki avvalgi mulk egasining huquqi bilan bog‘liq bo‘lmasdan holda vujudga keladi.

### **Mulk huquqining dastlabki asosda vujudga kelishi:**

**birinchidan**, tabiat ne’matlarini o‘zlashtirish, FKning 189-moddasida hamma yig‘ib olishi mumkin bo‘lgan ashayolarni mulkka aylantirish nazarda tutilgan;

**ikkinchidan**, ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish natijasida yangi ashayolarni vujudga keltirish, FKning 183-moddasida mulkni yaratish va ko‘paytirish lozimligi belgilangan;

**uchinchidan**, egasiz mulkning sud qarori bilan davlat ixtiyoriga olinishi. Xususan, FKning 191-moddasiga asosan, egasiz ko‘chmas ashayolar tegishli davlat organining yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining arizasiga muvofiq ko‘chmas mol-mulkni davlat ro‘yxatiga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi;

**to‘rtinchidan**, egasi bo‘lmasdan mulkka yoki egasi bo‘lsa ham xo‘jasizlik bilan saqlanayotgan mulkka, egalari tomonidan belgilangan muddatlarda talab qilib olinmagan mulklarga, shu jumladan, topilgan ashayolar, xazinalar (boshqa usulda yashirilgan narsalar)ga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, FKning 187-moddasiga asosan, mulkdor bo‘lmasdan, lekin ko‘chmas mol-mulkka o‘n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o‘ziniki kabi halol, oshkora va uzlusiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi (egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat).

Mulkka nisbatan egalik huquqini vujudga keltiruvchi hosila usuli muayyan shaxs tomonidan olinayotgan mulk huquqining dastlabki mulk egasining huquqiga bog‘liq bo‘lgan usulidir. Zero, hosila usulida vujudga kelgan mulk huquqi bu mulkka bo‘lgan

huquqning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishini bildiradi. Mulk huquqining hosila usulida vujudga kelishiga misol qilib oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, qarz shartnomalari, shuningdek, qonun va vasiyat bo'yicha meros olish hamda davlat mulkining xususiyashtirilishini ko'rsatsa bo'ladi.

Mulk huquqining bekor bo'lish usullari xilma-xil bo'lib, ularni quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

## MULK HUQUQINI BEKOR BO'LISH ASOSLARI



1) mulkdorning o'z xohish-irodasi bo'yicha mulk huquqining bekor bo'lishi (masalan, mol-mulkni sotish, hadya qilish va sh.k.);

2) mol-mulkni tugatish va hisobdan chiqarish (yo'q qilish) yoki uning nobud bo'lishi natijasida mulk huquqining bekor bo'lishi (FK 198-m);

3) mulkdorning xohish-irodasidan tashqari mol-mulkning olib qo'yilishi natijasida mulk huquqining bekor bo'lishi. Mol-mulkni mulkdordan olib qo'yishga qonunlarda nazarda tutilgan hollar va tartibda, mulkdorning majburiyatları bo'yicha undiruv ana shu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, shuningdek, natsionalizatsiya qilish, rekvizitsiya va musodara qilish tartibida yo'l qo'yiladi.

**Natsionalizatsiya** – fuqarolarga va yuridik shaxslarga qarashli natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini haq to'lash asosida qonun hujjaligiga muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazishdan iborat (FK 202-m.).

**Rekvizitsiya** – tabiiy ofatlar, avariylar, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tusdagi boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning

qiymatini to‘lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo‘yilishi mumkin (FK 203-m.).

**Musodara** – qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o‘zga huquqbazarlik qilganlik uchun haq to‘lamasdan mulkdordan olib qo‘yilishi mumkin (FK 204-m.).



*Davlat tasarrufidan chiqarish* deganda, davlat korxonalari va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalari, aksiyali jamg'armalar, davlatga qarashli bo'limgan boshqa korxona hamda tashkilotlarga aylantirish tushuniladi.



**Xususiylashtirish** – fuqarolar va davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlari yoki davlat aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Davlat organlari xususiylashtirish subyekti bo‘la olmaydi. Xususiylashtirish obyektlarini davlat budgeti tomonidan sotib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

### 3-§. Mulk huquqini himoya qilishning fuqaroviylar huquqiy usullari

Mulk huquqini himoya qilishda fuqarolik huquqi normalari muhim ahamiyatga ega. Mulk huquqini himoya qilish tushunchasiga fuqarolik huquqida quyidagicha ta’rif berilgan:



#### MULK HUQUQINI HIMOYA QILISH

bu buzilgan mulk huquqini tiklash maqsadida qonunga muvofiq qilinadigan chora-tadbirlar yig'indisidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-sentabrdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida“gi qonuni ning 8-moddasiga ko‘ra, xususiy mulk huquqini himoya qilish usullari belgilab berilgan.



- xususiy mulk huquqini tan olish;
- xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatni tiklash va xususiy mulk huquqini buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish;
- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;



- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;
- xususiy mulk huquqini mulkdorning o‘zi himoya qilishi;
- burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;
- zararning o‘rnini qoplash;
- neustoyka undirish;
- ma’naviy ziyonni qoplash;



- xususiy mulk huquqi munosabatlarini tartibga solishda qonun hujjatlari barqarorligini ta'minlash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining qonunga zid bo‘lgan hujjatining sud tomonidan qo’llanilmasligi;
- mol-mulkning ayrim turlariga bo‘lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelganligini, o‘zgarganligini va bekor qilinganligini davlat ro‘yxatidan o’tkazish.



# VINDIKATSION DA'VO




*O'z mol-mulkini bo'shiqa  
shaxsoning qonunoviz  
egaligidan talab qilib  
alish*

## TUSHUNCHASI

*da'vogar  
javobgar*



## TALAB QILIB OLISH PREDMETI



*Xususiy ahamatlari bilan  
belgilanadigan ashgolar*

## SUB'EKTTLARI

## TALAB QILISH SHARTLARI

- Mulkni yetib olovchining  
insafitaligi
- Mulkni yetib olovchining tekinligi
- Mulkdex erkidan tashqari  
mulkning qo'llidan chiqilish holisli

Mulk egalarining mulkni egallash va undan foydalanish huquqini buzish (garchi bu egalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmasa ham) yoki yo'qotish haqidagi talablar fuqarolik huquqi nazariyasida "negator da'volar" deb ataladi.

Fuqarolik kodeksining 231-moddasida negator da'vo to'g'risida belgilab berilgan.

# NEGATOR DA'VO



Egalik huquqidan mahrum qilish bilan bog'liq bo'limgan mulk huquqininizning buzilishini bartaraf etishni talab qilish to'g'risidagi da'vo

## Tushunchasi

Egalik qilish bilan bog'liq bo'limgan buzishni bartaraf qilish to'g'risidagi talab  
Mulkni ro'yxatdan o'chirish to'g'risidagi talab

## Predmeti

## Sub'ektlari

## Da'veoning qoniqtirilishi shartlari

**da'vog'ru** Huquqlari bezibayotgan mulkdor

**javobligan** Mulk huquqini nisalga oshirishiga to'sqinlik qilayotgan shaxs

Buzish da'vesini talab qilishning davom ettilayotgan vaqt  
Mulk huquqini buzayotgan noqonuniy harakatlari



## Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Mulk huquqi deganda nimani tushunasiz?
2. Mulkning qanaqa shakllari mavjud?
3. Ko'char va ko'chmas mulklar tushunchasini aytib bering.
4. Mulkning daxlsizligi nimani anglatadi?
5. Xususiy mulkning qanaqa turlari bor?



III bob.


# MAJBURIYAT HUQUQI



## 1-§. Majburiyat huquqi tushunchasi, tizimi, taraflari va uning fuqarolik muomalasidagi ahamiyati

Majburiyat keng ma'noda fuqarolik huquqi subyektlari (jismoniy shaxs, yuridik shaxs va davlat) o'rtasida bo'ladigan fuqarolik-huquqiy xarakterdagi munosabatlarni ifodalaydi. "Majburiyat" tushunchasidan huquqning boshqa, chunonchi, ma'muriy huquq, oila huquqi, mehnat huquqi va boshqa sohalarida ham foydalanilgan.

FKning 234-moddasida majburiyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:



Majburiyatlarning paydo bo'lishi va vujudga kelish asoslari mavjud bo'lib, ular FKning 234-moddasining ikkinchi qismida o'z aksini topgan.



Fuqarolik kodeksining 8-moddasida ham fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari nazarda tutilgan. Shuningdek, majburiyatlar yuridik faktlar hamda voqeа va hodisalarning ro'y berishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarning vujudga kelish asoslarini uzil-kesil deb bo'lmaydi.

Fuqarolik qonun hujjatlarining aksariyat normalari shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Davlat organlarining normativ huquqiy hujjatlari ham fuqarolik huquqi va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Shuningdek, fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni sudlar tomonidan chiqarilgan hujjatlar (hal qiluv qarorlari, ajrimlar, buyruqlar va boshq.) asosida ham vujudga kelishi mumkin.

Fuqarolik huquqining subyektlari va boshqa shaxslarga ziyon yetkazish natijasida ham majburiyat yuzaga keladi. Ziyon yetkazgan shaxsda jabrlangan shaxsga yetkazilgan ziyon uchun muayyan majburiyatlarning vujudga keladi.



### *Mazmuni va hajmi bo'yicha majburiyat huquqining turlari*

#### Shartnomali majburiyatlar

**Olish, sotish, mahsulot yetkazib berish, qarz, kontraktatsiya, pudrat, ijara, yuk va yo'lovchi tashish, boshqa shartnomalar asosida bo'ladigan munosabatlarni tartibga soladigan normalar**

#### Shartnomalardan tashqari majburiyatlar

**Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, mulkni asossiz olish yoki asossiz tejashdan va shu kabi boshqa asoslardan kelib chiqadigan majburiyatlar**

Majburiyat munosabatlarining subyekti va obyekti uning muhim elementlari hisoblanadi.

Majburiyat munosabatlarining sub'ekti muayyan huquqlarga ega bo'lgan va zimmasiga muayyan majburiyatlarni olgan shaxslar (jismoniy shaxs, yuridik shaxs va davlat)dir. Har bir majburiyat munosabatida, albatta, ikki taraf ishtirok etadi.



## Majburiyatning taraflari

### Kreditor

### Qarzdor

Muayyan bir harakatning qilinishini yoki muayyan bir harakatni qilishdan saqlanishni talab etishga haqli taraf “kreditor” deb, muayyan harakatni qilishga yoki harakat qilishdan saqlanishga majbur taraf esa “qarzdor” deb ataladi.

*Majburiyatda kreditoring talab qilish huquqi va qarzdorning majburiyati nimaga qaratilgan bo'lsa, shular majburiyat munosabatining ob'ekti hisoblanadi.*

Jamiyatda majburiyatga oid huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqi subyektlarining xilma-xil ehtiyojlarini qondirish, ta'minlash maqsadida o'rnatiladi. Majburiyatlar to'g'risidagi normalar mulkning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishini, ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari orqali xilma-xil xizmatlar ko'rsatilishini tartibga soladi.

*Majburiyat huquqi deb, mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish yoki pul to'lash bilan hamda muayyan harakatlardan tiyilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik-huquqiy normalarning yig'indisiga aytildi.*

Majburiyatlar vositasida mulk yoki mulkiy huquqlarning qo'riqlanishi ta'minlanadi. Shuningdek, majburiyat huquqi fuqarolik huquqining subyektlariga yetkazilgan mulkiy va ma'naviy zararlarning to'lanishini, noqonuniy yoki qonunuiy asoslarsiz olingan narsalarning qaytarilishini ta'minlaydigan normalarni ham o'z ichiga oladi.



**Majburiyatlar mazmuni deganda, kreditorning qarzdordan muayyan harakatlarni qilishni (yoki qilmaslikni) talab qilish huquqi hamda qarzdorning shunday harakatlarni bajarishga bo'lgan burchi tushuniladi.**

## 2-§. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash tushunchasi va usullari

Majburiyatlarni bajarish deb, qarzdor tomonidan kreditor talabiga muvofiq muayyan bir harakatning qilinishi yoki harakatdan saqlanish tushuniladi. Qarzdorning majburiyatni bajarishi – kreditorga ashyni topshirish, ma'lum ishni bajarish, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz olingen mulkni qaytarish yoki muayyan harakatlardan tiyilish va hokazolardan iborat.

Majburiyatni bajarishda har ikki tomon o'zaro foydali manfaatni va jamiyat rivojini ko'zlab, tejamkorlik bilan va o'zaro hamkorlikda zarur harakatlarni qilishlari talab etiladi.

Qarzdor tomonidan majburiyatning butunlay bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hisoblanadi. Buning uchun umumiyl qoida sifatida faqat muayyan shartlar mavjud bo'lganda qarzdor, ya'ni majburiyatni buzgan shaxs mulkiy javobgarlikka tortiladi.


Fuqarolik huquqida majburiyatni buzganlik uchun qarzdor yoki zarar yetkazuvchining javobgarlikka tortilishi uchun to'rtta shartning bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan. Ular, birinchidan, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik; ikkinchidan, zarar yetkazilishi; uchinchidan, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik

- 01 Majburiyatlarni bajarish prinsiplari
- 02 o'zaro hamkorlikda
- 03 kelishilgan usulda
- 04 aniq bajarish
- 05 tegishli darajada
- 06 maqbul usulda

natijasida yetkazilgan zarar o‘rtasida sababli bog‘lanishning bo‘lishi; to‘rtinchidan, qarzdor yoki ziyon yetkazuvchining muqarrar aybi bo‘lishi shartlaridir.



Majburiyat munosabatlarda ba’zida kreditor yoki qarzdor tarafida yoxud har ikkala tarafda ham ikki yoki undan ortiq shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Bunday majburiyatlarga esa ko‘p shaxsli majburiyatlar deb ataladi. Masalan, qarz oluvchilar ikki yoki undan ortiq shaxslar bo‘lganda bunday majburiyat ko‘p shaxsli majburiyatlar hisoblanadi.



Majburiyatda kreditor taraf ko‘pchilik bo‘lganda – aktiv ishtirokchilar, qarzdor tarafida qatnashuvchi shaxslar esa passiv ishtirokchilar deb ataladi. Agar majburiyatda qatnashuvchi shaxslar har ikki tarafda ham ko‘pchilik bo‘lib ishtirok etsa – aralash ishtirokchilar deb ataladi.



Ulushli majburiatlarda qatnashuvchi kreditorlarning har biri qarzdordan tegishli ulushining bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lsa, ulushli qarzdorlardan har biri o‘ziga tegishli ulushni bajarishga majbur bo‘ladi. FKning 251-moddasida ko‘rsatilganidek, agar ulushli majburiyatda bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etsa, basharti qonundan yoki shartnomadan boshqacha tartib anglashilmasa, u holda har bir kreditor majburiyatni boshqalar bilan teng ulushlarda talab qilishga haqli, har bir qarzdor esa bu talabni bajarishi shart.

Sheriklik majburiyatlarida qarzdor bittayu, kreditorlar bir necha bo‘lishi yoki bir necha kreditor va bir necha qarzdor bo‘lishi mumkin. Sheriklik asosida majburiyat olganlar – sherik qarzdorlar bo‘lsa, sheriklik asosida talab qilish huquqiga ega bo‘lganlar – sherik kreditorlar deb ataladi. Sheriklik majburiyatida kreditorlarning talablari yoki qarzdorlarning majburiyatları ulushlarga bo‘linmaydi. Ammo kreditorlardan biri yoki bir nechtasi qarzning qisman bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Fuqarolik kodeksining 252-moddasida ko‘rsatilganidek, qarzdorlarning sheriklik majburiyati belgilanganida kreditor majburiyatning qarzdorlarning barchasidan birligalikda, shuningdek, har qaysisidan ayrim-ayrim holda to‘la yoki qisman bajarilishini talab qilishga haqlidir.

“Regress” fuqarolik huquqida “qaytarish” tushunchasini, masalan, birov uchun to‘langan pulning qaytarish to‘g‘risidagi talabni bildiradi. Qaytarma majburiyat sheriklik va qo‘sishmcha majburiyatlarni bajarishdan kelib chiqadi. Sherik qarzdorlardan biri kreditorga nisbatan majburiyatni to‘la hajmda bajarib, keyinchalik ular uchun to‘langan summani, qilingan ish xarajatlarini qolgan qarzdorlardan qaytarma talab asosida qoplata oladi.



**Regress talab deb, bir taraf ikkinchi taraf uchun uchinchi shaxs oldida bajargan majburiyatni qaytarish to'g'risida talab qila olish huquqiga aytiladi.**

Regress majburiyat shartnomaga intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi, fuqarolik huquqi subyektlarining majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatini oshiradi. Regress majburiyat vositasida fuqarolarning hayotini va sog'lig'ini, ularning mehnat huquqlarini samarali muhofaza qilish ta'minlanadi. Ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot organlarining fuqarolarga yetkazilgan zarar uchun javobgar tashkilotlar va shaxslarga nisbatan regress da'volari ushbu organlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

#### **Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullari**

Fuqarolik-huquqiy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash fuqarolik-huquqiy munosabat sanaladi.

Fuqarolik huquqida qarzdor zimmasidagi majburiyatlarning kreditor foydasiga bajarilishi shartnomaga intizomini mustahkamlashda, shuningdek, fuqarolik huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.



**Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash deb, qarzdor zimmasida bo'lgan majburiyatlarni u tomonidan lozim darajada bajarilishiga majbur qiluvchi choralariga aytiladi.**

Qonunchiligidan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash maqsadida Fuqarolik kodeksining 259-moddasida majburiyatlar bajarilishi ta'minlanishining oltita eng ko'p qo'llaniladigan usullari qayd etib o'tilgan.

**Majburiyatlarning  
bajarilishini ta'minlash  
usullari:**

**1*****Neustoyka*****2*****Garov*****3*****Qarzdorning mol-  
mulkini ushlab qolish*****4*****Kafillik*****5*****Kafolat*****6*****Zakalat***

Majburiyatlarni yuqorida sanab o'tilgan har qanday usullaridan biri bilan ta'minlash ham kreditor bilan qarzdor (yoki qarzdorning majburiyatini ta'minlaydigan boshqa shaxs) orasida majburiyatlar huquqiy munosabatini vujudga keltiradi.

Fuqarolik kodeksining 259-moddasiga ko'ra, majburiyatlarning bajarilishi qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham ta'minlanishi mumkin. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning boshqa usullari esa fuqarolik huquqi sohasidagi qonunlarda yoki tomonlarning kelishuvi bilan tuziladigan shartnomalarda nazarda tutilishi mumkin. Umumiy qoidaga ko'ra, tomonlar kelishuvi bilan shartnomada belgilanadigan majburiyatlarni ta'minlashning choralar qonun hujjatlariga zid bo'lmasligi kerak.

**1. Neustoyka majburiyat-larning bajarilishini ta'minlashda eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi.**

***Neustoyka deb,  
qonunchilik yoki  
shartnomada bilan  
belgilangan, qarzdor  
ma j b u r i y a t n i  
bajarmagan yoki lozim  
darajada bajarmagan  
taqdirda kreditorga  
to'lashi shart bo'lgan  
pul summasiga aytildi.***

Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo'ladi. Majburiyatning bajarilishini ta'minlash usullari bo'lgan jarima bilan penya o'rtasida jiddiy farq yo'q. Ular faqat hisoblanish metodlari jihatidangina bir-biridan farq qiladi.

## 2. Garov majburiyat bajarilishini ta'minlashning muhim usullaridandir.

*Garov deb, bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqini majburiyatni ta'minlash uchun berishiga aytiladi.*

Mulkni garovga qo'yuvchi shaxs qarzdorning o'zi ham, shuningdek, uchinchi bir shaxs ham bo'lishi mumkin.

Garovning mohiyati shundan iboratki, qarzdor tomonidan majburiyat ijro etilmaganida kreditor o'zining talabini garovga qo'yilgan mulk hisobidan, birinchi navbatda, undirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### Garovning quyidagi turlari mavjud:

- a) zakalat garovi – bunda garov narsasi (predmeti) garovga oluvchida saqlanadi;
- b) ipoteka garovi – bunda ko'chmas mol-mulk garovga olinadi;
- v) huquqlar garovi – bunda mulkiy huquqlar garovga olinadi.

3. Qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida mavjud bo'lgan majburiyatning bajarilishini ta'minlashning alohida yangi usuli sanaladi.



**Qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish** deb, qarzdorga yoki qarzdor ko'rsatgan shaxsga topshirilishi lozim bo'lgan ashyoni saqlayotgan kreditor ushbu ashay haqini to'lash majburiyati qarzdor tomonidan muddatida bajarilmaganda uni tegishli majburiyat bajarilgunga qadar ushlab qolishiga aytiladi.

Ushlab qolish huquqining vujudga kelishiga shartnoma majburiyatining buzilishi asos hisoblanadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasida sotuvchi tovarni topshirishdan oldin sotib oluvchi uning haqini to'liq yoki qisman to'lash (oldindan haq to'lash) majburiyati nazarda utilgan hollarda sotib oluvchi tovar haqini shartnomada nazarda utilgan muddatda to'lamasa, sotuvchi (mahsulot yetkazib beruvchi) tovar haqini oldindan to'lanmaguncha tovarni yetkazib berishni ushlab turishga haqli. Yoki bo'lmasa, FKning 715-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq, tashuvchi tashish uchun topshirilgan yuklarni o'ziga tegishli kira haqini va tashish bo'yicha boshqa to'lovlarni ta'minlash maqsadida ushlab turish huquqiga ega.

**4. Kafillik – kredit ta'minotining bir turi bo'lib, unda kafil kreditni qarzdor tomonidan to'liq yoki qisman to'lanishiga kafolat beradi, aks holda, kafilning o'zi kreditni kafillik summasi doirasida to'lab berishni o'z bo'yniga oladi.**

***Kafillik shartnomasi***  
*bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z*  
*majburiyatini to'la yoki qisman*  
*bajarishi uchun uning kreditori*  
*oldida javob berishni o'z*  
*zimmasiga oladi.*

Siz kafillik shartnomasiga imzo chekkaningizdan so'ng, do'stingiz bilan bir qatorda kredit to'lanishiga javobgar hisoblanasiz. Do'stingiz ma'lum bir sabablarga ko'ra, kreditni to'lamaganda kreditni to'lab berish majburiyati uning o'rniga sizga yuklatiladi.

Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak. Yozma shaklga rioxalmaslik kafillik shartnomasining haqiqiy bo'lmasligiga olib keladi.

**5. Kafolatning xususiyatlaridan biri shundaki, bunda har doim kafil sifatida bank, boshqa kredit muassasasi yoxud sug'urta tashkiloti kafil bo'lib qatnashadi.**

***Kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko'ra, kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul surmmasini to'lash haqida yozma talabnomasi taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi.***

Ko'p hollarda kafil prinsipalga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot hisoblanadi. Shu sababli kafil prinsipalning bankda saqlanayotgan pul mablag'lari hisobidan uning kreditorlari oldidagi majburiyatni bajaradi.

Kafolat haq baravariga tuziladi. Kafolat bergen bank (kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti)ga prinsipal tegishli miqdorda haq to'laydi.

**6. Zakalat to'g'risidagi kelishuv zakalatning summasidan qat'i nazar, yozma ravishda tuzilishi kerak.**

*Shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnomaning tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan beradigan pul summasi **ZAKALAT** deb ataladi.*

### **Zakalat, asosan, quyidagi 3 ta vazifani bajaradi:**

**birinchidan**, berilgan zakalat summasi shartnomaning haqiqatdan ham tuzilganligini isbotlovchi dalil hisoblanadi;

**ikkinchidan**, zakalat – shartnoma bo'yicha avvaldan to'lanadigan pul summasi bo'lib, tegishli to'lovlari hisobiga muayyan summani to'lagan taraf shartnomani qisman ijro etgan hisoblanadi;

**uchinchidan**, zakalat shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning ijrosini ta'minlash uchun belgilanadi. Zakalat bergen taraf shartnoma yuzasidan olgan o'z majburiyatlarini bajarmaganida bergen zakalat summasini yo'qotadi. Agar zakalat olgan taraf o'z majburiyatlarini bajarmasa, u ikkinchi tarafga zakalat summasining ikki barobarini to'lashga majbur bo'ladi.

### **Majburiyatlarning bekor bo'lishi**

Majburiyatlarning bekor bo'lishi – bu huquqiy munosabatlarni jarayonida qonunda ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lganda yoki shartnomada nazarda tutilgan zaruriy natijalarga erishilganda muayyan majburiyat turi bo'yicha bir tarafning talab qilish huquqi va unga muvofiq bo'lgan ikkinchi tarafning majburiyati bekor bo'lishi bilan bog'liq holatdan iborat yakunlovchi bosqichdir.

### **Majburiyatlarning bekor bo'lish asoslari**

Voz kechish haqini berish bilan	Majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi bilan
Qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo'lib qolganda	Hisobga o'tkazish bilan
Davlat organi hujjati asosida	Yuridik shaxs tugatilishi bilan
Qarzdan voz kechish bilan	Majburiyat yangilanishi bilan
Fuqaroning vafot etishi bilan	Bajarish mumkin bo'Imaganligi tufayli

### 3-§. Shartnomalar haqida umumiy qoidalar va ularning ayrim turlari

Mamlakatimizdagi bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qonuniy tartibga solish bilan birga, shartnomaviy tartibga solish ham ushbu munosabatlar taraflarining xatti-harakatlarini ma'lum bir tizimga solib turuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Aytish mumkinki, qonun ham, shartnoma ham tartibga soluvchi vazifani bajaradi. Biroq bunda qonun normasi bilan shartnoma shartlari o'rtasida ikkita muhim farq mavjud:

1) shartnoma taraflarning erk izhori bo'lsa, huquq normasi – uni qabul qilgan organning erk-irodasi, izhori hisoblanadi;

2) har ikkalasining amal qilish doirasi ham turlichadir: shartnoma faqat uning taraflari huquq va majburiyatlarini belgilaydi va shartnomada ishtirok etmaydigan shaxslarga aslo ta'sir ko'rsata olmaydi, normativ hujjat esa barcha uchun yoki muayyan guruh subyektlari uchun taalluqli bo'ladi.

**“Shartnoma deb, ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvlariga aytildi.”**

Shartnoma tushunchasida asosiy belgi, asosiy shart – taraflarning muayyan natijaga erishishga qaratilgan o'zaro kelishuvlaridir. Taraflarning har qaysisi tomonidan shartnoma bo'yicha olinadigan huquq va burchlar har xil bo'lsa ham, ular oqibatda yagona huquqiy natija beradi, masalan, biron-bir narsaga nisbatan egalik huquqi o'tkaziladi yoki biron-bir ashyodan foydalanish huquqi olinadi .

Shartnoma tushunchasi bitim tushunchasiga yaqin tushuncha bo'lib, bu borada har qanday shartnoma bitim hisoblansa ham, har qanday bitim shartnoma bo'la olmaydi .

Bitimlar deb, fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytildi.

Shartnoma ham mohiyatiga ko'ra, ikki yoki undan ortiq shaxslarning huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.

Bozor munosabatlari sharoitida “shartnomalar erkinligi” tamoyili o'ziga xos

ahamiyatga egadir. Chunki shartnoma huquqiy tartibga solishning shakli sifatida shartnoma qatnashchilarining xohish-irodasi va harakatlarini namoyon etish hamda rasmiylashtirishning vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shartnoma erkinligi tamoyilining mazmuni FKning 354-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, shartnoma fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z xohishiga ko'ra, o'z erki irodasi bilan tuziladi, ya'ni fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi. Shuningdek, shartnomaning sharti taraflar kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo'yilmaganligi tufayli qo'llaniladigan norma (dispozitiv norma)da nazarda tutilgan hollarda taraflar o'zaro kelishib, uning qo'llanishini bekor qilishlari yoki unda nazarda tutilganidan boshqacha shartni belgilashlari mumkin. Bunday kelishuv bo'lmaganda shartnomaning sharti dispozitiv norma bilan belgilanadi.

Agar shartnoma shartlari taraflar yoki dispozitiv norma bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa, tegishli shartlar taraflar o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ish muomalasi odatlari bilan belgilanadi.

### **Shartnomaning mazmuni, shakli va turlari**

Fuqaroviy huquqiy shartnomaning mazmunini uning bandlari (shartlari, rekvizitlari) tashkil etadi Amaldagi qonunchilikka ko'ra, agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo'lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Ba'zi shartnomalar uchun xos muhim bandlar qonun bilan belgilanadi.

Shartnomaning shakli. Agar qonunda muayyan turdag'i shartnomalar uchun ma'lum bir shakl belgilab qo'yilgan bo'lmasa, shartnoma bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda tuzilishi mumkin.



Shartnomalar unda ishtirok etayotgan taraflar o‘rtasida huquq va majburiyatlarning o‘zaro taqsimlanishiga qarab ***bir tomonlama, ikki tomonlama*** va ***ko‘p tomonlama*** shartnomalarga bo‘linadi.

Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida faqat huquq bo‘lib, hech qanday majburiyat bo‘lmaydi, ikkinchi tarafda esa faqat majburiyat bo‘ladi. Masalan, qarz shartnomasida qarzdor olgan pul summasini o‘z vaqtida qarz beruvchiga to‘lash majburiyatiga va kreditor esa uni talab qilish huquqiga ega.

Ikki tomonlama shartnomada esa har ikki taraf ham alohida huquq va majburiyatga ega bo‘ladi. Bunday shartnomaga oldi-sotdi shartnomasini misol qilib keltirish mumkin. Bu shartnoma bo‘yicha sotuvchi sotilgan ashyoning bahosini talab qilish huquqiga va sotilgan ashyoni oluvchiga topshirish majburiyatiga, sotib oluvchi esa olayotgan ashyoning bahosini to‘lash majburiyatiga va sotib olingan ashyoni talab qilib olish huquqiga ega bo‘ladi.

Fuqarolik muomalasida tuziladigan shartnomalarning aksariyati ikki tomonlama shartnomalar hisoblanadi.

Ko‘p tomonlama shartnomalar ham mavjud bo‘lib, unda taraflar uch va undan ortiq bo‘ladi. Bunday shartlarda bir paytning o‘zida har bir tarafda muayyan huquq va majburiyatlar bo‘lishi xarakterlidir. Bunga misol qilib, lizing va franchizing shartnomalarini keltirish mumkin.

Shuningdek, shartnomalar haq baravariga va tekinga tuziladigan shartnomalarga bo‘linadi:

- shartnoma bo‘yicha taraf o‘z burchlarini bajarganligi uchun haq olishi yoki unga boshqa muqobil to‘lov to‘lanishi lozim bo‘lsa, bunday shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma bo‘ladi (misol uchun, oldi-sotdi, ijara va boshqa shartnomalar);

- shartnoma bo‘yicha bir taraf ikkinchi tarafga undan haq yoki boshqa muqobil to‘lov olmasdan biror narsani berish majburiyatini olsa, bunday shartnoma tekinga tuzilgan shartnoma hisoblanadi (misol uchun, hadya, foizsiz qarz va boshqa shartnomalar).

Umumiy qoidaga ko‘ra, shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo‘lib qoladi. Ammo taraflar o‘zlarini tuzgan shartnomaning shartlarini kuchga kirish vaqtini belgilab qo‘yishga haqlidirlar.

Qonunda yoki shartnomada shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarning shartnoma bo‘yicha majburiyatları bekor bo‘lishiga olib keladi, deb belgilanishi mumkin. Bunday shart yozib qo‘yilmagan taqdirda taraflar shartnomaning amal qilish muddati majburiyatni bajarishning oxirgi muddatigacha amal qiladi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Shartnomalar tuzilish paytiga va mazmuniga qarab real va konsensual shartnomalarga bo‘linadi.

Real shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlar taraflar o‘zaro kelishgan va shartnoma narsasi, ashyo yoki pul topshirilgan paytdan vujudga keladi.

“Real” so‘zi lotincha “res” so‘zidan olingan bo‘lib, “ashyo” ma’nosini bildiradi.

Real shartnomaga misol tariqasida hadya, qarz, tekin foydalanish, omonat saqlash shartnomalarini ko'rsatish mumkin.

Konsensual shartnomalar bo'yicha huquq va majburiyatlar taraflarning kelishganlari, shartnomani qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirganlari zahoti paydo bo'ladi. "Konsensual" so'zi lotincha "consensus" so'zidan olingan bo'lib, "kelishuv" ma'nosini bildiradi. Konsensual shartnomaga oldi-sotdi, pudrat, mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Aytish mumkinki, fuqarolik huquqida aksariyat shartnomalar konsensual shartnomalar guruhiga kiradi.

### **Shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi hamda asoslari**

Agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo'lsa, shartnomma tuzilgan hisoblanadi.



Shartnomalarni tuzishning umumiy tartibiga oid qoidalar FKning 364–381-moddalarida berilgan.

Shartnomalarni tuzishning umumiy tartibiga oid qoidalar FKning 364–381-moddalarida berilgan.

Shartnomalarni tuzishning umumiy tartibiga oid qoidalar FKning 364–381-moddalarida berilgan.

Taraflardan birining talabi  
bilan shartnoma sud tomonidan  
o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi

**01**

Ikkinchi taraf  
shartnomani jiddiy  
ravishda buzsa

**02**

Qonunlar va  
shartnomada nazarda  
tutilgan hollarda

Fuqaroviylar huquqiy shartnomalar tuzilishi qanchalik muhim hisoblansa, ularni bekor qilish yoki o'zgartirish kiritish ham shunchalik ahamiyatlidir. Agar FKda nazarda tutilmagan shartnomalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoxud uni bekor qilish zarurati vujudga kelganda, FKning shartnomalar to'g'risidagi umumiy qoidalar bobidagi normalar asosida hal qilinadi.

### **Oldi-sotdi shartnomasi tushunchasi, belgilari va turlari**

Oldi-sotdi shartnomasi insoniyat tomonidan eng qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan shartnomalardan biridir. Jamiyatda tovar-pul munosabatlari qaror topishi bilan turli kasb-hunar kishilari oldi-sotdi shartnomasi orqali boshqa kasb-hunar kishilari mehnati mahsulotlarini sotib olib, iste'mol qilish va ayni vaqtda, o'z mehnatlari mahsulotlarini sotish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

“

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha  
bir taraf (sotuoladi. vchi) tovarni  
boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk  
qilib topshirish majburiyatini, sotib  
oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va  
buning uchun belgilangan pul  
summasini (bahosini) to'lash  
majburiyatini oladi.

”

Ayni vaqtida ushbu shartnomani boshqa o'xshash shartnomalardan ajratib turuvchi huquqiy belgilari mavjud bo'lib, unga quyidagilar kiradi:  
**birinchidan**, oldi-sotdi shartnomasi haq baravariga tuziladigan (pulli) shartnoma

hisoblanadi. Bunda har doim sotuvchi topshiradigan mol-mulk (tovar) evaziga sotib oluvchi muayyan miqdorda pul (so‘m, valyuta) bilan belgilangan haq to‘laydi;

**ikkinchidan**, oldi-sotdi shartnomasi konsensual shartnomalar guruhiga mansub. Boshqacha aytganda, bu shartnomma bo‘yicha taraflar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar shartnomaning barcha muhim shartlari to‘g‘risida o‘zaro kelishilgan va shartnomma tegishli shaklda rasmiylashtirilgan vaqtdan boshlab vujudga keladi;

**uchinchidan**, shartnomma munosabatlari tarkibiga ko‘ra, u ikki tomonlama shartnomma sanaladi. Yuqorida Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo‘yilgan shartnomaga berilgan ta’rifdan ham ko‘rinib turibdiki, ushbu shartnomada ikki taraf – sotuvchi va sotib oluvchi qatnashadi va har ikkala taraf ma’lum huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi: sotuvchi ashyoni topshirish burchini va buning uchun haq olish huquqini oladi, oluvchi esa ashyo (tovar) qiymatini to‘lashi lozim va sotilgan ashyoning o‘ziga topshirilishini talab qilish huquqini oladi.

## Oldi-sotdi shartnomasida taraflar

Sotuvchi

01

02

Xaridor

Bunda taraflar sifatida fuqarolar va yuridik shaxslar qatnashishi mumkin. Ayni vaqtida muayyan hollarda shartnomada taraf sifatida davlat ham ishtirok etishi mumkin.

### Oldi-sotdi shartnomasining predmeti, bahosi va muddatlari

Oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi mumkin bo‘lgan, fuqarolik muomalasidan tashqari chiqarilmagan har qanday ashyolar tovar bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan obyektlar olish-sotish predmeti bo‘la olmaydi. Shuningdek, sotilishi hamda sotib olinishi mumkin bo‘lmagan davlat mol-mulk turlarining ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi 425-XII-son qonunining 4-moddasida ko‘rsatilgan. Bunga davlatning mutlaq mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan obyektlar, tarixiy-madaniy va tabiiy meros obyektlari, harbiy-texnikaviy mol-mulk, harbiy qurol-yarog‘lar, portlovchi va radioaktiv moddalar, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, qabriston va sh.k. obyektlar kiradi. Ayrim obyektlar fuqarolik muomalasida cheklangan harakatda bo‘ladi. Ularni

maxsus ruxsat olish asosida sotib olish yoki sotish mumkin (masalan, kuchli narkotik dorilar faqat maxsus retsept asosida, ro'yxatda qayd etilib sotiladi).

Oldi-sotdi shartnomasida tovarning bahosi taraflarning kelishuviga bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tegishli vakolatga ega bo'lgan davlat organlari belgilaydigan yoki tartibga soladigan baholar (ta'riflar, rassenkalar, stavkalar va h.k.) qo'llaniladi (FK 356-m. 2-q.).

Oldi-sotdi shartnomasida qatnashuvchi har ikkala taraf qonun yoki shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgardir.

### **Hadya shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va predmeti**

Hadyaning mohiyati shundaki, bunda mulk tekin topshiriladi, ya'ni hadya qiluvchining tasarrufida bo'lgan ashyo hadya oluvchiga mol-mulk qilib o'tkaziladi.

**Hadya** deb, shunday shartnomaga aytildiki, unga ko'ra bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabini) beradi yo berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni beradi yo berish majburiyatini oladi yoxud uni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoxud ozod qilish majburiyatini oladi.

### **Hadya shartnomasi belgilariga ko'ra tasnifi**

01

Bir taraflama

02

Real

03

Tekinga tuziladigan  
shartnomaga

Hadya shartnomasining predmeti fuqarolik muomalasidagi obyektlar: ashylar, mulkiy huquqlar, ko‘char va ko‘chmas mulklar bo‘lishi mumkin.

Hadya shartnomasining shakli uning mazmunidan kelib chiqadi. Umumiy holda hadya qilish, ya’ni hadyani hadya oluvchiga topshirish og‘zaki tarzda amalga oshirilishi mumkin. Ko‘pincha, hadyani topshirish, uni taqdim qilish ramziy topshirish (masalan, yangi kvartirani yoki avtomobil kalitini topshirish) yoki mulkiy huquqni guvohlantiruvchi biron-bir hujjatni taqdim etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

**Ko‘char mulklar bo‘yicha quyidagi hollarda hadya shartnomasi oddiy yozma shaklda tuziladi:**

**hadya qiluvchi yuridik shaxs bo‘lganida**

**01**

**fuqarolar o‘rtasida eng kam ish haqining o’n baravaridan ortiq summaga shartnoma tuzilayotganda**

**02**


**shartnoma bo‘yicha kelajakda hadya qilish va’da qilingan hollarda**

**03**

Ko‘chmas mulkni hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Shartnomada qatnashuvchi taraflar hadya qiluvchi va hadya oluvchi deb atalib, o‘z navbatida, ular fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat bo‘lishi mumkin. Hadya fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnoma bo‘lgani bois hadya qiluvchi va hadya oluvchi muomala layoqatiga ega bo‘lishi lozim. Ba’zan muomala layoqatiga ega bo‘limgan shaxslar nomidan shartnomalarni ularning qonuniy vakillari tuzadilar.

Yuqorida aytganimizdek, hadya bo‘yicha taraflarning subyektiv huquq va majburiyatlari hadyani bekor qilish va undan voz kechish bilan uzviy bog‘liq.



Hadya shartnomasida hadya oluvchi hadya qiluvchidan oldin vafot etgan taqdirda hadya qiluvchining hadyani bekor qilish huquqi shart qilib qo'yilishi mumkin. Bu jihatdan hadyani shartli bitimlar sirasiga kiritish mumkin.

### Mulk ijarasi tushunchasi va mohiyati

Mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi.

Mulk ijarasi shartnomasi mulkdor tomonidan mol-mulkni tasarruf etish usulini o'zida ifodalaydi.

**Mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi.**

Mulk ijarasi shartnomasi mulkdorga mulknini ijaraga berish orqali muayyan daromad ko'rish imkoniyatini beradi. Mazkur shartnomalar tadbirkorlik faoliyatida ham, boshqa, shu jumladan, maishiy sohalarda ham keng qo'llaniladi. Bunda mulkdor o'zi tomonidan vaqtincha foydalilmayotgan mol-mulkini ijaraga beradi.

Umumiy qoidaga ko‘ra, mulk ijarasi shartnomasida mol-mulk ijaraga beruvchi tomonidan ijaraga oluvchiga egalik qilish va foydalanish uchun topshiriladi. Masalan, transport vositalari ijarasi shartnomasi va prokat shartnomasi (FK 558 va 564-m.). Shu bilan birga, alohida hollarda ijaraga mol-mulk faqat foydalanish uchun topshirilishi mumkin. Masalan, bino va inshootlar ijarasida obyekt ijaraga oluvchiga faqat foydalanishga topshirilishi mumkin (FK 573-m.).

Mulk ijarasi shartnomasi haq evaziga tuziladi. Mulk ijarasi shartnomasi obyektlari ijaraga oluvchiga haq evaziga topshiriladi. Aks holda mol-mulkdan tekin foydalanish (FK 36-bob) yuz beradi.

Mulk ijarasi shartnomasining obyekti ko‘chmas mulk ham, ko‘char mulk ham bo‘lishi mumkin.

FK 79, 214 va 215-moddalariga asosan, davlat nomidan mulk ijarasi munosabatlarda davlat hokimiyati organlari va boshqa maxsus vakolatli organlar ishtirok etadi.

### **Uy-joy ijarasi**

## **Uy-joy ijarasi shartnomasi tushunchasi.**

**Uy-joyni ijaraga berish shartnomasiga binoan, bir taraf – uy-joyning mulkdori yoki u vakolat bergen shaxs (ijaraga beruvchi) – boshqa taraf (ijaraga oluvchi)ga uy-joyda yashash uchun uni haq evaziga egalik qilish va foydalanishga topshirish majburiyatini oladi.**

**Uy-joy yuridik shaxslarga ijara shartnomasi yoki boshqa shartnoma asosida egalik qilish va (yoki) foydalanish uchun topshirilishi mumkin. Yuridik shaxs uy-joydan faqat fuqarolarning yashashi uchun foydalanishi mumkin.**

Uy-joyni ijaraga berish shartnomasi yozma shaklda tuziladi.


Fuqarolar o‘rtasida tuzilgan uy-joyni ijaraga berish shartnomasi davlat soliq organlarida hisobga qo‘yilishi lozim.

**Uy-joyni  
ijaraga berish  
shartnomasining  
ob'ekti**

Doimiy yashash  
uchun yaroqli bo'lgan  
alohida uy-joy (kvertira,  
uy, kvartiraning yoki  
uyning bir qismi) uy-joyni  
ijaraga berish  
shartnomasining ob'ekti  
bo'lishi mumkin.

Uy-joyning  
yashash uchun yaroqliligi  
uy-joy to'g'risidagi qonun  
hujjatlarida belgilangan  
tartibda aniqlanadi.

Uy-joyni ijaraga berish shartnomasi besh yildan ortiq bo'lмаган muddatga tuziladi. Agar shartnomada muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, u besh yilga tuzilgan hisoblanadi.



## Qarz va kredit shartnomalari tushunchasi, ahamiyati va turlari

Qarz shartnomasi hali kishilik jamiyatidagi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlar u qadar rivojlanmagan paytdayoq shakllangan edi. Qarz ko‘rinishidagi dastlabki munosabatlar, kishilarning bir-birlariga moddiy ashyolarni qaytarib berish sharti bilan foydalanishga berish tarzida vujudga keldi. Keyinchalik, pul ixtiro qilinishi bilan qarz shartnomasi o‘zining hozirgi ko‘rinishini oldi.

Qarz shartnomasining bugungi kundagi huquqiy belgilari dastlab Qadimgi Rimda paydo bo‘ldi. Kishilik jamiyati shakllanib, qarz shartnomasi nafaqat o‘zaro yordam va ishonch turi, balki foyda ko‘rish vositasi sifatida ham keng qo‘llanila boshlandi. Jamiyatning boy kishilari tomonidan berilgan qarzlar uchun foizlar olish tartibi daromadga aylana bordi va bu holat qarz shartnomasining keng qo‘llanilishi va takomillashuviga sabab bo‘ldi.

Bugungi bozor iqtisodiyotiga asoslangan sharoitda fuqaroviylar huquqiy shartnomalarning bir turi sifatida qarz shartnomasi ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Qarz shartnomasining ahamiyati barcha sohalarda, ayniqsa, kundalik ehtiyojlarda va tadbirkorlik faoliyatida ham muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 41-bobi “Qarz va kredit” deb nomланади.

*Qarz shartnomasi bo‘yicha bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi taraf (qarz oluvchi)ga pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib, o’shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi.*

Qarz shartnomasi taraflar o‘rtasida pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.


Qarz shartnomasiga asosan, qarz beruvchi qarz oluvchining egaligiga yoki operativ boshqaruviga pul summasini yoxud son, miqdor, o‘lchovdagi mulkni (ashyon) beradi. Qarzdor esa shartnoma shartiga ko‘ra, olingan pul summasini yoki mulkni (ashyon) qarz beruvchiga qaytarishi lozim bo‘ladi.

*Qarz shartnomasining  
predmeti pul yoki moddiy  
alomatlariga ko'ra, og'irlilik yoki  
o'lichev miqdori bilan  
belgilangan narsalar  
(tugallanadigan ashyolar)  
hisoblanadi.*

Qoida bo'yicha tugallanmaydigan ashyolar va mol-mulklar qarz shartnomasining predmeti bo'la olmaydi. Tugallanadigan va tugallanmaydigan ashyolar tushunchasi mazkur darslikning 4-bobida batatsil yoritilgan.

Qarz shartnomasi oddiy yozma yoki notarial tasdiqlangan shaklda tuzilishi mumkin.

Qarz shartnomasining subyektlari jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat hisoblanadi.



Bozor munosabatlarining takomillashib borishi qarz shartnomasi sub'ektlarining doirasini ham kengaytirib borishi tabiiy. Jumladan, yakka tadbirkorlar yoki oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini ham bular qatoriga kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabr kunidagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishslash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-sonli Qarorida IIOning yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj xodimlariga besh yildan oshmaydigan muddatga eng kam ish haqining ming baravaridan oshmaydigan miqdorda foizsiz qarz berish nazarda tutilgan. Ushbu qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilishi shart, chunki FKning 733-moddasi talabiga ko'ra, bir tomon yuridik shaxs bo'lganda, qarz summasidan qat'i nazar, qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak.

**Qarz  
beruvchining  
huquqlari**

**01**

Berilgan qarzni qaytarish muddati kelgan vaqtida, qarz oluvchidan qarzni tezda qaytarilishini talab qilish

**02**

Agar qarz oluvchiga aniq maqsadli qarz berilgan bo'lsa, shu qarzning qanday tarzda ishlatalishini nazorat qilish

**03**

Agar shartnomada qarz uchun foizlar belgilangan bo'lsa, qarzdordan asosiy qarz bilan birga foizlarni to'lashni ham talab qilish

**Qarz  
olvuchining  
majburiyatları**

**01**

Agar qarzni qaytarish muddati kelib qolgan bo'lsa, qarzni o'z vaqtida qaytarish

**02**

Agar qarz shartnomasida qaytarish vaqtiga foiz hisoblash kerak bo'lsa, qarzni foizlar bilan qaytarish

**03**

Qancha miqdorda qarz olingan bo'lsa, shuncha miqdorda qaytarish

**04**

Aniq maqsadli qarz olgan bo'lsa, qarzdan shu maqsadda foydalanish

Qarz shartnomasi yuzasidan da'volashish. Qarz shartnomasi bo'yicha nizo kelib chiqqan taqdirda taraflar shartnomalar shartlari bo'yicha nizoni o'zaro hal qiladilar. Nizo o'zaro hal qilinmasa, taraflar tegishli tartibda sud (iqtisodiy sud, hakamlik sudi yoki fuqarolik ishlari bo'yicha sud)ga da'vo taqdim qilish huquqiga egadirlar.

Mamlakatimizda kredit munosabatlari huquqiy tartibga solishda bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (41-bob 2-paragrafi), O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 4-oktabrdagi "Ipoteka to'g'risida"gi O'RQ-58-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 6-maydag'i "Iste'mol krediti to'g'risida"gi O'RQ-33-sonli qonuni va boshq.



### Yodda saqlang!

Kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvehiga) shartnomada nazarda tilig'an miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvechi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.



**Tijorat krediti** – sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beradigan kreditidir. Bunda tovarlar ma'lum muddatga pulini to'lash sharti bilan nasiyaga beriladi.


**Bank krediti** bank va boshqa kredit tashkilotlari pulni uning egalariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'llarida jamlaydilar va o'z nomidan qarz berib, foiz oladilar.


**Iste'molchi kreditida** tijorat banklari iste'molchilarga tovar sotib olish uchun qarz beradilar. Masalan, iste'molchi kredit kartochkalari.

Davlat krediti deganda, banklarning davlatga qarz berishi yoki davlatdan qarz olishi tushuniladi. Davlat krediti, asosan, davlat zayomi shaklida bo'ladi. Zayom davlatning qarzdorlik guvohnomasi bo'lib, davlat zayomni belgilangan vaqtida qaytarib olish va foiz to'lashni kafolatlaydi.

**Xalqaro kredit** – bu qarz kapitalining jahon miqyosidagi harakati bo'lib, ushbu harakat tovar va valuta ko'rinishidagi mablag'larni qaytarib berish bilan bog'liqdir.

Kredit shartnomasi huquqiy belgilariga ko'ra, konsensual, ikki tomonlama va haq baravariga tuziladi.





**Kredit va zinming qaynuqagi xususiyatlari uchun qatiz shartnomasini uan farq qiladi:**

1. Kredit shartnomasi bo'yicha kreditor sifatida faqat bank yoki boshqa kredit tashkiloti (uning ustavida belgilangan bo'lsa) qatnashadi;
2. Kredit shartnomasi bo'yicha kredit oluvchi kreditorga foizlar to'lashi shart, ya'ni kredit foizsiz bo'lmaydi;
3. Kredit shartnomasi faqat yozma shaklda tuziladi. Kredit shartnomasining yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi;
4. Kredit shartnomasi real emas, balki konsensual shartnomalar guruhiga kiradi. Shu sababli shartnomada tuzilgandan keyin u taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Bunday holda shartnomaning bajarilmasligiga FKning 746-moddasida belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi.

#### Kredit shartnomasi yoki kreditning asosiy vazifalari



BMT tomonidan Fuqaroviylar va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 11-moddasida "**hech kim biror-bir shartnoma majburiyatini bajara olmaydigan ahvolda bo'lgani asosidagina ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas**" deb belgilangan.

#### 4-§. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar

Fuqarolik huquqida “Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar” shartnomadan tashqari kelib chiqadigan majburiyatlar deb ham ataladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 57-bobi “Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar” deb nomlanadi.

Yuridik adabiyotlarda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar delikt majburiyat deb ham ataladi. “Delikt” – lotincha “deliktum” so‘zidan olingan bo‘lib, “buzish”, “ayb”, “huquqbuzarlik” kabi ma’nolarni anglatadi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat tushunchasiga fuqarolik qonunchiligidagi ta’rif berilmagan. Biroq FKning 985-moddasida “g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek, yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan, boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi” belgilangan.

***Zarar yetkazishdan kelib  
chi adigan majburiyatlarning  
mazmuni shundan iborathi shaxs  
jismoniy yoki yuridik shaxs ning  
hayoti va sog’ligi yoki mol-mulkiga  
zarar yetkazgan shaxs yetkazilgan  
zararni to‘li oplash majburiyatini  
oladi jabrlanuvchi esa o ziga  
yetkazilgan zararni oplashni talab  
ilish hu u iga ega bo ladi Shu  
xususiyatiga ko‘ra mazkur institutni  
bir tomonlama majburiyatlar  
guruhiiga kiritish mumkin***

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar fuqarolik-huquqiy majburiyatlarning boshqa turlari kabi muayyan yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Mazkur majburiyat vujudga kelishi uchun asos bo‘ladigan qonun hujjalarda ko‘zda tutilgan yuridik faktlar – zarar yetkazish fakti, ya’ni delikt hisoblanadi.

Delikt majburiylarda zararning kutilmagan hodisa va tasodiflar oqibatida vujudga kelishi bois uning kelib chiqishini har doim ham oldindan aniq aytib (bashorat qilib) bo‘lmaydi.

Zarar yetkazish tufayli vujudga keladigan majburiyatga binoan, jabrlangan shaxs yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxsdan o‘zining avvalgi holati tiklanishini yoki ko‘rgan zararining qoplanishini talab qila oladi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat subyektlari: zarar ko‘rgan shaxs (jabrlanuvchi) va zarar yetkazuvchi (delikvent) hisoblanadi.

Bunday subyektlar sifatida fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat (davlat organlari) ham bo‘lishi mumkin. Delikt munosabatlarda jabrlangan, ya’ni zarar ko‘rgan shaxs

kreditor sifatida, zarar uchun javobgar bo‘lgan shaxs qarzdor sifatida harakat qiladi.

Fuqarolik huquqining umumiy qoidasiga ko‘ra, yetkazilgan zararni qoplash uni yetkazgan shaxs (deliktvent) tomonidan amalga oshiriladi. Ammo fuqarolik huquqida shunday ham bo‘ladiki, bir shaxs boshqa shaxslarning harakatlari uchun javobgar hisoblanadi. FKning 985-moddasiga ko‘ra, “Qonunda zararni to‘lash majburiyati zarar yetkazuvchi bo‘lmagan shaxsga yuklatilishi mumkin”.

Bir shaxsning g‘ayriqonuniy aybli harakati tufayli yetkazilgan zarar delikvent tomonidan emas, boshqa shaxslar tomonidan qoplanishi holatlari fuqarolik qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Bular jumlasiga:

- “Yuridik shaxsning yoki fuqaroning o‘z xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi” (FK 989-m.);
- “Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, ularning mansabdar shaxslari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik” (FK 990-m.);
- “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik” (FK 991-m.);
- “O‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik” (FK 993-m.);
- “Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik” (FK 996-m.) kabilarni keltirish mumkin.

#### **Delikt instituti, asosan, ikki turdag'i vazifani bajaradi:**

**birinchidan**, avvalgi holatni tiklash yoki zararni qoplash, ya’ni jabrlangan shaxsning buzilgan huquqlari tiklanadi hamda ko‘rgan zarari qoplanadi;

**ikkinchidan**, tarbiyaviy funksiyani, ya’ni qonunga xilof xatti-harakatlarning oldini olish vazifasini bajaradi.

Mazkur institutning avvalgi holatni tiklash vazifasi shuki, u g‘ayriqonuniy xatti-harakat natijasida vujudga kelgan salbiy mulkiy oqibatlarni tugatishga, chunonchi, sog‘liqni tiklashga, nobud qilingan ashyo o‘rniga yangi ashyo olishga yoki zararlangan ashyni tuzatishga yoxud ko‘rgan zarar qoplanishiga imkon beradi.

Bu institut tarbiyaviy funksiyasiga ko‘ra, yetkazilgan zararni undirish imkonini berish bilan qonunchilikka riosa qilish, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va boshqa manfaatlariga, shuningdek, ijtimoiy va xususiy mulkka ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish vazifasini amalga oshiradi. Shuningdek, delikt instituti jamiyatda fuqarolarning g‘ayriqonuniy harakatlarni qilmaslikni, qonunchilikka riosa qilishni, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va boshqa manfaatlariga, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishni ta’minlaydi hamda jamiyatda turli huququzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.


#### **Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning umumiy asoslari**

Yuridik javobgarliklar huququzarliklarning holati va turiga ko‘ra, fuqaro, yuridik shaxs, hatto davlatga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Yuridik javobgarlikning jinoiy, ma'muriy, fuqaroviyligi, intizomiy va moddiy javobgarlik kabi ommalashgan turlari mavjud.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik faqat fuqarolik huquqbazarlik sodir etilganda belgilanadi va huquqbuzarga ko'p hollarda mulkiy xarakter tartibida qo'llaniladi. I. Zokirov ta'kidlaganidek, "fuqarolik-huquqiy javobgarlikning o'ziga xos xususiyati ham unda sanksiya huquqbuzarning shaxsiga emas, mulkiga qaratilishidir".

Fuqarolik qonunchiligidagi fuqarolik huquqbazarliklarining ko'pgina turlari hisobga olinganiga qaramay, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning yuzaga kelishining umumiy va maxsus (nisbiy va mutlaq) shartlari mavjud.



#### **Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni yuklashning 4 ta zaruriy shartlarini quyidagicha tushuntirish mumkin:**

**birinchidan**, "g'ayriqonuniy xatti-harakatlar" degan so'zning ma'nosi huquq normalarini buzuvchi xatti-harakatni anglatadi. Fuqarolik huquqiga binoan harakat ham, harakatsizlik ham g'ayriqonuniy bo'lishi mumkin;

**ikkinchidan**, delikt javobgarlik vujudga kelishining muhim shartlaridan biri "zararning mavjudligi"dir. Zero, fuqarolik huquqbazarlik hisoblanishi uchun boshqa hamma shartlar mavjud bo'lsa-da, zarar yetkazilmagan bo'lsa, delikt javobgarlik vujudga kelmaydi (shartnomaviy javobgarlik bundan istisno);

**uchinchidan**, sababiy bog'lanish – tabiat va jamiyatdagi hodisalar o'zaro aloqasining jihatlaridan biridir. Biroq u shaxsning xatti-harakatiga va bu xatti-harakat oqibatida yuzaga kelgan natijaga tegishli ijtimoiy baho berilgandagina yuridik ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxsning xatti-harakati qanchalik g'ayriqonuniy bo'lmasin, yetkazilgan zarar bilan uning g'ayriqonuniy harakati o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lmas ekan, bunda uni javobgar deb bo'lmaydi. Masalan, "sigareta chekish taqiqlanadi" belgisini ko'rib turib o'sha joyda sigareta chekkan shaxsning harakati g'ayriqonuniy hisoblanishi mumkin, lekin o'sha vaqtning o'zida boshqa sababga

ko‘ra yong‘in chiqqanda sigareta chekib g‘ayriqonuniy harakat qilgan shaxsnini yong‘in oqibatida yetkazilgan zararda aybdor deb bo‘lmaydi;

**to‘rtinchidan**, ayb. Fuqarolik kodeksida aybga ta’rif berilmagan. FKning 333-moddasi aybni majburiyatni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning umumiyligi asosi sifatida nazarda tutadi. Ayb huquqbuzarning qonun yoki shartnomasi orqali o‘z zimmasiga qo‘yilgan majburiyatlarga bo‘lgan munosabatini ifoda etadi. Qarzdor aybi bo‘lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, javob beradi. Qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarini ko‘rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi (FK 333-m. 1-q.).

### Ma’naviy zarar va uni qopplash usullari

Fuqarolik huquqida zarar mulkiy va ma’naviy shakllarda bo‘ladi. FKning 57-bob 4-paragrafi “Ma’naviy zararni qopplash” deb nomlanib, shu paragrafning 1022-moddasi 1-qismida “Ma’naviy zarar pul bilan qoplanadi” deb belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi “Ma’naviy zararni qopplash haqidagi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 7-sonli qarorida “ma’naviy zarar deganda, jarblanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbazarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan (o‘tkazgan) ma’naviy va jismoniy (kamsitish, jismoniy og‘riq, zarar ko‘rish, noqulaylik va boshqa) azoblar tushuniladi”, deya ta’rif berilgan.



### Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. Fuqarolik huquqida majburiyat nima va uning vujudga kelish asoslarini bilasizmi?
2. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash choralarini aytib bering.
3. Shartnomasi nima va uning qanaqa shakllari mavjud?
4. Fuqarolar o‘rtasida keng qo‘llaniladigan shartnomalarning qanaqa turlarini bilasiz?
5. Shartnomasiz majburiyatlar nima?
6. Delikt majburiyat nima ma’noni anglatadi?




## INTELLEKTUAL MULK



## 1-§. Intellektual multk obyektlari va ularni huquqiy muhofaza qilish asoslari

Intellektual multk obyektlari fuqarolik huquqining alohida o‘ziga xos obyekti hisoblanadi. “Intellekt” lotincha so‘z bo‘lib, “aql” ma’nosini anglatadi.




Intellektual multk obyektlari fuqarolik huquqining boshqa obyektlari – ashylar, qimmatbaho qog‘ozlardan quyidagi xususiyatlari bo‘yicha farq qiladi:

- ko‘p hollarda intellektual multk obyektlari moddiy ko‘rinishda emas, balki g‘oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo‘ladi;
- g‘oya, bilim shaklidagi intellektual multk obyektiga odatdagи moddiy ashygaga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas;
- bunday obyektlardan bir vaqtning o‘zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalana olishi mumkin;
- intellektual multk huquqi obyektlariga multk huquqining muddatsizligi haqidagi qoida (FK 164-m.) qo‘llanilmaydi. Binobarin, ko‘pchilik hollarda (nouxauga nisbatan istisnoni hisobga olmaganda) intellektual multk huquqi amal qilishi qonunlarda belgilangan muddatlar bilan chegaralangan bo‘ladi;
- qonunlarda belgilangan muddatlar o‘tishi bilan intellektual multk huquqi sohibining intellektual mulkning muayyan obyektiga nisbatan huquqlari bekor bo‘ladi va bu obyektlar umuminsoniy boylikka aylanib, har kim undan ma’lum shartlar asosida (muallifining shaxsiy huquqlariga rioya qilgan holda) tekin va ruxsatsiz foydalananishga haqli bo‘ladi;
- intellektual multk huquqi obyektlari g‘oya ko‘rinishida bo‘lgan hollarda ularni ashylar singari egallash mumkin emasligi, ulardan bir vaqtning o‘zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalana olish imkoniyatlari mavjudligi sababli bunday obyektlarga nisbatan multk huquqini himoya qilishda vindikatsion da’voni qo‘llash (FK 228-m.) imkoniyati amalda mavjud emas;

h) intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan odatdag'i mulk huquqi emas, balki mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo'llaniladi;


i) intellektual mulk huquqining amal qilishi, ayni vaqtida, ma'lum hudud bilan ham chegaralangan bo'ladi. Masalan, ixtiroga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan patent O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar asosida belgilangan hududlardagina amal qiladi;

j) ko'pgina intellektual mulk obyektlariga nisbatan ularning mualliflari shaxsiy huquqlari mavjud bo'lib, bu obyektlardan foydalanuvchilar ushbu shaxsiy huquqlarga rioya qilishlari lozim bo'ladi.



### Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza ostiga olish:

- ularning yaratilganlik fakti asosida;
- FKda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza hujjati berilishi asosida vujudga keladi.



Oshkor etilmagan axborotga nisbatan huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilanadi.



Intellektual mulkning bir qator obyektlarini huquqiy muhofaza qilish FKda yoki boshqa qonunlar (masalan, “Ixtiro, foydali model, sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonun, “Seleksiya yutuqlari haqida”gi qonun va shu kabilar)da belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi orqali vujudga keladi. Buning uchun intellektual mulk obyektiga nisbatan o‘z subyektiv huquqlarining e’tirof etilishiga haqli bo‘lgan manfaatdor fuqaro yoki yuridik shaxs belgilangan tartibda vakolatli davlat organiga murojaat etishi va o‘z talabini asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etishi lozim. Talab qanoatlantirilgan hollarda vakolatli davlat organi fuqaro yoki yuridik shaxsnинг intellektual mulk obyektiga nisbatan subyektiv huquqlari muhofaza ostiga olinganligini bildiruvchi hujjat (patent, guvohnoma, qayd etilganlik haqidagi shahodatnomasi), huquqiy muhofaza yorlig‘i beradi. Vakolatli davlat organi bunday talabni rad etgan taqdirda bu haqda asoslantirilgan qaror chiqaradi. Qaror ustidan Appeliyatsion kengashga yoki sudga qonunlarda belgilangan tartibda shikoyat berilishi mumkin.

Vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi hisoblanadi.

Intelлектуал мулкнинг quyидаги об'ектлари  
хукуқиёт мухофазаси давлат органи томонидан  
хукуқиёт мухофаза юрлиг'i берилishi асосида  
вожудга келди:

- 01** Tovar chiqarilgan joy nomiga bo'lgan  
хукуқ давлат ro'yxatidan o'tkazilib, undan  
foydalanish huquqi to'grisida guvohnoma  
beriladi
- 02** Firma nomi давлат ro'yxatidan  
o'tkazilib (reestrga kiritilib), bu haqda  
dalolatnoma beriladi
- 03** Tovar (xizmat ko'rsatish) belgisiga  
nisbatan u давлат ro'yxatidan o'tkazilib,  
guvohnoma beriladi
- 04** Seleksiya yutuqlariga nisbatan patent  
beriladi
- 05** Foydali modelga nisbatan guvohnoma  
beriladi
- 06** Ixtiro, саноат намunasiga nisbatan patent  
beriladi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida fuqarolarning ijod erkinligi mustahkamlanib qo'yilgan. Unda ko'rsatilishicha, har qanday shaxsga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi kafolatlanadi. Binobarin, intelлектуал faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish haqidagi shartnomada, agarda muallif – ijodkorning kelgusida muayyan turdagи yoki muayyan sohadagi intelлектуал faoliyat bilan shug'ullanmaslik yoki bu faoliyat natijasini yaratmaslik majburiyatlari belgilab qo'yilgan bo'lsa, u o'z-o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi. FKning 23-moddasida fuqaroning huquq layoqatidan to'la yoki qisman voz kechish, huquq layoqati va muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emas deb ko'rsatiladi. Demak, ijodkor-muallifning o'z ixtiyori, erki, irodasi bilan bunday shartni shartnoma majburiyati sifatida o'z zimmasiga olganligi ahamiyatga ega emas. Albatta, ijodkor-muallif o'z erki, ixtiyori bilan amalda ma'lum turdagи intelлектуал faoliyat bilan shug'ullanmaslikka haqli, biroq bu holat shartnoma predmeti yoki shartnoma sharti sifatida namoyon bo'lganda, har doim o'z-o'zicha haqiqiy hisoblanmaydi.

## 2-§. Mualliflik huquqi tushunchasi va obyektlari

Intellektual faoliyat mahsullari orasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari alohida ajralib turadi.

Muallif – ijodkorning o‘z tashabbusi va o‘z mablag‘lari asosida yaratilgan ijodiy faoliyat natijasiga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mutlaq huquqlar faqat uning o‘zigagina tegishli bo‘ladi. U ijodiy faoliyat mahsuli bo‘lgan obyektga nisbatan mutlaq huquqlarni o‘z xohishiga ko‘ra erkin ravishda tasarruf etadi.

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqining tarkibiy qismi bo‘lib, uning eng muhim institutlaridan hisoblanadi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar adabiyot, san’at asarlarini yaratish, ulardan foydalanish va ijro etish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Mualliflik huquqi tamoyillari deb, uning negizida yotgan asosiy qoidalarga aytildi. Bu tamoyillar ichida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan ijod erkinligi muhim ahamiyatga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, ijodkor o‘z ijodiy mahsuli mavzusini tanlashda, uning shaklini belgilashda, uni yaratish uslublarini tanlashda, undan foydalanishda erkin va mustaqildir. Ayni vaqtda bu erkinlik qonun doirasida amalga oshirilmog‘i lozim. Ijodkor o‘z asari orqali konstitutsiyaviy tuzumga qarshi, zo‘ravonlik yoki behayolikni targ‘ib qilish, boshqalarning huquqlarini poymol qilish maqsadlarini ko‘zlamasligi lozim. Muhim konstitutsiyaviy tamoyillardan yana biri ijodiy mahsulotlarga nisbatan senzuraning yo‘l qo‘ymasligi haqidagi qoidadir.

Muallif asarni yaratishda yoki e’lon qilishda, agarda u davlat sirlari, shaxsiy sirlar yoxud boshqalarning qonuniy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lmasa, oldindan ruxsat olish, asar mazmunini nazoratdan o‘tkazish talab etilmaydi. Mualliflik huquqining yana bir asosiy qoidalardan biri – muallif huquqlarining vujudga kelishi, uni muhofaza etish, asarni yaratish fakti asosida vujudga kelishi, u qandaydir rasmiyatichiliklarga rioya etilishining talab etilmasligidadir.

Mualliflarning asarlarni yaratish va ulardan foydalanishda ma’naviy va moddiy manfaatdorligini har tomonlama muhofaza etish ham qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu tamoyil mualliflik huquqiy munosabatlari qatnashchilarining huquq va burchlarini belgilovchi me’yorlardagina emas, balki subyektiv huquqlarni amalga oshirish kafolatlarida, muallif huquqlarini muhofaza etish bo‘yicha davlat organlari zimmasiga yuklangan majburiyatlarda, buzilgan muallif huquqlarining himoya qilinishini ta’minlovchi me’yorlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Mualliflik huquqi bo‘yicha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (27, 29, 42, 67-moddalar va boshq.), O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1041–1081-moddalar), “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun, “EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari to‘g‘risida”gi qonun, “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonuniy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bu borada, ayniqsa, Fuqarolik kodeksi muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik kodeksining bevosita mualliflik huquqi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlardan tashqari boshqa me'yorlari ham bu sohada tartibga soluvchi vazifalarni bajaradi. Masalan, fuqarolarning huquq layoqati mazmunini belgilovchi me'yorda fuqarolarning fan, adabiyot, san'at asarlariga muallif bo'lish huquqi (FK 18-m.), moddiy va ma'naviy zararlarni undirish bo'yicha qoidalari (FK 14, 1021-m.), intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mutlaq huquqlar haqidagi qoidalari (FK 97-m.) shular jumlasidandir.



Mualliflik huquqi obyekti bo'lishi uchun asar tugallangan bo'lishi shart emas.

Mualliflik huquqining vujudga kelishi uchun asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki biror rasmiyatchilikka rionda qilish talab etilmaydi.

Hosila asarlar, odatda, boshqa bir asar asosida yaratiladi. Hosila asarni yaratish uchun asos bo'lgan asar asosiy yoki birlamchi asar sifatida qaraladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani asosiy asar bo'lsa, "O'tgan kunlar" radiopostanovkasi yoki "O'tgan kunlar" badiiy filmi ssenariysi hosila asar hisoblanadi.

### 3-§. Muallifning shaxsiy nomulkiy va mulkiy tusdagi huquqlari. Mualliflik shartnomasi

Muallif o'zi yaratgan asarga nisbatan shaxsiy va nomulkiy huquqlarga ega. Muallifning mazkur huquqlari qonun yo'li bilan himoya qilinadi va unga daxl qilish mumkin emas.



Mualliflarning huquqlari o'z mazmuniga ko'ra, shaxsiy nomulkiy va mulkiy turdag'i huquqlarga bo'linadi.

## Asar muallifining shaxsiy nomulkiy huquqlari

**1**

asar muallifi deb e'tirof etilish huquqi (mualliflik huquqi);

**2**

asardan muallifning haqiqiy ismi-sharifi, taxallusini ko'rsatgan holda yoxud ismi-sharifini ko'rsatmasdan, ya'n'i imzosiz foydalanish yoki foydalanishga ruxsat berish huquqi (mualliflik ismi-sharifiga bo'lgan huquq);

**3**

asarni har qanday shaklda oshkor qilish yoki oshkor qilishga ruxsat berish huquqi (oshkor qilishga bo'lgan huquq), shu jumladan, chaqirib olish huquqi;

**4**

asarni, shu jumladan, uning nomini muallifning sha'ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday tarzda buzib ko'rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz etilishidan himoya qilish huquqi (muallif obro'sini himoya qilish huquqi).

Asar nusxalarini sotish, almashtirish, ijaraga berish yoki ular ishtirokida boshqa amallarni bajarish, shu jumladan, ularni import qilish asarni tarqatish hisoblanadi.

## Mualliflik shartnomasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

asardamuddatlarini foydalanish usullari (mazkur shartnoma asosida o'tkaziladigan konkret huquqlar); asardan foydalanishning har bir usuli uchun to'lanadigan haq miqdori va (yoki) to'lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, uni to'lash tartibi hamda

Mualliflik shartnomasi taraflar zarur deb topgan boshqa shartlarni ham nazarda tutishi mumkin. Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish huquqi qancha muddatga o'tkazilishi to'g'risida shart bo'lмаган taqdirda, shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 5 yil o'tganidan keyin, agar foydalanuvchi shartnoma bekor qilinguniga qadar kamida olti oy oldin bu haqda yozma ravishda ogohlantirilgan bo'lsa, shartnoma muallif tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Muallifning mulkiy huquqlari amal qilish muddatları FKning 1065-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga asosan, mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin 70 yil davomida amal qiladi, ushbu moddada va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko'rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin 70 yil davomida amal qiladi.

Muallifning vafotidan keyin birinchi marta e'lon qilingan asarga bo'lgan mualliflik huquqi asar e'lon qilinganidan keyin 70 yil davomida amal qiladi.

Mualliflik huquqi, mualliflik ismi-sharifiga bo'lgan huquq va muallif obro'sini himoya qilish huquqi muddatsiz muhofaza qilinadi.

Mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan mutlaq huquq sohibi o'z huquqlaridan barchani xabardor qilish uchun obyektning (asarning) har bir nusxasida aks ettiriladigan va quyidagi uch element (unsur)dan iborat mualliflik huquqi himoya belgisidan foydalanishi mumkin:

- aylana (doira) ichiga olingan lotincha "S" harfi;
- mualliflik mutlaq huquqlari sohibining nomi;
- asar birinchi marta e'lon qilingan yil.

Ushbu belgi xalqaro miqyosda, boshqa xorijiy davlatlarning ko'pchiligidagi ham qabul qilingan.

Mualliflik huquqlari kabi turdosh huquqlar ham o'z himoya belgilariga ega. Ijro yozuvini yaratgan shaxs va ijrochi o'z huquqlaridan xabardor qilishi uchun bunday

belidan foydalanishlari mumkin. Audioyozuv (ovoz yozib olingen gramplastinka, kompakdisk va h.k.) yoki videoyozuv (tasvir yozilgan videokassetalar)ning har bir nusxasida va (yoki) ular saqlanadigan g‘ilofda aks ettiriladigan bu belgi uch unsur (element)dan iborat:

aylanaga olingen “R” harfi;  
turdosh mutlaq huquqlar egasining ism-sharifi (nomi);  
yozuv birinchi marta e’lon qilingan yil.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish bo‘yicha umumiylar (FK 11-m.) va intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish usullarining (FK 1040-m.) barchasi turdosh huquqlarning himoya qilishda ham tatbiq etiladi.




### **Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar**

1. Intellektual mulk obyektlarining qanday turlari mavjud?
2. Asarning muallifi yoki hammuallifi kim?
3. Mualliflik huquqi qancha muddat davomida amal qiladi?
4. Mualliflik va turdosh huquqlarning himoya belgilarini bilasizmi?



v bob.

# VORISLIK HUQUQI



## 1-§. Vorislik tushunchasi va ahamiyati

Vorislik – mulk huquqini vujudga keltiruvchi usullardan biri hisoblanadi. Mulkdor mol-mulkining yuridik taqdirini belgilashga faqat o‘zi haqlidir. Chunki mulkdor mulk huquqining uchala elementining ham (mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish) sohibi hisoblanadi.

Mulkdor voris (vorislar)ni o‘zi tanlash, lozim bo‘lsa, merosdan mahrum etish vakolatiga ega. Bu o‘rinda mulkdor voris sifatida o‘zi istagan fuqaroni (farzandlari, qarindoshlari yoki yetti yot begona shaxsni), yuridik shaxsni (masalan, qariyalar yoki mehribonlik uyini) tanlashi yoxud mulkini davlatga (tuman hokimiyati balansiga) o‘tkazish imkoniyatiga egadir.

**Vorislik tushunchasi** – vafot etgan fuqaroga tegishli mol-mulkning boshqa shaxsga o‘tishi demakdir. Vorislik vafot etgan fuqaro (meros qoldiruvchi)ning mol-mulkiga boshqa shaxs (merosxo‘rlarning huquqiy vorisligi shartlari va tartibini tavsiflaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan, har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli.

Vorislik huquqi fuqarolarning mulkiy huquq va manfaatlarini qo‘riqlaydi. Qonun mulkdorning o‘z mulkiga nisbatan tasarruf etish huquqini hech qanday to‘siksiz nafaqat o‘zining hayotligida, shuningdek, vafot etgan taqdirida ham amalga oshirilishini kafolatlaydi. Shu bilan xususiy mulk huquqini mustahkamlash mulkning ko‘payishi va rivojlanishni ta’minlash yo‘li bilan merosxo‘rlarning boyishi va yashash sharoitlarini yaxshilanishiga ko‘maklashadi .

Vorislik huquqi deb, fuqaroning vafot etganidan so'ng mulkining boshqa shaxslarga (vorislarga) o'tkazilishida vujudga keladigan munosabatlarning tartibga soladigan huquqiy normalar yig'indisiga aytiladi.

Meros – meros qoldiruvchining boshqa shaxs (merosxo'r)larga qonunda belgilangan tartibda o'tadigan mulkiy huquq va majburiyatları majmuidir.

#### MEROS TARKIBI

Meros ochilgan paytda meroz qoldiruvchiga tegishli bol'gan, uning olimidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meroz tarkibiga kiradi.

Shaxsning hayotligida boshqa shaxslarga o'tishi mumkin bo'lgan uning har qanday huquq va majburiyatları meroz hisoblanadi va vorislik huquqi asosida merozxo'rlarga o'tadi.

## Yodda tuting !

Faqat meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bolgan huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kirmaydi.

Bular quyidagilardan iborat:

- yuridik shaxs hisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a'zolik, ularda ishtiroy etish huquqlari, agar qonun yoki shartnomada boshqa hol belgilangan bo'lmasa;
- hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun tovon undirish huquqi;
- aliment majburiyatları tufayli yuzaga kelgan huquqlar va majburiyatlar;
- mehnat va ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonunchilik asosida pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar olish huquqi;
- mulkiy huquqlar bilan bog'liq bo'limgagan shaxsiy nomulkiy huquqlari;

## Vorislik asoslari

FKda vorislikning asoslari ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, vorislik ikki usulda amalga oshiriladi.

Merosning ochilishi deganda, meros va vorislik huquqining paydo bo'llishini belgilab beruvchi yuridik faktning yuzaga kelishi tushuniladi.


## Merost ochilish tartibi, merosxo'rlar

Ma'lum bir hodisaning sodir bo'lishi vorislik huquqini vujudga keltiradi. Bunday hodisaga fuqaroning vafot etishi yoki sud qarori bilan fuqaroning vafot etgan deb e'lon qilinishi hisoblanadi. Demak, fuqaroning vafot etishi yoki fuqaroning vafot etgan deb e'lon qilinishi meros ochilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun merosning ochilishi ma'lum bir vaqtda vujudga keladi.

Merosning ochilish joyi meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi hisoblanadi.

### **YODDA SAQLANG!!!**

Agar meros qoldiruvchining oxirgi yashab turgan joyi noma'lum bo'lsa, meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk yoki uning asosiy qismi turgan joy, ko'chmas mulk bo'lmagan taqdirda esa ko'char mulkning asosiy qismi turgan joy meros ochilgan joy deb hisoblanadi.




Fuqaro o'limining fakti fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralari tomonidan berilgan fuqaroning vafot etgani to'g'risidagi guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Vorislik fuqarolik-huquqiy munosabat hisoblanib, meros qoldiruvchi va merosxo'rlar o'rtasida vujudga keladi. Meros qoldiruvchi meros mulkning mulkdori bo'lsa, merosxo'rlar doirasi esa meros qoldiruvchiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etishi mumkin.

**Merosxo'rlar** - meros ochilgan paytda hayot bo'lgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo'lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug'ilgan bolalari vasiyat va qonun bo'yicha merosxo'r bo'lislari mumkin.

Meros ochilgan paytda tuzilib bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lislari mumkin.



### **Noloyiq merosxo'rlarni merosdan chetlatish**

Qonun meros qoldiruvchiga vorislarni merosdan chetlatish huquqini beradi. Merosxo'rlarni merosdan chetlashtirish asoslari Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan. Bu asoslar quyidagilardan iborat:

- 1) meros qoldiruvchini yoki ehtimol tutilgan merosxo'rlardan birortasini qasddan o'ldirgan yoki ularning hayotiga suiqasd qilgan shaxslar vasiyat bo'yicha

ham, qonun bo'yicha ham meros olish huquqiga ega emaslar. Vasiyat qiluvchi o'z hayotiga suiqasd qilinganidan keyin vasiyatnoma bergan shaxslar bundan mustasno;

2) meros qoldiruvchi o'zining oxirgi xohish-irodasini amalga oshirishiga qasddan to'sqinlik qilgan va shu orqali o'zlarining yoki o'zlariga yaqin shaxslarning vorislikka chaqirilishiga yoxud merosning o'zlariga yoki o'zlariga yaqin shaxslarga tegishli ulushi ko'paytirilishiga imkon yaratgan shaxslar vasiyatnoma bo'yicha ham, qonun bo'yicha ham meros olish huquqiga ega emaslar;

3) bolalariga nisbatan ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan va meros ochilgan paytda bu huquqlari tiklanmagan ota-onalar ana shu bolalardan qolgan mulkka voris bo'lish huquqiga ega emaslar, shuningdek, meros qoldiruvchiga ta'minlab turish yuzasidan qonunga ko'ra, zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlagan ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va voyaga yetgan bolalar (farzandlikka olinganlar) qonun bo'yicha vorislik qilish huquqiga ega emaslar.

Noloyiq merosxo'rlarni vorislikdan chetlatish uchun asos bo'ladigan holatlar bunday chetlatish keltirib chiqaradigan vorislik bilan bog'liq mulkiy oqibatlarga daxldor shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan belgilanadi.

## **2-§. Vasiyat va qonun bo'yicha vorislik**

Vasiyat bo'yicha vorislik deb, fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish haqidagi xohish-irodasiga aytildi.

Fuqaro o'zining barcha mol-mulkini yoki uning muayyan qismini qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiradigan, shuningdek, kirmaydigan bir yoki bir necha shaxsga, shu bilan birga, yuridik shaxslarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga vasiyat qilishi mumkin.

Vasiyatnoma shaxsan mulkdorning o'zi tomonidan tuzilishi lozim. Vasiyatnomaning vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Vasiyat bo'yicha merosxo'rlar doirasi

O'zbekiston Respublikasi FKning 18-moddasiga asosan, fuqarolar mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari, mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari mumkin. Demak, har bir fuqaro o'ziga tegishli bo'lgan xususiy mulkini, mulkka bo'lgan huquq va majburiyatlarini xohlagan jismoniy va yuridik shaxslarga meros huquqi asosida vasiyat qilib qoldirishga haqli.

Qonun bo'yicha vorislik deb, mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan xususiy mulkini (yoki mulkiy huquqini) o'zi vafot etgandan so'ng uning ma'lum bir shaxs tomonidan tasarruf qilinishini belgilamagan (vasiyatnoma qoldirmagan) hollarda qonunda belgilangan vorislariga o'tishini anglatadi.

Qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalarida aniq qilib belgilab qo'yilgan. Fuqarolik kodeksida qonun bo'yicha merosxo'rlarning darajasiga ko'ra navbati keltirilgan. Ular belgilab qo'yilgan tartibda navbatlar bilan vorislikka chaqiriladi.

## QONUN BO'YICHA VORISLIKNING VUJUDGA KELISH ASOSLARI



Qonun bo'yicha merosxo'rlar vorislikka Fuqarolik kodeksining 1135–1141-moddalarida nazarda tutilgan navbat tartibida chaqiriladilar.

### **MEROS QOLDIRUVCHINING BIRINCHI NAVBATDAGI VORISLARI:**



Ushbu merosxo'rlar teng ulushlarda qonun bo'yicha merosxo'rlar hisoblanadi. Birinchi navbatdagi vorislardan hech biri bo'lmasa yoki ular merosdan voz kechsa, keyingi navbatdagi vorislar merosga chaqiriladilar.

### **MEROS QOLDIRUVCHINING IKKINCHI NAVBATDAGI VORISLARI:**

Meros qoldiruvchining tugishgan hamda  
ona (ota) bir ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-  
singillari, shuningdek, uning ham ota, ham ona  
tarafdan bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun  
bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega  
bo'ladiilar.

Ikkinchi navbatdagi vorislar birinchi navbatdagi merosxo'rlar mavjud bo'lмаган тақдирда чагирiladi.



Uchinchi navbatdagi vorislar qachonki birinchi va ikkinchi navbatdagi vorislar mavjud bo'lмаган тақдирда qонун bo'yicha vorislikka чагирiladilar.



Meros qoldiruvchining oltinchi darajageacha (oltinchi daraja ham shunga kiradi) bolgan boshqa qarindoshlari qонун bo'yicha to'rtinchı navbatdagi vorislik huquqiga ega boladilar, bunda yaqinroq qarindoshlar uzoqroq qarindoshlarga nisbatan meros olishda imtiyozli huquqqa ega boladilar.

Vorislikka чагирiladigan to'rtinchı navbatdagi vorislar teng ulushlarda meros oladilar.

Agar birinchi, ikkinchi va uchinchi navbatdagi vorislar mavjud bo'lmasa, meros qoldiruvchining oldingi navbatlardagi vorislarga kirmaydigan to'rtinchi, beshinchi va oltinchi darajali boshqa qarindoshlari qонун bo'yicha meros olish huquqiga ega bo'ladi.



Meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari, agar ular Fuqarolik kodeksning [1141-moddasi](#) asosida meros olmasalar, qонун bo'yicha beshinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega boladilar.

Qonun bo'yicha boshqa vorislar bo'lмаган holatda meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari beshinchi navbatdagi vorislar sifatida mustaqil tarzda meros oladilar. Meros qoldiruvchining boqimida bo'lgan shaxs deganda, meros qoldiruvchining to'liq qaramog'ida bo'lgan yoki meros qoldiruvchidan olib turgan yordami uning uchun asosiy va doimiy daromad manbai bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarni tushunish kerak. Bu o'rinda agar ko'rsatilgan shaxslar meros qoldiruvchining vafotiga qadar kamida bir yil uning qaramog'ida bo'lgan bo'lsa, meros qoldiruvchining boqimlari deb e'tirof etiladi. Ayni vaqtida ular meros ochilgunga qadar kamida bir yil davomida mehnatga qobiliyatsiz bo'lishlari shart emas, ularning meros ochilgan kunda mehnatga qobiliyatsiz ekanligi yetarli hisoblanadi.

### **3-§. Vasiyatnama tushunchasi, belgilari, uni tuzish, bekor qilish va o'zgartirish tartibi**

Vasiyat – bu shaxs vafot etgan taqdirda o'z mulkiga nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan shaklda amalga oshirilgan farmoyish hisoblanadi.

**Fuqaroning o'ziga tegishli  
mol-mulkni yoki bu mol-mulkka  
nisbatan huquqini vafot etgan  
taqdirda tasarruf etish  
xususidagi xohish-irodasi  
vasiyat deb e'tirof qilinadi.  
Vasiyatnama shaxsan tuzilishi  
lozim. Vasiyatnomaning vakil  
orqali tuzilishiga  
yo'l qo'yilmaydi.**

Fuqaro o'zining barcha mol-mulkini yoki uning muayyan qismini qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiradigan, shuningdek, kirmaydigan bir yoki bir necha shaxsga, shu bilan birga, yuridik shaxslarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga vasiyat qilishi mumkin.

Vasiyatnama yozilgan joyi va vaqtি ko'rsatilgan holda yozma shaklda tuziladi.

Vasiyatning  
quyidagi belgilari  
mavjud:

01

*Vasiyatnomma bo'yicha huquqiy oqibat ikki tomonning – vasiyat qoldiruvchi va merosxo'rlarning xohish-irodasi amalga oshirilgan holda vujudga keladi*

02

*Vasiyatnomma, albatta, notarius yoki boshqa qonun bilan huquq berilgan mansabdar shaxslar tomenidan guvohlanitirilishi shart*

03

*Vasiyatnomma faqat meros ochilgandan keyingina amal qila boshlaydi*

04

*Vasiyatnomma bir tomonlama bitim bo'lib, faqat meros qoldiruvchining erki bilan tuziladi, merosxo'rning erki bilan olinadi*

05

*Kimga vasiyat qilish meros qoldiruvchining mutlaq huquqi hisoblanadi*

06

*Vasiyatnomada vasiyat bo'yicha huquq oluvchilarga faqat qonuniy talab va shartlarni qo'yishi mumkin*

07

*Vasiyatnomani xohlagan paytda va izoh bermay o'zgartirish, bekor qilish mumkin*

08

*Vasiyatnomma qoida tariqasida shaxsan yozilib, imzo qo'yilishi kerak*

09

*Hujjat, albatta, vasiyat qoldiruvchi tomenidan shaxsan tuzilgan bo'lishi kerak, uni vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi*

10

*Vasiyatnomma yozma shaklda tuzilgan hujjat*

Yozma shakldagi vasiyatnomaga vasiyat qiluvchining o‘z qo‘li bilan o’zi tomonidan imzolanishi lozim.



Agar vasiyat qiluvchi jismoniy nuqsonlari, kasalligi yoki savodsizligi tufayli vasiyatnomani o‘z qo‘li bilan imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan notarius yoki qonunga muvofiq vasiyatnomani tasdiqlaydigan boshqa shaxs hozir bo‘lganida vasiyat qiluvchi o‘z qo‘li bilan imzolay olmaganligining sabablari ko‘rsatilgan holda vasiyatnomaga boshqa shaxs imzo qo‘yishi mumkin.



“Notariat to‘g‘risida”gi qonunga binoan, notariuslar o‘z nomiga va o‘z nomidan, xotini (eri) nomiga hamda uning nomidan, xotinining (erining) va o‘zining qarindoshurug‘lari (ota-onasi, bolalari, nabiralari, tug‘ishgan aka-uka va opa-singillari), ular bilan vasiylik va homiylik tufayli bog‘langan shaxslar nomiga hamda ularning nomidan, shuningdek, mazkur davlat notariat idorasining xodimlari yoki xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariusning qo‘l ostida ishlovchi shaxslar nomiga va ularning nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

Notarial tasdiqlangan vasiyat qiluvchi tomonidan yozilgan yoki uning so‘zlaridan notarius tomonidan yozib olingan bo‘lishi lozim. Vasiyatnomani vasiyat qiluvchi so‘zlaridan notarius tomonidan yozib olish paytida umumiyligida qabul qilingan texnika vositalaridan (yozuv mashinkasi, shaxsiy kompyuter va hokazolardan) foydalanimli mumkin. Vasiyat qiluvchining so‘zlaridan notarius tomonidan yozib olingan vasiyatnomani imzolashdan oldin vasiyat qiluvchi uning matnini notarius oldida to‘liq o‘qib chiqishi lozim. Agar vasiyat qiluvchi jismoniy nuqsonlari, kasalligi yoki savodsizligi tufayli vasiyatnomani shaxsan o‘qiy olmasa, vasiyatnomaning matni vasiyat qiluvchiga notarius tomonidan o‘qib eshittiriladi, bu haqda vasiyatnomada tegishlicha qayd etilib, vasiyat qiluvchi vasiyatnomani shaxsan o‘qiy olmaganligining sabablari ko‘rsatiladi. Vasiyat qiluvchining xohishiga ko‘ra, vasiyatnomaga notarius tomonidan uning mazmuni bilan tanishib chiqilmasdan (maxfiy vasiyatnomaga) tasdiqlanadi.

Maxfiy vasiyatnomani vasiyat qiluvchi haqiqiy sanalmaslik xavfi ostida o‘z qo‘li bilan yozishi va imzolashi lozim. Vasiyatnomma ikki guvoh va notarius ishtirokida xatjildga solinib, xatjild yelimlanishi lozim, guvohlar o‘z familiyalari, ismlari, otalarining ismini va doimiy turar joylarini ko‘rsatgan holda xatjildga imzo qo‘yadilar. Guvohlar imzo qo‘ygan xatjild guvohlar va notariusning ishtirokida boshqa xatjildga solinadi va bu xatjild ham yelimlanadi, unga notarius tasdiqlash ustxatini yozib qo‘yadi.

### **Notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar**

Notarial idoralarida tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda, qonunda nazarda tutilgan tartibda belgilangan mansabdor shaxslar tomonidan vasiyatnomaning tasdiqlanishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunday vasiyatnomalar notarial tartibda tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtiriladi. “Notariat to‘g‘risida”gi qonunning 27-moddasiga asosan, mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalardan bitta nusxasi vasiyat qiluvchi doimiy yashaydigan joydagi davlat notarial idorasiga saqlash uchun yuborilishi shart. FKning 1126-moddasasi va “Notariat to‘g‘risida”gi qonunning 26-moddasida notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar haqida ko‘rsatib o‘tilgan.

## Notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar

- 1** Ozodlikdan mahrum qilish joylarida yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar
- 2** Harbiy xizmatchilarning, notarius bo'limgan yerlarda joylashgan harbiy qismlarda esa, bu qismlarda ishlayotgan harbiy bo'limgan fuqarolar, ularning oila a'zolari va harbiy xizmatchilarning oila a'zolarining ham harbiy qismlarning komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari
- 3** O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i ostida suzib yurgan kemalarda safarda bo'lgan fuqarolarning shu kemalarning kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari
- 4** Qidiruv ekspeditsiyalari yoki shunga o'xshash boshqa ekspeditsiyalarda bo'lgan fuqarolarning ana shu ekspeditsiya boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar
- 5** Kasalxonalar, gospitallar, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki qariyalar va nogironlar uylarida yashab turgan fuqarolarning ana shu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh vrachlari, ularning davolash ishlari bo'yicha o'rinnbosarlari yoki navbatchi vrachlar, shuningdek, gospitallarning boshliqlari, qariyalar va nogironlar uylarining direktorlari yoki bosh vrachlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari

### Vasiyatnomani bekor qilish va o'zgartirish tartibi

Vasiyat qoldiruvchi shaxsan o'zi, o'z erki bilan merosxo'rga o'zining xususiy mol-mulkiga nisbatan ma'lum bir huquqni belgilab beradi. Vorisni merosdan mahrum qilish uchun sababini tushuntirishga meros qoldiruvchi majbur emasligi nazarda tutiladi.

**Meros qoldiruvchi, vasiyat qiluvchi istalgan vaqtida o'z vasiyatnomasini to'laligicha bekor qilishga yoxud unda mavjud bo'lgan ayrim vasiyat farmoyishlarini yangi vasiyatnomaga tuzish orqali bekor qilishga, o'zgartirishga yoki to'ldirishga haqli.**

**Merosni egallash.**

**Merosxo'r quyidagi hollarda meros huquqiga ega bo'ladi:**

**01**

**Merosdan voz kechmasa**

**02**

**Vorislik huquqidan mahrum etilmasa**

**03**

**Merosxo'r etib tayinlash to'g'risidagi vasiyat farmoyishi haqiqiy emas deb topilishi natijasida meros olish huquqini yo'qotmasa**

Merosxo'rlar merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish haqidagi ariza bilan notariusga murojaat etadi. Ushbu ariza ikki vazifani bajaradi: u merosxo'rmning merosni qabul qilishga bo'lgan xohishini tasdiqlaydi hamda ayni vaqtida merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomani berish uchun asos bo'ladi.

#### **Egasiz qolgan mol-mulk**

FKning 1157-moddasiga ko'ra, agar qonun bo'yicha ham, vasiyatnomaga bo'yicha ham merosxo'rlar bo'lmasa, mol-mulk egasiz deb hisoblanadi. Bu merosxo'rlar umuman mavjud emasligini, ular meros ochilgunga qadar yoki meros qoldiruvchi

bilan bir vaqtida vafot etganligini anglatadi, bunda vorisdan keyingi voris, taqdim qilish huquqi bo'yicha merosxo'r, meros qoldiruvchining tirikligida homila bo'lib, tirik tug'ilgan merosxo'r bo'lmasligi lozim.

Bundan tashqari, qonun bo'yicha merosxo'rlarning barchasi merosdan mahrum qilinganda, vasiyatnama bo'yicha merosxo'rlar mavjud bo'lmasganda, ulardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo'lmasganda yoki merosni qabul qilmaganda meros mol-mulk egasiz deb e'tirof etiladi. Mol-mulkni egasiz deb, uni to'liq yoki qisman egasiz deb hisoblash haqidagi nizolar sud tomonidan hal qilinishi lozim. Birinchi navbatda, bunday nizolar merosga talabgorlik qiladigan shaxslar va davlat manfaatlarini ko'zlab merosning egasizligini yoqlaydigan tegishli davlat organlari o'rtasida yuzaga keladi.



### Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Meros tarkibiga nimalar kiradi?
2. Qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislarga kimlar kiradi?
3. Qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislarga kimlar kiradi?
4. Qonun bo'yicha uchinchi navbatdagi vorislarga kimlar kiradi?
5. Merosdan voz kechish huquqini tushuntirib bering.
6. Egasiz qolgan mol-mulk kimga o'tadi?



IV bob

# OILA HUQUQI



## 1-§. Oila huquqi tushunchasi, prinsiplari, tizimi va manbalari

Oila huquqi O‘zbekiston Respublikasining mustaqil huquq sohalaridan biri hisoblanadi.



“

**Oila huquqi** – bu er-xotin, qarindoshlar, ota-onalar (farzandlikka oluvchilar), farzandlar (farzandlikka olinganlar) o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy va ular bilan bog‘liq mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari yig‘indisidir.

”

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasini 1994-yildan e’tiboran har yili 15-may kunini “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga qaror qilganligi ham dunyo miqyosida jamiyatning asosi sifatida oilaning naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi.

**Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasidan ko‘chirma:**

1. Balog‘at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo‘yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o‘tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o‘tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalanadi.
2. Nikohdan o‘tayotgan har ikki tomonning erkin va to‘liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin.
3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi hamda jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida ta’kidlanganidek, “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”.

Oilaga milliy qonunchiligidan huquqiy ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, mazmun-mohiyatiga ko‘ra, qoida tariqasida birgalikda yashovchi va nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish va boshqa munosabatlardan kelib chiquvchi o‘zaro huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar ittifoqidir.

Oila er va xotinning nikohdan o‘tish to‘g‘risida FHDYO organiga birgalikda bergen arizasi bo‘yicha nikoh qayd qilingan kundan boshlab vujudga keladi.

Oila huquqi nafaqat erkak va ayol o‘rtasida nikoh tuzish tartibi va shartlarini, balki oila qurish, er-xotinning mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy hamda mulkiy xarakterda bo‘lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatları, nikohning tugatilishi, uni haqiqiy emas deb topilishi oqibatlari, asoslari va tartibi, qon-qarindoshlik va farzandlarning nasl-nasabini belgilash qoidalari, ota-onalar hamda farzandlarning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq va majburiyatları, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik belgilash qoidalari kabi boshqa bir qator munosabatlarni ham tartibga soladi.

### **Oilaviy huquqiy munosabatlar tushunchasi va turlari**

Oilaviy huquqiy munosabatlar aksariyat hollarda axloqiy normalar bilan ham tartibga solinadi.

Oilaviy huquqiy munosabatlar davomli huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

#### **Oila huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar**

**1**

Oila a'zolari  
o'rtasidagi shaxsiy  
nomulkiy  
munosabatlar

**2**

Oila a'zolari  
o'rtasidagi  
mulkiy  
munosabatlar

**3**

Oila qonunchiligidida  
nazarda tutilgan hollarda  
qarindoshlar va boshqa  
oila a'zolari o'rtasidagi  
munosabatlar

Shaxsiy munosabatlar shaxsning o‘zi bilan bog‘liq bo‘ladi va uning xohishi bilan amalgalash oshiriladi. Masalan, nikohlanish va uning asosida oila qurish, qiz bilan yigit nikohga kirayotganida familiya tanlash, turmush davrida esa farzandga ism qo‘yish, kasb, mashg‘ulot va turar joy tanlash huquqlari, shuningdek, bolalarni farzandlikka olish, vasiylik va homiylik masalalari yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlardan iborat. Bu sohadagi qonunlar oilaviy munosabatlarda er-xotinning huquqiy tengligi, bolalarni to‘g‘ri tarbiyalash, oilada to‘g‘ri sharoitni yaratish kabilarni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mulkiy munosabatlar esa er-xotinning shaxsiy va umumiyligining mulk huquqidani, aliment majburiyatlaridan kelib chiqadigan, ota-onalar bilan bolalar, shuningdek, boshqa qarindosh-urug‘larning bir-biriga moddiy ta’midot berish majburiyatlaridan, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik masalalaridan kelib chiqadigan mulkiy xarakterga ega bo‘lgan munosabatlardan iborat.

Oila huquqining vazifalari Oila kodeksining 1-moddasida belgilangan bo‘lib, oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha

a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.


### **Mamlakatimizda oilaning vujudga kelishiga quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:**

- 1) erkak va ayolning o'zaro roziligi va teng huquqliligi asosida vujudga kelgan ittifoqi (nikoh);
- 2) er va xotindan birining ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani (10 yoshga to'lmaganni) o'z tarbiyasiga farzand qilib olishi;
- 3) nikohga kirishmagan yolg'iz onadan bolaning tug'ilishi.

### **Oila huquqining prinsiplari**

Oila huquqining prinsiplari deganda, shu huquq sohasining mazmun-mohiyatini, uning o'ziga xos qirralarini ochib beradigan, huquq normalarida qonuniy tarzda mustahkamlangan, boshlang'ich rahbariy qoidalarni tushunish kerak. Bu rahbariy qoidalari oila huquqiy munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda o'ta muhim ahamiyatga ega.

## **OILA HUQUQINING ASOSIY PRINSIPLARI**



**1. Oilaning davlat va jamiyat muhofazasida bo‘lishi prinsipi** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining oilaga bag‘ishlangan XIV bobi 63-moddasida o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.

**2. Oilada barcha masalalarni hal qilishda er va xotinning teng huquqliligi prinsipi** Oila kodeksining 2-moddasida belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida teng ekanligi borasidagi Konstitutsianing 18-moddasiga asoslanadi. Oiladagi barcha ishlarni hal qilishda er va xotin teng huquqlidirlar, oilada ayrim hollarda ayollarga homiladorlik va bola tug‘ilgandan keyin erlariga moddiy ta’midot berib turish va bola tarbiyasi bo‘yicha yordam berish burchi qo‘srimcha ravishda qo‘llanadi.

**3. Oila munosabatlarida ishtirok etuvchilarining bir-birlarini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro bir-birlariga g‘amxo‘rlik qilish prinsipi** bu oila munosabatlarining mazmuniga bog‘liq bo‘lib, er va xotin, ota va ona, bobo va buvi, amaki va tog‘a, amma va xola, aka va uka, opa va singillar, farzandlikka oluvchi, shuningdek, nabiralar o‘rtasidagi munosabatlar, asosan, axloq normalari bilan tartibga solinadi. Bular bir-birlarini beg‘araz qo‘llab-quvvatlabgina qolmasdan, bir-birlariga g‘amxo‘rlik qilishlari ham kerak.

**4. Onalik, otalik va bolalikni himoya qilish prinsipiga** asosan, davlat faqat onalikni emas, balki otalik va bolalikni ham himoya qiladi. Onalikni himoya qilishdan asosiy maqsad – ayolning avlodlar davomiyligini ta’minalash, jamiyat va davlatning ravnaqi va kelajagi uchun hal qiluvchi kuchni tug‘ib, tarbiyalashdagi rolini oshirishdir. Ona bo‘lishdek buyuk ne’mat faqat ayollarga berilgan. Oilaning tinchlik va osoyishtaligi, bolalar tarbiyasi onaga qanchalik bog‘liq bo‘lsa, otaga ham shunchalik bog‘liq. Oilada ota bo‘lish yigit kishi uchun ham katta baxt bo‘lib, ayni vaqtida unga yuksak mas’uliyat yuklaydi. Er xotiniga homiladorlik vaqtida doimo g‘amxo‘rlik qilishi, bola tug‘ilishidan keyin uni parvarishlashda yordam berishi va moddiy ne’matlar bilan ta’minlab turishi lozim. Davlat bolalikni ham himoya qiladi, chunki oilada tug‘ilgan bola ota-onada uchun ham buyuk ne’mat. Bolalarining quvonchi oila binosining poydevorini yanada mustahkamlaydi, ota-onada o‘rtasidagi mehr-muhabbatni yanada oshiradi.

**5. Nikohdan o‘tishda tenglik va ixtiyoriylik prinsipiga** ko‘ra, nikoh xohlovchilarining teng huquqliligi asosida va ixtiyoriy ravishda tuziladi. Bu qoida Oila kodeksining 14-moddasida belgilangan. Unda ko‘rsatilishicha, nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikohlanuvchilar bu borada o‘zlarining roziligini bildirishlari kerak, chunki nikoh tuzishda majburlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

**6. Yakka nikohlik (monogamiya) prinsipi.** Mamlakatimizda oila yakka nikohlik prinsipiga asoslanadi, qo‘sish nikohlikka yo‘l qo‘yilmaydi. Yakka nikohlik asosida erkaklar bilan ayollarning bir-birlari bilan bog‘liqligi va ular o‘rtasidagi sevgi va muhabbat yotadi.

**7. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning tengligi prinsipi.** Ushbu prinsipga asosan, O‘zbekistonda barcha fuqarolar, o‘zining millati, irqi, dinga munosabati, kelib chiqishidan qat’i nazar teng huquqlidirlar. Ularga tegishli bo‘lgan huquqlarni, shu jumladan, nikohga o‘tish huquqini cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Yigit yoki qiz millati, irqi, dinga munosabatidan qat’i nazar xohlagan qizga uylanishi, qiz esa turmushga chiqishi mumkin.

**8. Oilada bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash prinsipi.** O‘zbekiston 1991-yilda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan paytdan hozirgi kunga qadar davlat jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilalarga g‘amxo‘rlik qilibgina qolmay, bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash masalasiga ham katta e’tibor bilan qarab kelmoqda.

Yolg‘iz yashab o‘tgan buyuk odamlar, oddiy oilaviy baxtga erishganlarga havas qilishgan. Mashhur rus yozuvchisi Turgenev: “Meni o‘ylovchi, qutlovchi g‘amxo‘r ayol bo‘lsa edi, butun talant va kitoblarimdan ham voz kechardim”, degan ekan.

Har bir oila, har bir inson tinch-xotirjam va farovon yashasa, davlat ham obod, boy bo‘ladi, gullab-yashnaydi.

### Oila huquqining tizimi va manbalari

Oila huquqining tizimi deganda, shu huquq sohasiga tegishli bo‘lgan barcha huquqiy normalarning ketma-ketligiga qarab ma’lum bir tartibda joylashtirilganligini tushunish kerak.



**Umumiy qismda** oila huquqining maxsus qismiga oid barcha huquq institutlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan normalar o‘z ifodasini topgan. Masalan, Oila huquqi tushunchasi, predmeti, vazifalari, prinsiplari, manbalari, oila sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, oila huquqining subyektlari, boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi kabi tushunchalar oila huquqining umumiy qismida o‘rganiladi. Shu bilan birga, ushbu huquq sohasiga tegishli bo‘lgan normalarni amalga oshirish, oilaviy majburiyatlarni bajarish shartlari, oilaga oid huquqlarni himoya qilish tartibi va muddatlari ham umumiy qismga tegishlidir.

**Oila huquqining maxsus qismi** o‘z ichiga bir necha mustaqil institutlarni qamrab olib, ularning har biri, nikoh va oila bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning

ma'lum bir turini tartibga soladi.

Oila huquqining maxsus qismida nikoh bilan bog'liq masalalar, er va xotinning huquq va majburiyatlari, ota-onva bolalarning huquq va majburiyatlari, ota-onva qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash, ularni joylashtirish, farzandlikka olish kabi masalalar o'rganiladi.

### **Oila huquqining manbalari**

Har bir mustaqil huquq sohasi kabi oila huquqi ham o'zining manbalariga ega. Oila huquqining asosiy manbasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Asosiy qonunning XIV bobi oilaga bag'ishlangan.

Asosiy Qonunimizdan tashqari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Uy-joy kodeksi va tegishli bo'lishiga qarab Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa qonun hujjatlari oila huquqining manbasi bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilar oila huquqining umumiyligi manbalari hisoblanadi. Umumiyligi manbalardan tashqari, oila huquqi o'zining maxsus manbasiga ham ega. Uning maxsus manbaini O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi tashkil qiladi. Ushbu kodeks O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan va 1998-yil 1-sentabrdan e'tiboran kuchga kirgan. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining qabul qilinishi bilan oila munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, shuningdek, yangi Fuqarolik kodeksi bilan muvofiqlashtirildi. Ushbu kodeks O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi BMT Konvensiyasi va boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan qoidalar bilan boyitildi. Oila kodeksining qoidalari O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan yoki ratifikatsiya qilgan xalqaro bitim va konvensiyalarni hisobga olgan holda ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-iyundagi "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3785-son qaroriga muvofiq, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari to'g'risidagi nizom" qabul qilindi. Mazkur Nizom fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari (FHDYO) faoliyatining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatları, faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari tasdiqlash to'g'risida"gi 387-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qaroriga 1-ilova "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Nizom, Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida Nizom ham asosiy manbalardan hisoblanadi.

## 2-§. Nikoh tushunchasi, uni tuzish va bekor qilish tartibi. Oila a'zolarining huquq va majburiyatlari

Nikoh so‘zining lug‘aviy ma’nosi “qo‘shilish”, “yaqinlashish” ma’nolarini anglatadi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf fikrlari bo‘yicha “Nikoh bahrlanish ekanligini hosil qiluvchi bog‘lanishdir” .

Nikoh – halollik, nikohsiz qo‘shilish esa haromlik belgisi. U huquq tilida oilani vujudga keltiradi va uni qonunlashtiradigan alohida turdagи xususiy shartnomani anglatadi. Nikoh masalasiga Islom dinida ham nihoyatda katta e’tibor berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq, nikoh davlat va jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, shuningdek, er bilan xotin va bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlari hamda manfaatlarini muhofaza etish maqsadida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd etiladi. FHDYO organlarida qayd etish oilaning vujudga kelganligini isbotlovchi bordan-bir dalil hisoblanadi.

Oila qurishni emas, balki boshqa maqsadni ko‘zlab, masalan, fuqarolikni olish yoki doimiy ro‘yxatga kirish maqsadida ikkinchi tomonga pul berib nikohga o‘tgan bo‘lsa, bunday nikoh soxta nikoh hisoblanadi. Bunday nikoh er va xotin hamda oilaga xos bo‘lgan huquq hamda burchlarni vujudga keltirmaydi va tuzilgan paytdan haqiqiy hisoblanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida nikoh tuzish tartibi Oila kodeksining 13-moddasida belgilangan. Ushbu modda talabiga ko‘ra, nikoh tuzish nikohlanuvchilarining FHDYO organiga oila qurish maqsadida birgalikda ariza bergenlaridan so‘ng bir oy o‘tgach, nikoh shaxsan ularning ishtirokida qayd etiladi. Uzrli sabablar bo‘lganda, FHDYO organi mudiri yoki mudirasi bir oy o‘tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin. Quyidagilar uzrli sabab hisoblanib, FHDYO organlari tomonidan bir oylik muddatni qisqartirishga asos bo‘lishi mumkin:

- ariza beruvchilar uzoq vaqt birga yashab kelgan bo‘lsalar;
- ariza bergenlardan biri uzoq muddatga chet elga yoki kelib-ketish qiyin bo‘lgan joyga yo‘llanma bilan ketayotgan bo‘lsa;
- kelin-kuyovning yaqin qarindoshlaridan biri og‘ir kasal bo‘lsa;
- nikohni qayd ettirish uchun ariza bergen kuyov harbiy xizmatga chaqirilgan yoki boshqa uzrli sabablar bo‘lsa.

Yuqoridagi uzrli sabablar ro‘yxati oila qonunchiligidagi qat’iy qilib cheklanmagan. Qanday sabablarni uzrli deb hisoblash huquqi qonun bo‘yicha FHDYO bo‘limining mudiriga yoki mudirasiga berilgan. Buning uchun mansabdor shaxs uzrli sabab bo‘ladigan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

Alovida hollar (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da esa nikoh ariza berilgan kunning o‘zida tuzilishi mumkin. Ko‘rsatib o‘tilgan hollardan tashqari, nikohni bir oy o‘tmasdan rasmiylashtirish chegarasi aniq qilib ko‘rsatilmagan. Chunki boshqa sabablar ham nikohni bir oy o‘tmasdan rasmiylashtirish uchun asos bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda ham nikohni ariza

berilgan kunning o‘zida darhol tuzilishi zarurligini iltimos qilish yoki qilmaslik bo‘lajak er-xotinning xohishiga bog‘liq. Ular yuz bergan vaziyatni hisobga olgan holda, nikohni ro‘yxatdan o‘tkazish muddatini qisqartirish haqida ham iltimos qilishlari mumkin.

Nikohni qayd etish nikohlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi FHDYO organlari tomonidan FHDYO binosida amalga oshiriladi. Alovida hollarda FHDYO organlari tomonidan nikohni qayd etish kasalxona yoki uyda ham amalga oshirilishi mumkin.

Amaldagi oila qonunchiligiga muvofiq, nikohlanuvchilardan biri ilgari nikohda turgan bo‘lsa, nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmasligi sababli FHDYO organi ariza qabul qila turib nikohlanuvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘yicha ularning qonuniy nikohda bo‘lgan-bo‘lmanligini tekshirib ko‘rishi lozim. FHDYO organi tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish davomida ularning bira qonuniy nikohda bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin sud tomonidan qonuniy tartibda ajrashgan bo‘lsa, ilgari nikohda bo‘lgan shaxs FHDYO organiga avvalgi nikohning tugatilganligi to‘g‘risida yuridik hujjat taqdim etishi lozim. Bu nikohdan ajratilganligi to‘g‘risida sudning qarori, er-xotindan birining vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma yoxud nikohni haqiqiy emas deb topgan sudning hal qiluv qarori bo‘lishi mumkin.

Nikohlanuvchilarning istaklariga binoan, nikoh ularning qarindoshlari, tanishlari ishtiroki (guvohligi)da qayd etiladi. Nikohni qayd etishda guvohlar soni ikki kishidan kam bo‘imasligi oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarda ko‘rsatilgan.

Nikoh faqat nikohlanuvchilarning ishtirokida qayd etiladi, uning ishonch qog‘ozi yoki vakil orqali qayd etilishiga ruxsat berilmaydi, ya’ni yo‘l qo‘yilmaydi.

Oila kodeksida va boshqa amaldagi qonunlarimizda nikoh yoshi 18 yosh etib belgilangan, uzrli sabablar bo‘lgan, alohidahollardan nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra, nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan 1 yilga kamaytirishi mumkin (OK 15-m.).

Oila kodeksining 16-moddasiga binoan, quyidagi holatlar nikoh tuzishga to‘sinqinlik qiladi:

- nikohlanuvchilardan biri ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan bo‘lsa;
- nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida hamda farzandlikka olinganlar bilan farzandlikka oluvchilar o‘rtasida;
- loaqlal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida.

Bular nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar hisoblanadi. Bunday holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasiga hamda Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagি 365-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi nizomiga asosan, davlat sog‘lijni saqlash tizimi muassasalari tomonidan nikohlanuvchilar bepul asosda tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasiga ko‘ra, nikohlanuvchi shaxslar 50 yoshdan oshgan bo‘lsa, shuningdek, Oila kodeksining 13-moddasi beshinchi qismida ko‘rsatilgan alohida (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshq.) hollar mavjud bo‘lganda tibbiy ko‘rikdan o‘z roziligi bilan o‘tkaziladi. Nikohlanuvchi shaxslar o‘zlarining doimiy yoki vaqtinchalik yashayotgan joyidagi tibbiyot muassasalari tomonidan o‘tkaziladi. Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun berilgan yo‘llanmalar FHDYO organlarida nikoh tuzish to‘g‘risidagi arizalarni ro‘yxatdan o‘tkazish daftarida qayd etiladi.

Oila kodeksining 37-moddasida nikohning tugatilishi asoslari ko‘rsatilgan. *Ushbu moddaning mazmunida bayon etilishicha, nikohning tugatilishiga quyidagilar asos bo‘ladi:*

- a) er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e’lon qilishi;
- b) nikohdagi er-xotindan biri yoki har ikkalasining nikohni bekor qilish to‘g‘risida bergen arizasi;
- d) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergen arizasi.

Ushbu asoslardan biri mavjud bo‘lsa, er va xotin o‘rtasida tuzilgan nikoh bekor bo‘ladi, ya’ni tugatiladi.

### **Nikohni haqiqiy emas deb topish**

Nikoh quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi:

- 1) Oila kodeksining 14–16-moddalarida belgilangan shartlar buzilganda;
- 2) soxta nikoh tuzilganda, ya’ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko‘zlamay nikoh qayd qildirganda;
- 3) nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OITV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etsa.

Nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

### **Nikohni haqiqiy emas deb topish oqibatlari**

Haqiqiy emas deb topilgan nikoh er-xotin uchun Oila kodeksida belgilangan shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltirmaydi. Nikohni haqiqiy emas deb topilgan shaxslarning mulkiy huquqiy munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Nikohning haqiqiy emas deb topilishi shunday nikohdan tug‘ilgan yoki nikoh haqiqiy emas deb topilgan kundan keyin uch yuz kun ichida tug‘ilgan bolalarning huquqlariga ta’sir etmaydi.

Insofli er (xotin) nikoh haqiqiy emas deb topilganda, nikoh tuzish davlat ro‘yxatiga olingan vaqtda tanlagan familiyasini saqlab qolishga haqli bo‘ladi.

### **3-§. Oila a’zolarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlari, aliment majburiyatlari**

Oila munosabatlari nikoh munosabatiga qaraganda keng tushuncha hisoblanadi.

Chunki nikoh munosabati oila qurishni maqsad qilgan erkak va ayol o'rtasida vujudga kelsa, oilaviy munosabatlar nafaqat er-xotin, balki ota-on, farzandlar, aka-uka, opa-singil kabi boshqa yaqin qarindoshlar o'rtasida vujudga keladi. Nikoh er va xotinni birlashtirsa, oila esa o'z tarkibiga 5–10 va ba'zan undan ham ko'p bo'lgan oila a'zolarini o'z tarkibiga olgan tuzilma sifatida tushuniladi.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar axloq-odob va huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadi.

Oilaviy munosabatlar er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Oila a'zolarining huquq va majburiyatları Oila kodeksida alohida tartibda belgilangan. Unga ko'ra:

- er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatları (4-bob);
- er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatları (5-bob);
- ota-on, hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatları (11, 12, 13-boblar);
- oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları (14, 15, 16-boblar).

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatları vujudga keladi.

## **Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatları:**



**01**

familiya tanlash huquqi

**02**

bolalar tarbiyasi va oila  
turmushi masalalarini hal  
qilish huquqi

**03**

mashg'ulotturi, kasb va  
turar joy tanlash huquqlari

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar bo‘lajak er-xotinning umumiylablag‘lari hisobiga olingan mol-mulkleri, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiylablag‘lari hisoblanadi.

Er va xotin ularning birgalikdagi umumiylablag‘lari hisobga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga egadir.

Er va xotinning nikohga qadar o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkini, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulkini ulardan har birining o‘z mulki hisoblanadi.

### **Nikoh shartnomasi**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin oila institutini, oilaviy va mulkiy munosabatlarni mustahkamlash, jamiyatda kechayotgan islohotlarda uning o‘rnini va ahamiyatini oshirish uchun Oila kodeksiga nikoh shartnomasi haqidagi qoida kiritildi. Nikoh shartnomasi va u bilan bog‘liq munosabatlar Oila kodeksining 29–36-moddalari mazmunida bayon etilib, ushbu kodeksni yana bir institut bilan boyitdi.

Oila qonunchiligidagi nikoh shartnomasi to‘g‘risidagi normalar ilk bor Oila kodeksining 29–36-moddalarida aks etgan.

## **Yodda saqlang!**

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo‘lg‘usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin bo‘lgan ixtiyoriy shartnomadir.

Nikoh shartnomasi har doim notarial idoralarda tuziladi va kamida ikkita guvoh ishtirokida rasmiylashtiriladi. Nikoh shartnomasi yozma ravishda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanadi.

Nikoh shartnomasi o‘z xususiyatlariga ko‘ra, fuqaroviy-huquqiy shartnoma turlaridan hisoblanadi. Shartnomaning ishtirokchilari nikohga kiruvchilar va nikohdagi er-xotindir. Nikoh shartnomasi faqat mulkka nisbatan tuziladi, u shaxsiy munosabatlarga qaratilishi mumkin emas. Nikoh shartnomasi er-xotin o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan mulkiy nizolarning sudda to‘g‘ri ko‘rib hal qilinishida yordam beradi.



## Nikoh shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari:

**01**

nikohlanuvchilarning huquq va manfaatlari teng himoya qilinadi;

nikohlanuvchilarning mol-mulklariga bo'lgan huquqlari qat'iy belgilab olinadi;

**02**

**03**

nikohdan oldingi mol-mulk hamda nikoh davrida orttirilgan mol-mulkni taqsimlash tartibi oldindan kelishib olinadi.

Nikohlanuvchilar o'rtasida nikoh shartnomasini tuzishdan asosiy maqsad taraflarning mulkiy huquq va majburiyatlarini, shuningdek, manfaatlarini tenglik prinsipi asosida ta'minlash, nikoh shartnomasining predmeti bo'lgan mulklardan samarali foydalanish, er yoki xotindan birining jabrdiyda bo'lib qolishining oldini olish, ortiqcha kamsitishlarga chek qo'yishdan iborat.

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir.

Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega.

Ota-onalik qonunchilikda belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi shart.

Ota-onalik qonunchilikda belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi shart.

Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi.

Ota-onalik qonunchilikda belgilangan zarur darajada ta'lim olishini himoya qiladilar.

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko'rishish, uning tarbiyasida ishtiroy etish va ta'lim olishi masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega.

Bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlar bola bilan ko‘rishib turish huquqiga ega. Ota-onalik (ulardan biri) yaqin qarindoshlarning bola bilan ko‘rishi shuningda imkoniyat bermasalar, vasiylik va homiylik organi ota-onani (ulardan birini) bunday imkoniyat berishga majbur qilishi mumkin.

Ota-onalik (ulardan biri) quyidagi hollarda:

ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan, aliment to‘lashdan bo‘yin tovlasa;

uzrsiz sabablarga ko‘ra, o‘z bolasini tug‘ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

ota-onalik huquqini suiiste’mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo‘lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta’sir ko‘rsatsa;

muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan bo‘lsa;

o‘z bolalarining hayoti yoki sog‘lig‘iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog‘lig‘iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo‘lsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

“

## **Eslab qoling!**

Ota-onalik hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega emas.

Ota-onalik hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega emas.

”

Ota-onalik hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega emas.

Voyaga yetmagan bolalar o‘z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta’miloti olib huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta’miloti uchun olingan mablag‘, pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo‘lib, bolaning ta’miloti, tarbiyasi va ta’lim olishi uchun sarflanishi kerak.

### **Oila a’zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları**

Aliment majburiyatları Oila kodeksining beshinchi bo‘limi va unga oid bo‘lgan 96–147-moddalarida ko‘rsatib o‘tilgan.

Aliment majburiyatları oila a’zolari o‘rtasida sodir bo‘ladigan oilaviy mulkiy xarakterdagi munosabatlardir.

## Eslab qoling!

**Aliment** – lotincha “alimentum” – “oziq-ovqat”, “nafaqa”, “ta’midot”, “boqish uchun mablag’lar” degan ma’nolarni anglatadi.

Aliment – bu bir shaxsning ikkinchi shaxsga majburan oila qonunchiligidagi belgilab qo‘yilgan miqdorda to‘laydigan moddiy narsasi. Amaldagi qonunchilikda bir tomonda davlat ikkinchi tomonda jismoniy shaxs ishtirok etsa yoki ijtimoiy huquqiy munosabatlar sodir bo‘lsa, u holda “nafaqa” so‘zi ishlataladi. Agar oilaviy huquqiy munosabat bo‘lib, unda oila a’zolari ishtirok etsalar, u holda “aliment” so‘zi ishlataladi.

Ota-onada voyaga yetmagan bolalariga ta’midot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta’midot berish majburiyatini ixtiyor ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug‘iga asosan aliment undiriladi.

Aliment to‘lash uni to‘lash uchun majbur bo‘lganning yoki aliment oluvchi shaxsning vafoti tufayli tugaydi. Aliment olish huquqi merosga o‘xshab boshqa shaxslarga o’tmaydi.

### Oila kodeksida aliment undirishning uch xil tartibi belgilangan:

1) Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv (OKning 17-bobi, 130–134-moddalari). Ushbu moddalarning mazmunida ko‘rsatilishicha, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to‘lash tartibi) aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs bilan aliment oluvchi o‘rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo‘lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi.

2) Alimentni ixtiyor to‘lash (OKning 18-bobi, 135-moddasi). Ushbu moddaning mazmuniga ko‘ra, aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs alimentni ixtiyor ravishda shaxsan yoki o‘z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyida yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa turdagи mablag‘ olayotgan joyida to‘lanadi. Voyaga yetmagan bolalar uchun olinadigan aliment arizaga muvofiq OKning 99-moddasida belgilangan miqdorlarda ushlab qolinadi.

3) Alimentni sud tartibida undirish (OKning 18-bobi, 136-moddasi). Ushbu moddaning mazmuniga ko‘ra, aliment olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs, aliment talab qilish huquqi vujudga kelganidan so‘ng qancha muddat o‘tganidan qat’i nazar, xohlagan vaqtida aliment undirish to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

Aliment majburiatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Konstitutsianing 64-moddasida ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi, 66-moddasida esa

voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburligi belgilab qo‘yilgan.

### **Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga to‘laydigan aliment miqdori**

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish haqida ota-ona o‘rtasida kelishuv bo‘lmasa, ularning ta’minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagisi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun – to‘rtadan bir qismi; ikki bola uchun – uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun – yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to‘lov larning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e’tiborga loyiq holatlarini hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko‘paytirilishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

### **Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta’minot berish majburiyati**

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga ta’minot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog‘ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g‘amxo‘rlik qilish va ularga moddiy yordam ko‘rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o‘z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo‘yin tovlasalar, ta’minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Ota-ona, aliment undirish haqidagi talabni o‘z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo‘yanligidan qat‘i nazar, aliment miqdorini belgilashda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olishi lozim.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan aliment undirish nizosi uzil-kesil hal bo‘lgunga qadar sudya shu nizo bo‘yicha vaqtincha to‘lab turilishi lozim bo‘lgan summani ko‘rsatib, ajrim chiqarishi mumkin.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

### **Aliment to‘lashdan bosh tortganlik uchun javobgarlik**

Voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to‘lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslar Oila kodeksining

79-moddasiga asosan, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ota-onasiga moddiy yordam berish to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarorlarini bajarmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek,

xotin homiladorlik davrida va o‘rtada bola tug‘ilgan kundan e’tiboran uch yil davomida, o‘rtadagi nogironligi bo‘lgan bolani u o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar parvarishlashni yoki bolalikdan I guruh nogironligi bo‘lgan o‘rtadagi bolani parvarishlashni amalga oshirgan, yordamga muhtoj bo‘lgan er (xotin) yordam berishga qodir bo‘lgan xotindan (erdan) sud tartibida ta’midot (aliment) olish huquqiga ega.

### **Qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları**

Oila qonunchiligidagi yaqin qarindoshlar ham o‘zining yordamga muhtoj yaqin qarindoshlariga aliment to‘lashlari belgilangan. Oila kodeksining 16-bobi “Qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları” deb nomlanadi.

Voyaga yetmagan, shuningdek, voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj shaxslarga ta’midot berish majburiyati sud tomonidan ularning qarindoshlari: bobo, buvi, nevara, aka-uka, opa-singil, shuningdek, o‘gay ota va o‘gay ona, o‘gay o‘g‘il va o‘gay qiz, doimiy tarbiyada bo‘lgan shaxslar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagisi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son farmoni ijrosini ta’minalash, shuningdek, aliment to‘lovlari jamg‘armasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 avgustdagisi 427-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijo bo'yurosida yuridik shaxs tashkil etmagan holda “Aliment to‘lovlari” jamg‘armasi tashkil etilgan. Mazkur jamg‘arma mablag‘lari voyaga yetmagan farzandini moddiy ta’minalashdan bo‘yin tovlaganlik uchun qarzdor jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda, aliment to‘lovlardan yuzaga kelgan qarzdorlikni (ushbu jinoyat natijasida yetkazilgan zararni) qoplab berishga (bir yo‘la undiruvchiga to‘lab berishga) yo‘naltiriladi. Mamlakatimizda aliment to‘lovlarini kafolatli ta’minalash bo‘yicha yaratilgan yangi tizim voyaga yetmagan va yordamga muhtoj bolalarning ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.



### **Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar**

1. Oila huquqi tushunchasini aytib bering.
2. Oilaviy-huquqiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqi nimada?
3. Nikoh yoshi necha yosh va uni kamaytirish mumkinmi?
4. Nikohni rasmiylashtirish tartibini tushuntiring.
5. Aliment to‘lashdan bosh tortganlik uchun qanday yuridik javobgarliklar belgilangan?

KULDASHEV Nuriddin Abduganiyevich,  
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent;

NURULLAYEV Umidbek Kupalovich,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## FUQAROLIK VA OILA HUQUQI

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
akademik litseylari uchun

## DARSLIK

Muharrir                    G. N. To'rayeva  
Sahifalovchi               M. N. G'aniyeva

Bosishga ruxsat etildi 31.12.2022. Nashriyot-hisob tabog'i 7,9.  
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № . Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
1000197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68

